

L.K. AXATOV

SIYOSAT FALSAFASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Axatov Lutfillo Karamatilloevich

SIYOSAT FALSAFASI

14643/14-

«Mhamroh media»
Toshkent – 2025
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K 321.01
KBK 66;87
A-16

Axatov L.

Siyosat falsafasi. Monografiya / «Mhamroh media» nashriyoti. – T.: 2025. –

– 144 b.

Mas'ul muharr:

f.f.n. prof. Nazarov Nurali Normirzayevich

Taqrizchilar:

p.f.d. prof. A.N. Shopo'latov

f.f.n. dots. Sh.X. Tog'ayev

Bugungi shiddat bilan o'tib borayotgan globallashuv jarayonlarining o'ziga xosligi bu diniy va siyosiy "o'zgarish"lar logikasi har bir tadqiqotchining diqqat markazidan o'rin olganligi bilan ifodalanadi. Bunda siyosat falsafasi va odamlarning haqiqiy mavjud holatda bilimlari qanday bo'lsa (aslida esa – ular ma'lum ma'noda hudbin va johillik tabiatiga ega hisoblanadi), shundayligidan kelib chiqqan holatda ishlab chiqilishi kuzatiladi. Siyosatning mahsuli sifatida hodisalarning amaliy tekislikda ong tarkibiga joylashishi jarayonida shakllanuvchi ijtimoiy fenomeni daxldorlik tarzida olinadi. Shu bilan birga, simbolik kommunikatsiya – bu siyosatning asl mazmun – mohiyatini ochib beruvchi, hokimiyatga oid majburlashlarning alohida tipini o'zida aks ettirishligi ham muhimdir.

Bugungi kunda siyosat va falsafaning jamiyat hayotidagi o'rni va roli muhimdir. Jamiyatning rivoji va ertangi kunini ham bu ikki soha vakillarisiz tasavvur qilish qiyen. Bularning bir butunlikdagi voqiyiligi bu siyosat falsafasining yadrosini hosil qilishligi lozim.

*Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy
texnik kengashitomonidan nashrga tavsiya etilgan
(7-son bayonnoma, 2024 yil 12 dekabr)*

ISBN 978-9910-780-19-6

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. SIYOSAT FALSAFASIGA KIRISH	6
I.1. Siyosat falsafasining predmeti, maqsadi va vazifalari	6
I.2. Siyosat falsafasi falsafaga doir bilimlar bo'limi sifatida	10
I.3. "Falsafa" va "siyosat" tushunchalarining o'zaro munosabati va aloqadorligi	17
I.4. Siyosat falsafasida ijtimoiylik asoslari	24
I.5. Fuqorolik jamiyatining shakllanish bosqichlari.....	33
II BOB. SIYOSATSHUNOSLIK VA SIYOSAT FALSAFASINING RIVOJLANISHI	48
II.1. Siyosat falsafasining siyosatshunoslikdan farqi	48
II.2. Siyosat falsafasining asosiy rivojlanish bosqichlari	54
II.3. Siyosat falsafasining asosiy tushuncha va tamoyillari	64
II.4. Siyosat falsafasida individuallik va jamoaviylik.....	74
II.5. Inson – siyosatning subyekti va obykti sifatida.....	83
III BOB. SIYOSAT FALSAFASIDA SIYOSIY HOKIMIYAT MASALASI.....	92
III.1. Siyosiylik – bir butunlikning elementlari sifatida	92
III.2. Siyosiylikning tarkibiy komponentlari	99
III.3. Siyosat falsafasida ijtimoiy siyosat va aholi ijtimoiy faolligi masalasi.....	108
III.4. Hokimiyatning tabiati va unga intilishning siyosat falsafasida tahlil etilishi.....	117
III.5. Siyosat falsafasida bevosita va bilvosita hokimiyat masalasi.....	126
XULOSA	134
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	142

KIRISH

Hikmat shu – falsafa va siyosat o'rtasidagi munosabat va dialektik jarayonlarni o'rganish. Shunday ekan, ushbu mavzu jamiyat uchun kerakli, chunki jamiyatning siyosiy hayoti qator fanlar, shu jumladan siyosiy fanlar, siyosiy sotsiologiya, siyosiy psixologiya, shuningdek falsafa tomonidan o'rganilishi tabiiy. Bundan ko'rinib turibiki, falsafa barcha fanlarga aloqador va barcha siyosiy hodisalarning o'zaro ta'sirida ularning mohiyatini tushunishga intilgan holda, konsensus vazifasini belgilovchi "hakam"lik maqomida turadi. Biz o'rganadigan ijtimoiy jarayonlar genezisi sifatida, ushbu monografiyada keltirilgan ma'lumotlar falsafaning siyosat falsafasi kabi sohasini o'rganishga qaratilgan mavzu sanaladi.

Ushbu mavzuning tarixiga kelsak, siyosat falsafasiga aloqador, muammolar qadimgi falsafada, avvalambor Platon va Aristotel asarlarida hal keltirilgan. Uyg'onish va Yangi asrdagi ijtimoiy-falsafiy nazariyalarning substansionalligi siyosiy, birinchi navbatda, davlat hokimiyatining mohiyatini N.Makiavelli asarlarida, shuningdek, tabiiy huquq nazariyasi T.Xobbes, J.Lokk va B.Spinoza bilan bog'liq sanalishligini ham alohida inobatga olish zarurdir. J.Lokk va bir qator siyosiy pozitsiyada faolitlarini shakllantirgan tadqiqotchilar tomonidan hokimiyat, fuqarolik jamiyati va qonun ustuvorligini ajratish muammosini o'rganishgan.

Siyosat falsafasini tadbiq qilar ekanmiz, siyosiy mafkuraning asosiy yo'nalishlarini ham - liberalizm (S. Monteski), konservatizm (Y.Burke) va totalitarizm (J.-Dj.Russo) unutmaslik kerak deb hisoblaymiz. Tarixiy manbalar asosida tadqiqotning muayyan qismi bu – nemis klassik falsafasida huquq va davlatning axloqiy asoslarini (I.Kant) va huquq falsafasini (G.Hegel) o'rganishga muvaffaq bo'lganligi ham jamiyatning muhim periferiyasi vazifasini o'tagan deb qaraladi. Siyosat falsafasini o'rganish orqali ko'plab "bahs"li

jarayonlar va jamiyatning ijtimoiy hayotiga aloqador pozitsiyalarni ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, siyosat va iqtisodiyotning o'zaro ta'siri, tarixdagi zo'ravonlikning roli, axloq va siyosat o'rtasidagi munosabatlar, davlatning kelib chiqishi va funksiyalari, shuningdek, uning yo'q bo'lib ketishi shartlari haqidagi marksistik ta'limotga bo'lgan "qarash"larni olishimiz mumkin. Bu jarayon (marksistik ta'limot) natijasi ularoq, anarxizmning siyosiy g'oyalari (M.Bakunin, P. Kropotkin) va 20-asrning geosiyosiy tushunchalari ham qiziqish uyg'onganligi (K. Xausxofer, X.Makkinder va boshqalar) aytiladi.

I BOB. SIYOSAT FALSAFASIGA KIRISH

I.1. SIYOSAT FALSAFASINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Siyosat falsafasi siyosatga tegishli bo'lgan g'oyalarni, siyosiy qadriyatlarni, siyosiy faoliyatning mazmun – mohiyatini va siyosiy tahlilning intellektual boshlang'ichlarini o'rganuvchi falsafa bo'limi hisoblanadi. Siyosat falsafasi siyosatni bir butun holatda o'rganuvchi bilimlar sohasi hisoblanib, siyosatning tabiati, odamlar uchun ahamiyati, shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, jamiyat va davlat hokimiyati o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va ushbu asosda g'oyalarning ishlab chiqilishi, bundan tashqari siyosatning baholanishi bo'yicha umumiy mezonlar ishlab chiqilishini belgilab beradi. Siyosat falsafasi bu siyosatning nisbatan umumiy asoslari, chegaralari va imkoniyatlari haqidagi, uning tarkibidagi obyektiv va subyektiv munosabatlar, qonuniy tavsifdagi va tasodifiylik asosidagi, mavjud va zaruriyatlar, ratsional va ratsionallikdan tashqari holatlar haqidagi fan hisoblanadi.

Siyosat falsafasi tarixiy nuqtai nazardan inson tomonidan siyosiy hodisalar haqida ishonarli bilimlarni qidirish bilan bog'liq hisoblanadi. Bizning davrlarimizga yaqin davrlarda siyosat falsafasi masalalari bilan ko'proq darajada g'oyalar tarixi shug'ullana boshlagan. Joriy davrda siyosat falsafasi bilan ma'lum bir jihatlar bo'yicha tafakkur va aql – idrok, mantiq yoki ichki sezgilar (intuitsiya) asosida emas, balki ilmiy verifikatsion propozitsiyalar asosida asl mohiyatni qidiruvchi empirik nazariya raqobatchi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, siyosat falsafasi masalalari bilan zamonaviy siyosatshunoslik va siyosiy fanlarning o'qitilishi tarkibi xam yetarlicha darajada shug'ullanadi. Siyosat falsafasining tadqiqot obyekti sifatida bu siyosiy refleksiyaning (mulohaza yuritish) tashkil topadi. Predmet bu siyosiy refleksiyaning

asosiy tushunchasi hisoblanadi. Siyosiy refleksiyaning subyekti esa bitta individ, partiya yoki halq bo'lishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot natjasi ularoq monografiyada, mavzuga oid xorijiy adabiyotlar bilan ishlash darajasi orqali, siyosat falsafasining siyosatga tegishli bo'lgan jarayonlari keng yoritilgan.

Bunda xorijiy olimlar va mutaxassislar ilmiy ishlaridan foydalanish orqali siyosat falsafasiga tegishli bo'lgan holatlar alohida inobatga olindi.

Siyosat falsafasi kursining maqsadi va vazifalarining bayon etilishiga ham alohida tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun belgilangan vazifalarning dolzarbligi muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosat falsafasi kursining obyekti va predmetining asoslantirilganligi ham o'z dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

Siyosat falsafasi kursining metodologik asosini tashkil etuvchi kategoriyalar, qonuniyatlarining aks ettirilishi, demokratik huquqiy davlatda ijtimoiy-huquqiy hodisalarni bilishning falsafiy, nazariy-huquqiy usullarining qo'llanishi kursning bosh maqsadlaridan sanaladi.

Siyosat falsafasi kursini shakllantiruvchi omillardan biri bu kursga aloqador bo'lgan dealektik tamoilarning tizimlilik holati bilan ifodalanadi. Misol uchun: O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, turli anjumanlarda so'zlagan nutqlarida o'z ifodasini topgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jamiyat hayotini erkinlashtirish, inson huquqlari bo'yicha konsepsiyalarning muhim uslubiy asos sifatida ko'rsatilishi bir tizim sifatida shakllangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentini Sh.M.Mirziyoyevning 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar Strategiyasidagi belgilangan vazifalar, hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ilgari surilgan g'oyalarning metodologik ahamiyati ham muhim tizim sifatida qoraladi.

Siyosat falsafasi kursini tadqiqotining manbasi, o'rganilgan adabiyotlar va materiallarning hajmi, ularning qo'llanilishi holati alohida o'ringa ega. Siyosat falsafasi kursidagi ilmiy yangiligining farazlari ham keltirilgan. Bunda ilmiy tadqiqot natijasi sifatida olinadigan ilmiy yangilikning bayon etilishini ham o'z tarkiga olgan.

Siyosat falsafasi kursida ilmiy yangilikning boshqa ilmiy jamoatchilik tomonidan muqaddam bayon qilingan ilmiy mulohazalardan farqli tomonlari keltiriladi. Bunda ilgari surilayotgan ilmiy fikrlar, holatlar va tavsiyalarning bayoni bilan siyosat falsafasi kursining nazariy va amaliy ahamiyati muhimdir.

Ma'lumki, jamiyatning siyosiy hayoti qator fanlar, jumladan, siyosiy fanlar, siyosiy sotsiologiya, siyosiy psixologiya, shuningdek falsafa tomonidan o'rganiladi. Falsafa barcha siyosiy hodisalarning o'zaro ta'sirida ularning mohiyatini tushunishga intiladi. Bu falsafaning siyosat falsafasi kabi sohasini o'rganish mavzusining nazariy qismi sanaladi.

Siyosat falsafasi siyosat va hokimiyatning nedensel aloqalari, ularning ijtimoiy ma'nosi, siyosatning moddiy va ideal shakllarda mujassamlanishi, davlat, fuqarolik jamiyati, siyosiy ong muammolari, uning axloq, din, san'at va boshqalar bilan aloqalari bilan qiziqadi.

Kuch, shu jumladan siyosiy hokimiyat bir qator xususiyatlarga egaligini ham inobatga olish lozim.

Birinchidan, bu hokimiyat obyekti va obyekt mavjudligini taxmin qiladi.

Ikkinchidan, hokimiyat shaxsiyatga, guruhlariga va ijtimoiy institutlarning barcha faoliyat turlarida mavjud degan ma'noda universallikka ega.

Ijtimoiy shart-sharoitlar yoki kuch manbalari sifatida odamlar o'rtasida mehnat, mulk munosabatlari va hokazolarning bo'linishi sababli guruh, sinf va sinf farqlari ko'rib chiqilishi mumkinligi ham borki, bugungi kunda o'z dolzarbligini yuqotmagan.

Misol uchun: Funksional jihatdan, kuch ma'lum bir tartib va tomonlarning harakatlarini muvofiqlashtirish orqali namoyon bo'ladi, ularning umumiy moddiy manfaati, ma'naviy yaqinligi yoki taqlidiga, odatiga va boshqalar. Har qanday hokimiyat faqat ixtiyoriy yoki majburiy rozilik, itoatkorlikka tayyor bo'lgandagina mumkinligi. Eronda islom inqilobi buning isboti bo'lishi mumkinligi tarixiy manbalarda keltirilgan: har qanday siyosiy rejim, agar odamlar ko'chalarga chiqsa va hukumatning buyruqlariga bo'ysunmasa, o'limga mahkumdur.

Siyosat falsafasi kursida, siyosiy hokimiyat jamiyat siyosiy hayotining ajralmas qismi sanaladi, ammo uni oxiriga yetkazmaydigan jarayonlarni aniqlashga o'rinishlar borligiga urg'u beradi. Jamiyatning siyosiy hayoti turli ijtimoiy kuchlarning siyosiy faoliyatidan iborat. Shu bilan birga, ularning har biri o'zlarining siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga harakat qilmoqdalar. Siyosat - bu davlat yordami bilan amalga oshiriladigan hukmronlik va bo'ysunish munosabatlarini o'rnatish asosida jamiyat hayotining turli sohalarini tartibga solish va boshqarish. Uning mohiyati siyosiy kuchdir.

Amerikalik sotsiolog S.Lipset siyosiy hokimiyat qonuniy, ya'ni qonuniy bo'lgan taqdirdagina barqaror yekanligini ta'kidlaydi. Ikkinchisi mumkin: a) hokimiyat an'analarga, masalan, monarxiyaga asoslanganda; b) oqilona-huquqiy, ya'ni qonuniy ravishda, masalan, saylovda g'alaba qozonish natijasida; v) xarizmatik xususiyatga yega, ya'ni siyosiy rahbarning shaxsiy fazilatlariga bo'lgan ishonchga asoslangan.

Siyosat falsafasi kursida, siyosatning sifat jihatlarini yoddan chiqarmaslik kerakligiga ham diqqatni tortadi. U universallik, keng qamrovli tabiat, jamiyatning har qanday tomoniga ta'sir ko'rsatish qobiliyati bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, siyosat siyosiy munosabatlar, siyosiy institutlar va siyosiy mafkura orqali amalga oshiriladi. Odamlar hokimiyat bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatadilar, ular turli siyosiy tashkilotlar ko'rinishida joylashtirilgan va bir vaqtning o'zida ularning ongida, shu jumladan siyosiy mafkura shaklida aks ettirilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida bayon qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"ning ilmiy tadqiqot ishida nazariy asos sifatida olinganligi darajasi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar nazariyasi va amaliyotida vorisiylik: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari" konsepsiyasidan ilmiy tadqiqotda foydalanilgan darajasi va huquqiy davlat: g'oyalar tarixi va hozirgi zamon "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" hamda "Milliy yuksalish sari" g'oyasining siyosiy qurilish dasturi va uni joriy etish muammolari siyosat falsafasi kursining o'rganilish darajasini belgilaydi.

I.2. SIYOSAT FALSAFASI FALSAFAGA DOIR BILIMLAR BO'LIMI SIFATIDA

Siyosat asoslari haqida fikr bildirganda, shunday qiyinchilik vaziyati yuzaga keladiki, ya'ni bu asoslar Sharq va G'arb olamida o'zaro farqlanadi, shuningdek an'anaviy va zamonaviy jamiyatlarda xam bu asoslar o'zaro farqlanishi qayd qilinadi. Sharqda va umuman olganda, an'anaviy olamda siyosatning asosiy masalalari sifatida ijtimoiy tartiblarning ta'minlanishi va jamiyatni tartibsizlik (xaos) holatidan chegaralash, muhofaza qilish masalasi ko'rsatib o'tiladi. Tartibni, barqarorlik va merosiylikni qanday ta'minlash masalasi – bu an'anaviy siyosat falsafasi tomonidan qarab chiqiluvchi masala hisoblanadi. G'arb olamining modernizatsion jamiyatlarida tartib masalasiga urg'u berilmaydi, balki demokratik tartiblarning ta'minlanish usullari ustuvor masala sifatida qarab chiqiladi. Tartib va xaos dilemmasi bilan

birgalikda demokratik yoki avtoritar tartib dilemmasi muhokama qilinadi. Ya'ni, agar Sharq olamida siyosat tartibni ta'minlashga qaratilgan yo'nalishda amalga oshiriluvchi ishlar ketma – ketligini anglatssa, va bunda uning manbalari oldindan ma'lum bo'lsa (bu yerda merosiylik asosida qaror topgan hokimiyat va ijtimoiy funksiyalarning tabaqalarga oid tavsifda mustahkamlanishi nazarda tutiladi), u holda G'arb olamida esa – siyosat saylovchilar tomonidan bildirilgan ishonch natijalari mandati e'lon qilinishi asosida kim (ya'ni, qaysi partiya, prezident yoki boshqalar) boshqaruvni amalga oshirishi masalasiga oydinlik kiritishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish ketma – ketligidan tashkil topadi.

Yuu holat falsafiy – uslubiy jihatidan mohiyatiga ko'ra, Sharq olamida siyosat dunyosi qat'iy tartibdagi, qattiqo'llikka asoslanilgan, «Laplas» determinizmi qonuniyatlariga bo'ysinishi qayd qilinadi, bu holatda G'arb olamida esa – o'z tarkibiga meyoriy holatdan og'ish va eksess holati emas, balki qoida va tartiblar sifatida tavsiflanuvchi havf – hatar va noaniqlikni qamrab oluvchi stoxastik tamoyillarga asoslaniladi. Siyosat falsafasi oldindan aniq bo'lgan va shuningdek, noaniqlikdagi (stoxastik) dilemmalar bilan shug'ullanishi bilan birgalikda, an'anaviy tavsifdagi falsafiy dilemma hisoblangan – nominalizm – realizm masalalari ustida xam ish olib boradi. Sharq olamida siyosiy hayot mohiyati individual holatlar ustidan realizm ustuvorligi paradigmasida oydinlashadi. Bu ko'rinishdagi ustuvorlikdan tashqari holatlarda asosiy masala hisoblangan – tartibsizlik (xaos) ustidan erishiluvchi g'oliblik masalasi hal qilinmaydi. G'arb olamida siyosiy dunyo mazmun – mohiyati esa – nominalizm paradigmasida o'zligini namoyon qiladi, ya'ni agar bunda saylovchilar mustaqil holatda o'z saylovlarini amalga oshiruvchi, o'zlarini yakka tartibdagi avtonomiya sifatida tutishlari bilan birgalikda, faqat bunda bor – yo'g'i jamoaviy guruhga (sinfy) tegishli mazmun – mohiyatni yoki irodani namoyish qilishlari qayd qilinadi, bu holatda siyosiy jarayon oydinlik kiritish sifatidagi amalga oshiriluvchi ishlar ketma –

ketligi mazmunini yo'qotadi, ya'ni ushbu vaziyatda ko'pchilik va kamchilikni tashkil qiluvchilar oldindan ma'lum hisoblanadi. Nihoyat, siyosat falsafasi siyosiy holatlarning tugan o'rni haqidagi masalani va uning ijtimoiy hayotning boshqa sferalariga nisbatan munosabatlarda avtonomiya sifatida o'lchovlari darajasi masalani hal qiladi.

Siyosat falsafasi kursining dolzarbligi, uning bugungi kundagi ahamiyatini to'laqonli anglab yetilmayotgan "barkamol avlod" – yoshlar o'rtasidagi, nafaqat yoshlar, katta avlod vakillari o'rtasidagi ziddiyatli holatlar va uning yichimi siyosiy nuqtainazardan va axloqiy (falsafiy) normalar asosda hal etilmay qolinganligidadir.

Ma'lumki, xorijiy mamlakatlar va ularning ma'lumotlari asosida siyosiy jarayonlar birmuncha "o'zgacha yondashuv"lar asosida beriladi.

Jamiyatning siyosiy hayoti iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Ularning munosabatlari ko'pincha siyosat va iqtisodiyotning o'zaro ta'siri sifatida talqin qilinadi. Siyosat va iqtisodiyotning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri masalasi K.Marks va bir qancha "dohiy"lar tomonidan keltirilgan asarlarida to'liq yoritilganligi e'tirof etiladi. Birgina Lenin va undagi marksizm nuqtai nazaridan, moddiy ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, mehnat taqsimoti xarakteri, mulkiy munosabatlar odamlarning moddiy manfaatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va siyosiy nazariyalar va dasturlarning mazmunini belgilashligi aytiladi.

Mamlakatimizdagi holat esa malakatda mustaqillikning e'lon qilinishi va uning dastlabki bosqichida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy ahvol, respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ilmiy-nazariy sharhiga ko'proq ahamiyat beriladi.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga ilmiy-nazariy o'tish zarurligining O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abduq'aniyevich Karimov tomonidan ilmiy asoslanishining siyosat falsafasi kursida o'rganilishligini ta'minlash lozim. Bozor munosabatlariga o'tishning "O'zbek modeli"ning ishlab chiqilishi va uning ilmiy

asoslanishi. "O'zbek modeli"ning amaliyotga joriy etilish jarayoni va uni hozirgi zamon nuqtai nazaridan takomillashtirilishi haqida siyosiy jarayonlar aynan siyosat falsafasi kursida berilishligi lozim.

O'z navbatida, mavjud siyosiy mafkura, masalan, bozor iqtisodiyoti mafkurasi yangi iqtisodiy voqelikning paydo bo'lishi uchun zarur shart bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, siyosat va iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi haddan oshib ketmasligi kerak, chunki ular nafaqat o'zlarining qonunlariga (masalan, bozor va siyosiy kurash qonunlariga) muvofiq rivojlanib boradilar, balki ular ilmiy va boshqa omillar tomonidan turli xil ta'sir ko'rsatadilar. texnologik taraqqiyot, yekologik vaziyat, milliy psixologiya, din va boshqalar. Bundan tashqari, u yoki boshqa tarixiy bosqichda, ma'lum bir jamiyatda ushbu omillarning har biri hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin¹.

Bunday jarayonlarni O'zbekiston misolida olib ko'radigan bo'lsak, O'zbekistonda institutsional o'zgarishlarning zarurligi va ahamiyatiga alohida to'xtalish lozim. Boshqaruv tizimi va mexanizmi sohasidagi islohotlar ham mustasno emas. Markazdan turib boshqarish va rejalashtirishdan voz kechib, erkin bozor iqtisodiyoti mexanizmini shakllantirish lozim. Muassasalar tizimini o'zgartirishning ahamiyati ochiq-ligicha qolmoqda. Davlatning iqtisodiyotni bevosita boshqarish funksiyasining uni iqtisodiy dastaklar yordamida tartibga solish funksiyasiga aylantirilishi ham diqqat markazida bo'lish kerak. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlarning o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlarini siyosat falsafasi orqalm tahlil etilishligi kerak. Iqtisodiyotni boshqarishda nomarkazlashtirishlar ham mavjudligini bartaraf qilish. Iqtisodiyotni tartibga solishda nodavlat va jamoat tashkilotlari rolining oshishi kerak.

Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish zaruriyati va muhim yo'llarini "yo'l xaritasi" qilib belgilab olish kerak. Korporativ boshqaruv tizimi joriy etilishining dolzarb muammolari va ularning hal etilishiga ahamit qaratish lozim.

¹ Философия: курс лекций А.А.Радугин. М.: Центр, 1996 – 336с.

Siyosat falsafasi kursi orqali bozor iqtisodiyotini, narxlarni erkinlashtirish iqtisodiyotni erkinlashtirishning muhim sharti ekanligini o'qitib borish kerak. Talab va taklif asosida erkin bozor narxlarining yuzaga kelishi – bozor iqtisodiyotining asosiy qonunlaridan biri sanaladi. Ma'muriy-buyruqbozlik sharoitida narx-navolar tizimi va uni isloh qilish zarurati mavjud. 1991-1995 yillarda narxlarni erkinlashtirishdagi jiddiy o'zgarishlar sifatida talaba-yoshlarga ko'nikma bo'lish kerak.

O'zbekistonning geografik xususiyatlarini ham siyosiy va falsafiy tomonlarini ochish zarur. O'zbekistonga nisbatan geosiyosiy va geoiqtisodiy qiziqishlar oshib borishining sabablari fikrimizga misoldir.

O'zbekistonning moddiy imkoniyatlari, tabiiy boyliklari, zahirasi, mamlakatda neft va gaz, tog'-kon sanoatining istiqbollari, undan omilkorlik bilan foydalanishning amaliy tadbirlari dasturi bilan tanishish imkoniyatini ochish kerak.

Erkin iqtisod, iqtisodni erkinlashtirish, ochiq iqtisod va iqtisodiy islohotlar tushunchalarining mazmun-mohiyatini yanada soddalashtirib tushinchalar berish kerak. Ochiq iqtisodiyot poydevorini vujudga keltirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini keng jamoatchilik oldida amalga oshirish kerak. O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari faoliyatidagi ishtiroki: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa Ittifoqi komissiyasi va boshqalar muhim strategik ahamiyatga ega. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda O'zbekiston bilan hamkorligi misolida. Milliy valyutaning joriy etilishi va bozor munosabatlari tizimida milliy valyutaning tutgan o'rni va rolini mustahkamlash zarurati ham bor. Kuchli milliy valyuta – mamlakat iqtisodiy mustaqilligining ramziy mezonini sanaladi. Iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining natijalari va saboqlari bu iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichining ustuvor yo'nalishlari

kabi yo'nalishlari mavjud. Davlat mulkini xususiyashtirish bo'yicha boshlangan ishlarni yakunlash, chinakam mulkdorlar safini kengaytirishni jadallashtirish, ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, milliy valyutani mustahkamlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, xom-ashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish. Davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini qisqartirish, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlariga erkinlik berishligi masalasi ham bor.

Siyosat falsafasi orqali iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat mulkini xususiyashtirishga qo'yilgan asosiy talablar va haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish masalisiga ham e'tibor qaratishimiz kerak. Xususiyashtirish orqali mamlakatda iqtisodiy raqobat muhitini yaratish masalasi ham bor. Davlat tasarrufidan chiqarilgan korxonalarda ishlab chiqarish tuzilmasini diversifikatsiyalash raqobatbardoshligini ta'minlash vositasini kengaytirish lozim. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda xususiyashtirish jarayonlarining asosiy maqsad va yo'nalishlarini tahlil qilib borish kerak. Tarmoq va mintaqaviy xususiyashtirish, xususiyashtirishda hududiy darajadagi markazlar maqomining oshirilishi, yirik va o'rta korxonalarni keng ko'lamli aksiyadorlikka o'tkazish, qishloq joylarida xususiyashtirishni jadallashtirish, qishloq xo'jaligi yerlarini meros qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanishga berish masalasini ko'rish kerak. Sanoatning asosiy tarmoqlarini xususiyashtirish bo'yicha belgilangan vazifalarni unutmaslik kerak. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan ikkinchi bosqichda xususiyashtirilgan korxonalarning unumli ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Bu kursda mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish siyosatining maqsadini aniqlab olish imkoniyati mavjud. O'zbekistonning iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi o'ziga xos yondashuvi bor. Iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy mezonlari va iqtisodiy islohotlarning

ikkinchi bosqichida budget-soliq siyosatining muhim vazifalari belgilangan. Pul muomalasini tartibga solishning ustuvor yo'nalishlari ham mavjud. Bank va moliya tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirish, qat'iy pul-kredit siyosatini o'tkazish masalalari va inflyatsiya darajasini pasaytirish choralarini ko'rish kerak.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda chet el investorlarini jalb qilish va qo'shma korxonalarga qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar berish haqidagi natijali g'oyalarni ham aynan siyosat falsafasi kursi orqali ma'lumotlar beriladi. Chet el investorlari uchun belgilangan kafolatlar mavjudligi va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha qo'yilgan vazifalar ke'g'aytirilishi kerak. Chetdan xomashyo, butlovchi qismlar va oziq-ovqat mahsulotlari keltirishni qisqartirish maqsadida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirish, respublika iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash yo'nalishlari, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni talab bilan muvofiqlashtirish, mamlakat eksport imkoniyatlarini kengaytirish va to'lov balansini ijobiy qoldig'ini ta'minlash choralarini kuchaytirish kerak.

Siyosat falsafasi kursi orqali tadrijiy taraqqiyot (dealektik) nazariyasi va uning bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tishda maqbul yo'l ekanligi va eskilik bilan yangilik orasidagi ziddiyatlar, tafovutlar va ularni bartaraf etish omillari haqida tasavvurga ega bo'lish kerak. "Kim edigu kim bo'ldik?" shiorining o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqillik va milliy taraqqiyot konsepsiyasining natijalari va xamda istiqboldagi vazifalari va milliy taraqqiyot va umumbashariy hamkorlik uyg'unligini dialektik o'rganilishligi lozim. Ziddiyatlarni murosa asosida hal etish nazariyasini kengroq siyosat falsafasi asosida ma'lumotlar berib borishlikni yo'lga qo'yish kerak.

Jamiyatda manfaatlar va o'zaro bog'liqlik tendensiyasini o'rganish orqali taraqqiyot va uning zarurati ham aynan siyosat falsafasi kursi orqali berilishligi darkor. Misol uchun falsafaning dialektik qonuniyati orqali islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani va

uning ijobiy natijalari haqida kengroq ma'lumotlar shakllantirishligimiz lozim. "Ijtimoiy tabaqalashuv va milliy hamjihatlik", "milliy manfaatlar" tushunchalari bunga misoldir. O'rtahol tabaqa mavqeyining ortib borishligi va sobiq totalitar mafkuraning zararli oqibatlarini aynan siyosat falsafasi kursi orqali keng targ'ib qilish kerak. Plyuralizm, fikrlar xilma-xilligi, shaxs erkinligi va demokratiya tamoyillari bugungi kundagi holatini ham.

Ijtimoiy ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal qilish nazariyasini siyosat falsafasi kursi misolida qarash kerak. Tafakkurdagi evrilish va o'zgarishlar, mulkdorlik ruhiyatini tiklash va yangidan shakllantirish, kishilarda ishbilarmonlik, tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Xalq boy bo'lsa, davlat boy bo'ladi" g'oyasining amaliyotga tatbiq etilish jarayoni fikrimisga asosdir.

I.3. "FALSAFA" VA "SIYOSAT" TUSHUNCHALARINING O'ZARO MUNOSABATI VA ALOQADORLIGI

Agar, biz falsafa o'z nima va siyosat o'zi nimaligini aniq bila olganimizda edi, u holda biz umuman boshqacha, ideal olamda hayot kechirgan bo'lar edik. «O'ylash – o'zi nima?» (Martin Xaydegger) yoki «Falsafa – o'zi nima?» (Jil Delez) kabi savollarga ko'plab eng yaxshi zamonaviy faylasuflarning kitoblari bag'ishlangan. Jumladan, martin Xaydegger quyidagi fikrlarni yozib qoldirgan: «...Biz yillar davomida buyuk donishmandlarning tafakkur maxsuli hisoblangan asarlar ustida astoydil shug'ullanar ekanmiz, bu holat bari – bir bizning fikrlay olishimiz yoki eng bo'lmaganda fikrlay olishni o'rganishimizga kafolat bermaydi».

Falsafa – bu ichki olamga sayohat hisoblanadi. Grek tilida «falsafa» (filosofiya) so'zi «filos» (filos) va «sofiya» (sofiya) ko'rinishidagi ikkita o'zak so'zlardan xosil bo'lgan. Bunda «filos» so'zi – «muhabbat», «ko'ngil qo'yish», «nimaga qiziqish» degan ma'noni

OXBOROT RESURS MARKAZI

anglatadi, «sofiya» soʻzi esa – «donishmandlik», degan maʼnoni anglatadi, oʻz navbatida «falsafa» (*filosofia*) – bu «donishmandlikni sevish» degan maʼnoni anglatadi. Falsafa «bilish», «bajara olish» yoki «egallash» emas, balki aynan, «donishmandlik» hisoblanadi. Grek tilida «sofiya» («donishmandlik») soʻzi qismlarga ajralmaydigan bir butun holatdagi, bizdan tashqaridagi haqiqiy voqeilikni anglash uchun qiyin amalga oshiriluvchi holatni anglatadi.

«Donishmandlik» tushunchasi orqali qadimgi davrda Ilohiy maʼbudlar, hudolar (jumladan, greklarda Paladda, Pallaz hudosi), arxetip, Zaminda mavjud boʻlgan voqeilik va gʻoyalarning falakdagi timsolidan iborat mohiyati va barcha narsalarning ichidagi mavjud mohiyatdan tashkil topgan oliy insoniy mavjudlik sifatida taʼriflangan.

«Sofiya» – bu yashirin tavsifdagi, bizning sezgi organlarimizdan tashqarida joylashgan va hatto, bizning mulohazalarimizdan tashqari boʻlgan, nozik ruhiy substansiya, «olamdagi narsalarga quyilgan, qandaydir koʻzga koʻrinmas yogʻdu» sifatida taʼriflanadi. Uni qidirish, uning oʻziga tortish kuchi falsafa yuritish jarayonining asl tarkibini tashkil qiladi. Zamonaviy tilda «donishmandlik» tushunchasi kam ishlatiladi va ayrim holatlarda bu tushuncha shunchaki, xazil tariqasida qoʻllaniladi. Bizning jamiyatimizda «donishmandlik» tushunchasi kuchli darajada diskretlashtirilgan boʻlib, bunda «donishmand» sifatida jiddiy koʻrinishda faqat komik qahramonlar qabul qilinadi, hozirgi kunda aynan hazillar mazmunida asar qahramonlari xarakterida bizning «donishmand» haqidagi tasavvurlarimiz uygʻunlashtiriladi.

«Filosofiya» (falsafa) atamasining bevosita, toʻgʻridan – toʻgʻri slavyan tiliga tarjima qilinishi – «donishmandlikni sevish» shaklidagi atama qandaydir arxaiik va biroz yopishmaydigan maʼnoni anglatadi. «Donishmandlik» tushunchasi – bu umumiy foydalaniluvchi soʻzlar arsenalida olib qaralganda, yaqqol koʻrinishda aytish mumkinki, zamonaviy tavsifga ega emas. Shu sababli, faylasuflar qidiruvchi va «sevuvchi» holat sifatidagi «sofiya» – oʻzi nimaligi haqida jiddiy oʻylab koʻrilganda, birorta yakuniy toʻxtamga kelishimiz qiyin kechadi:

yaʼni, bizni oʻrab turgan madaniy olam ushbu nuqtai nazardan birorta fikr bildirishga maʼlum darajada qarshilik koʻrsatadi, bizning jiddiy qarashlarimizni parchalab tashlashga intiladi, barcha keltirgan fikrlarimizni shunchaki hazil maʼnosiga yoʻyishi yoki soʻzlar oʻyini (kalambur) sifatida qabul qilishi mumkin.

Falsafa – bu narsalarning ichki tomonidan «joylashgan» va oʻz mohiyatiga koʻra, ularning umumiy holatda bir – biriga muvofiqligini belgilab beruvchi, nozik bosqichga intilish hisoblanadi. Ushbu oʻrinda «ichki» tushunchasining oʻz nimaligiga oydinlik kiritish ehtiyoji yuzaga keladi. Bu shunchaki oddiy tushuncha emas. «Ichki» tushunchasining fizik nuqtai nazardan joylashish oʻrini aniq koʻrsatish mumkin emasligi aniq hisoblanadi. Bu eng avvalo, narsa, hodisa, jarayon va mohiyatning asl koʻzga koʻrinmas ildizlari, manbaida joylashgan instansiya hisoblanadi. Biz narsalarning kundalik hayotda qoyil qolish, chuqur tavsifdagi qoniqmaslik, umidsizlik, qatʼiy tarzda koʻngil qolishi kabi holatlar bilan bogʻliq tarzda har doim «ichki» olamga murojaat qilamiz.

Qoniqmaslikning kundalik hayotda va siyqasi chiqqan tavsifda biz uchun toqat qilib boʻlmaydigan darajaga yetgan vaziyatda, bizning ongimiz yuzada tashqi tomondan bizni qiynayotgan, qidirgan savollarimizga javoblar aks etmagan va boʻlishi xam mumkin boʻlmagan vaziyatda, yaʼni «tashqi» boʻshliq yuzaga kelgan vaziyatda «ichki» oʻzini namoyon qiladi. Nazariy jihatdan olib qaralganda, odam «ichki»siz hayot kechirishi mumkin emas. «Ichki»siz xam u shunchaki, tugʻilishi, oʻqishi, ishlashi va olamdan oʻtishi mumkin. Biroq, bu koʻrinishdagi hayot oʻzining markaziy mohiyatidan, yaʼni eng asosiysi hisoblangan – uningsiz, hayotning mazmun – moyaihti asl hayot boʻlmagan, tutib boʻlmas, sirpanuvchi elementdan mahrum hisoblanadi. Falsafa ushbu nozik oʻlchovlar bilan kasbiy mahorat (professional) doirasida shugʻullanadi, bu holat bir tomondan goʻyoki koʻpchilik uchun zaruriy hisoblanmagandek tuyulsada, boshqa tomondan olib qarlganda esa – kundalik hayotning yashirin oʻqini tashkil qiluvchi,

zaruriy fundamental tashkillovchi sifatida o'rin tutadi. Agar, biz «ichki» nimaligini tushuna olsak, u holda biz faqat uning qismlaridan tashkil topgan barcha narsani tezda anglab yetamiz...

Biz anchadan buyon «zamonaviy olam»da hayot kechiramiz, bu yerda «sofiya», «ichki» va hakoza tushunchalar haqidagi tasavvurlar ilmiy va ijtimoiy diqqat – e'tiborning periferik qismiga o'tkazilishi qayd qilinadi. Shu sababli, hozirgi kunda «falsafa» tushunchasi ko'proq odatlanilgan tarzda, turtki berish mazmunida foydalaniladi. Bu o'rinda u qandaydir tahminiy mazmunga ega holat sifatida o'rin tutadi. Bu atama qadimgi dunyoda tarkib topganligiga qaramasdan, biz bu tushunchaning holatini zo'rg'a anglab yetish darajasida ekanligimiz taajubli holat hisoblanadi.

Qadimgi dunyo faylasuflari tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, donishmandlik nafaqat bilish va anglash bilan bog'liq hisoblanadi, balki u bevosita kundalik turmush, hayot, uning sir – asrorlari, haqiqiy voqeilikning yashirin jihatlari bilan xam bog'liq hisoblanadi. Ushbu holatga bog'liq ravishda, qadimgi davr va keyingi davrlardagi faylasuflar tomonidan antik an'analar asosida tafakkurlash doirasida donishmandlik – bu ontologik voqeilik sifatida qarab chiqiladi. Birinchi bo'lib, «filosofiya» («donishmandlikka muhabbat») atamasidan foydalanishgan Qadimgi Gretsiya faylasuflari tomonidan «faylasuf» («donishmandlikni qidiruvchi») tomonidan «sofiya» tabiatida «intilishlar, istak – mayllar» his qilinadi, bu holat kundalik turmush bilan mos tushadi. «Sofiya» nafaqat oddiy bilimlar, «dunyoqarashlar» haqidagi tasavvurlar emas, balki «kundalik turmush, hayotning Zaminga oid kesimi», uning chuqur ildiziga oid qismi hisoblanadi. «Falsafa» uning boshlang'ich mazmun – mohiyatiga ko'ra, ontologiya, ya'ni «kundalik turmush, hayot haqidagi fan» hisoblanadi.

Siyosatga ta'rif berish. Siyosat – insoniy mavjudlikning ma'lum bir aniq voqeilikdagi oliy imkoniyatlardan foydalanish sohasi hisoblanadi. Siyosatning mazmun – mohiyatini chuqur holatda tavsiflab bergan donishmandlardan biri – Arastu hisoblanadi. U tomonidan siyosat

– «oliy sa'nat» sifatida ko'rsatib o'tiladi. Arastu siyosatda «odamlarning jamoaviy tarzda hayot kechirishining oliy shakli»ni ko'ra olgan. U tomonidan odam – bu siyosiy mavjudot (grek tilida – «zoon politikon») hisoblanishi ta'kidlanadi. «...Odam o'z tabiatiga ko'ra, siyosiy mavjudot hisoblanadi, kimki tasodifiy holatlar natijasida davlatdan tashqarida hayot kechirsa yoki boshqacha aytganda, axloqiy moyaihtiga ko'ra rivojlanmagan mavjudot sifatida qolishi qayd qilinadi, aksincha odam o'z tabiati kuchi ta'siri ostida hayot kechirsa, u holda u oliy yuksalishga ega bo'lgan odam sifatida qaror topadi».

Arastu o'zining davlat haqidagi asarida «polis» tushunchasi haqida fikr bildiradi va «siyosat» («politika») so'zi xam ushbu atama asosida kelib chiqqan bo'lib, quyidagi fikrlar qayd qilib o'tiladi: «...Oilaga va alohida bizning har birimizga nisbatan davlat o'z tabiatiga ko'ra, birlamchi mazmun – mohiyatga ega hisoblanadi, axir qismlarning bir butun holatda bo'lishi zaruriyati mavjud emasmi». Shuningdek, Arastu quyidagi fikrlarni bildiradi: «...Davlat tabiiylik asosida mavjud hisoblanadi va tabiiylik asosida esa – har bir odam mavjud hisoblanadi, odamning alohidalangan tarzda mavjud bo'lishi yetarlicha darajada ma'noga ega emas, ya'ni uning davlatga nisbatan munosabatlari har qanday qismning o'ziga tegishli bir butunlikka nisbatan munosabatlariga o'xshash ma'noga ega hisoblanadi. Kimki jamiyatda umumiy munosabatlarga qodir bo'lmasa, ya'ni o'zini alohida holatda mazmunga ega deb hisoblasa, ya'ni o'zining ehtiyojlarini ushbu nuqtai nazardan qarab chiqmasa, u holda u davlatning tarkibiy qismiga kiritilmaydi yoki shunchaki hayvonlarga xos tabiatga ega bo'lishi yoki ilohiy, ma'budlarga xos tabitga ega bo'lishi mumkin».

Siyosat odamning mavjud bo'lishining ongli tarzda umumlash-tirilishi bo'lib, keltirilgan ushbu anglab yetishlardan kelib chiquvchi yakuniy xulosalarni tasdiqlashga qaratilgan harakatlarning obyektiv tarzda va keng ko'lamda umumiy bog'lanishlari, umumiylikiga erishish sferasini anglatadi. Boshqacha aytganda, siyosat o'z tarkibida

odamning (ijtimoiy, jamoaviy organizm sifatida) quyidagi qarashlarini qamrab oladi:

- 1) O'tmishga nisbatan;
- 2) Ushbu o'tmishning keng ko'lamda mazmun – mohiyatining anglab yetilishi;
- 3) Hayotda keltirilgan xulosalarning navbatdagi qamrab olinishlari, ya'ni kelajakka oydinlik kiritish nuqtai nazaridan hozirgi, joriy atrof – olamning irodaga oid proyeksiyasi haqidagi nuqtai nazarlar hisobga olinadi.

Siyosat o'zi nimaligiga oydinlik kiritish uchun ma'lum bir aniq tartibdagi mantiq asosida (oila, ish, dam olish) hayot kechiruvchi odamni tasavvur qilaylik, bunda ushbu odam kutilmaganda uning o'zi qayerdan kelib chiqqanligi, uning halqi, davlati, uni o'rab turgan olam qanday paydo bo'lganligi haqida fikrlay boshlasa nima bo'ladi? Bunda asta – sekin, bosqichma – bosqich tavsifda unda o'zining hodisalar, voqealar va holatlar oqimida tasodifiy tarzda ishtirok etmasligi haqida tushunchalar shakllanadi, uning kundalik turmushga oid hayoti keng ma'noda uning urug'i, halqi, madaniyati, tarixi, tili bilan belgilanishi, uning har bir harakati va o'y – fikrlari esa – qadimdan tarkib topgan mazmun – mohiyatdan kelib chiquvchi chuqur mazmundagi mohiyatni baholash va u haqdagi nuqtai nazarlardan tashkil topganligi kuzatiladi. Bu holatda u o'zining o'tmishiga tegishli holatlar bilan qiziqqa boshlaydi, undan oldin qanday holatlar mavjud bo'lganligi haqida diqqat – e'tibor va alohida darajada ruhiy va aqliy zo'riqish asosida tafakkur yurita boshlaydi.

O'tmish haqidagi afsona – asotirlar. Albatta, so'zsiz ravishda odam o'tmishning barcha alohida qismlari haqida batafsil ma'lumotlarni bila olishi mumkin emas, shu sababli o'tmish haqidagi tasavvurlar, o'tmish qiyofasi alohida kalit sifatidagi lahzalar qatoridan tashkil topadi, ularni to'qima tarzidagi shaklini «afsona – asotirlar» deb nomlash mumkin. O'tmish haqidagi «afsona – asotirlar» o'zaro mazmun – mohiyatiga ko'ra bir – biridan farqlanishi mumkin, bu

holatda mavjud arsenal tarkibidan odam aynan o'zi uchun nisbatan ko'proq darajada mos keluvchi variantlarni tanlashni amalga oshiradi. Mustasno tariqasidagi vaziyatlarda esa – odamning o'zi «tarixiy afsonalar» ijodkori va hammualif ijodkori sifatida o'rin tutishi mumkin. Biroq, har qanday holatda xam tarixiy afsona – asotirlarning nafaol tarzda o'zlashtirilishi amalga oshiriladi va uning faol tarzda yaratilishi teng qiymatda o'zining xususiy tarixiy ildizlariga nisbatan, kelib chiqish, jamoaviy ko'rinishda hayot kechirish sabablari va maqsadlari haqidagi fikrlarni shakllantirish (yoki taklif qilinuvchi javoblarga nisbatan ruhiy hamfikrlilik) bo'yicha katta qiymatdagi ichki ish bajarilishini talab qiladi.

Tanlangan «kelib chiqish haqidagi afsona»dan kelib chiqqan holatda, odam o'z ajdodlari turmush tarzining, an'anaviy qadriyatlar tizimlari saqlanishiga yo'naltiriluvchi yoki (ma'lum bir vaziyatlarda) o'zgartirishlar kiritish, takomillashtirish, ayrim holatlarda bu yo'nalishda qaror topgan qo'shilgan hissalarini qulatishga yo'naltirilgan iroda turtkisini shakllantiradi. Har qanday vaziyada tafakkurlashning ma'lum bir lahzasi harakatlarga aylantiriladi. O'tmish haqidagi fikrlarning umumlashtirilishi asosida harakat qilish davomida (odam ichki ruhiyatida eng asosiy holatlar haqida bildirilgan fikrlar, sifat jihatidan amalga oshirilgan o'lchovlar asosida) odam yakuniy tarzda Siyosiy sferada to'laonli tarzda o'zligini namoyish qiladi.

Ushbu o'rinda biz «Siyosiy» atamasini katta harflarda va uchinchi birlikda keltirmoqdamiz, ya'ni bunda uning ontologik va falsafiy mazmunda jaranglashiga e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu ko'rinishdagi yondoshuv gap mustaqil, bir butunlikdagi hodisa haqida masalani qarab chiqish haqida borishini eslatib qo'yishdan kelib chiqadi. O'xshash tarzda «inson» va «insoniylik» tushunchalarini qayd qilib o'tish mumkin.

Siyosiylik – bu keng ko'lamdagi o'tmishga oid tajribalarning umumlashtirilishi, bunda o'tmish haqidagi afsona – asotirlarning sifat jihatidan o'zlashtirilishi (yoki shakllantirilishi), odam tomonidan

tarixiy keng ko'lamdagi voqeilik tarkibida o'zining xususiy o'rini qidirishi va yakuniy holatda, odamning hayot tarkibida qamrab olishi belgilanuvchi ma'lum bir harakatlarni amalga oshirish rejalarini tuzib chiqish, atrof – olamdagi haqiqiy voqeilikka nisbatan maqsad va vazifalarni ishlab chiqishni o'zida ifodalaydi.

I.4. SIYOSAT FALSAFASIDA IJTIMOIIYLIK ASOSLARI

Shunday qilib, Gobbs tomonidan odamning maqsadlari haqida birorta fikr bildirilmaydi va asosiy urg'u odamning majburiyatlari, burchlariga emas (an'anaviy holatlarda kuzatilgani kabi), balki odamning huquqlariga qaratiladi. Bunda asosiy hisoblangan huquqlardan biri – yashash huquqi bo'lib, bu huquq boshqa ko'pgina huquqlar bilan birgalikda birlamchi o'ringa olib chiqiladi, majburiyat va burchlar esa – ikkinchi planda qolib ketadi. Odam va odamning huquqlari birlamchi, davlat esa – ikkilamchi ma'noga egaligi qayd qilib o'tiladi, davlat har bir jamiyat a'zosining hayot sharoitlari «qulayligi» uchun emas, balki jamiyatdagi umumiy farovonlik haqida qayg'urishi kerakligi ta'kidlanadi. Siyosiy masalalar oqilona tarzda hal qilinishi talab qilinadi, odam o'z tabiatiga xos bo'lgan johillik, tabiiylik holatidan tarbiyaviy tavsifda, o'z – o'zini takomillashtirish yoki axloqiy – ma'naviy darajasini oshirish asosida emas, balki to'g'ri tartibdagi institutlar va qonunlar yaratilishi yo'li bilan chiqib ketishi zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Gobbs tomonidan ilgari surilgan nazariyada «beadab» Makiavellizmga kuzatilgani kabi, meyoriy holatga nisbatan ayrim qarama – qarshi fikrlar xam mavjud hisoblanadi, biroq uning odamlar hayotini siyosiy institutlarni takomillashtirish yo'li bilan yaxshilash haqidagi fikrlari Lokk va Monteskye tomonidan rivojlantiriladi, ular tomonidan o'z tabiatiga ko'ra hudbinlikka moyil bo'lgan odamlar baribir jamiyat shaklida, birgalikda hayot kechirishlari mumkinligi

ta'kidlanadi va ushbu masalaning to'liq holatda liberal yechimlari tavsiya qilinadi.

Birinchidan, asosiy urg'u manfaatlarga (moddiy manfaatlar) qaratilishi, g'oyalardan farq qilib, ularni o'zaro ajratuvchi emas, balki birlashtiruvchi manfaatlar e'tiborga olinishi talab qilinadi. Aynan, bozor munosabatlari havfli hisoblangan his – tuyg'ularga qarshi ko'rinishda, nisbatan ayb hisoblanmaydigan, ijobiy his – tuyg'ularga ko'proq darajada erkinlik berilishi imkoniyatini yaratishi qayd qilib o'tiladi. Davlat emas (huddi Gobbs fikrlarida kuzatilgani kabi), balki bozor munosabatlari majburiyatlar bajarilishini nisbatan yumshoq tarzda ro'yobga oshirilishini ta'minlaydi, bozor sharoitida o'zaro bog'liqlikka ega bo'lgan manfaatlarining holati odamlarning fikr – g'oyalaridagi o'zaro turli xillikni neytrallaydi.

Ikkinchidan, o'z – o'zicha qo'yib berilganda nisbatan havfli tavsifga ega hisoblangan, shaxsning avtonomiyasi masalasining himoyalaniishi hokimiyat tomonidan muvofiqlashtirilish asosida amalga oshiriladi. Davlat hokimiyati shaxs avtonomiyasini ta'sir kuchini susaytirishi kerak va uni qismlarga ajratish va huquqiy holatlarga bo'ysindirishni amalga oshirishi talab qilinadi. Ma'naviy – axloqiy va diniy sohalarda yuzaga keluvchi ehtimolliklari ziddiyatlar Cherkovning siyosiy hokimiyatni amalga oshirishiga barham berish yo'li bilan neytrallanishi mumkin, shuningdek ziddiyatli vaziyatlarning mazmunini barchasi individning vijdon amri asosida hal qilinuvchi yo'nalishga burib yuborish talab etiladi. Murasozlik asosidagi (liberal) siyosat erkin holatga qo'yib qo'yilganda o'zining hudbinlik asosidagi, o'z – o'zini o'ylashga asoslaniluvchi manfaatlarini ro'yobga oshirish ehtimolligi darajasi ortuvchi, shaxsning hulq – atvori qoidalari va tartiblarini ishlab chiqishi talab qilinadi.

J.Lokk (1632 – 1704 – yillar) chegaraviy darajada ehtiyotkor bo'lgan siyosiy faylasuf hisoblanadi va u Gobbsning bildirgan fikrlarining ommaviy tarzda keskin baholanishlarini turli xilda yumshatishga harakat qilgan. Levafan davlati bilan birgalikda u

cheklangan boshqaruv g'oyasini ilgari surgan, ya'ni odamlarning hayotiy farovonlik va erkinlik haqida qayg'urishlari holati bilan birgalikda, ushbu tarkibni mulkchilikning saqlanishi tushunchasi bilan boyitgan. Konstitutsiya va unda boshqalar bilan diniy murosasozlik tamoyillarining mustahkamlanishi qonun olamini vujudga keltirishi, bu holat fuqorolik dunyosida har bir shaxsga erkinlik berish imkonini yuzaga keltirishi ta'kidlangan.

Tabiiy huquq odamlarning ishlab chiqarishga oid va o'z manfaatlarini o'ylash asosida amalga oshiriluvchi faoliyatiga turtki berishi talab qilinib, odamlarni nisbatan buzg'unchi tavsifga ega his – tuyg'ulardan yiroqlashtirishi, odamlarni tartiblarni bajarishga majburlash holatlarini yumshatish imkoni berishi keltirib o'tiladi. Bu ulkan konstruksiya natijasida, o'z navbatida ijtimoiy shartnoma tamoyili xam sezilarli darajada soddalashtiriladi. Lokk tomonidan agar, odamning o'z – o'ziningina manfaatlarini o'ylashi (hudbinlik) ishlab chiqarish va farovonlikka yo'naltirilsa, u holda hudbinlik – bu salbiy jihat hisoblanmaydi deb ko'rsatiladi.

An'anaviy tarzda keng muhokama qilinuvchi cheklanmagan darajadagi o'z moddiy manfaatlarini o'ylash faoliyati Lokk tomonidan bildirilgan fikrlar nuqtai nazaridan Lokk izdoshlari tomonidan ahmoqona va adolatsiz holat hisoblanmasligi tasdiqlanadi. Bu erda ma'naviy – axloqiylik tushunchasi e'tiborga olinmagan. J.Lokk tomonidan Makiavelli va Gobbs tomonidan boshlab berilgan, ma'naviy – axloqiy masalalarni istiqodiy manfaatlar asosida siyosiy masalalarning iqtisodiy jihatdan hal qilinishi yo'nalishida qarab chiqish g'oyasi ko'rinishida davom ettirilishi inqilobiy fikrlash sifatida baholanadi. Keyingi davrlarda J.Lokk tomonidan bildirilgan ilg'or fikrlar nazariy jihatdan mustahkamlangan. Lokkning g'oyalarning asosiy mazmun – mohiyati shundaki, ya'ni diniy nifoqlar asosida odamlarning bir – birini qurbon qilishlaridan ko'ra, yaxshisi savdo – tijorat bilan shug'ullanish asosida manfaatdorlik yaxshiroq hisoblanadi, bu g'oya vujudga kela

boshlagan iqtisodiy fanlar boshlang'ichlari vakillari tomonidan dasturil – amal sifatida qabul qilingan.

Adam Smit fikrlarida ko'zga tashlanuvchi umumiy farovonlik tushunchasi bilan muvofiq kelmaydigan shaxsiy moddiy manfaatlarining umumiy yig'indisi haqidagi mulohazalar uning «Millat boyligi» asarida (1776 – yil) asosiy g'oyalardan birini tashkil qiladi. Bu asarda muallif tomonidan bozor iqtisodiyoti nazariyasi rivojlantirilgan. Iqtisodiyotdan liberalizmga o'tish salmoqli dalil sifatida ko'rsatib o'tilib, bunda to'g'ri holatda yo'naltirilgan hudbinlik ijobiy holat hisoblanishi ta'kidlanadi. Aynan, hozirgi davrgacha bozorning «ko'zga ko'rinmas qo'llari» haqida fikrlar yuritilib, bu qo'llar ta'sirida ya'ni, davlatning boshqaruvchilik rolisiz xam yakka tartibdagi manfaatlar yakuniy holatda umumiy farovonlikka olib keluvchi samaradorlikka yo'naltirilishi qayd qilinadi. Hozirgi kunga qadar bu tushuncha va g'oyalar o'ziga xos siyosiy – iqtisodiy «al – kimyogarlik» singari holat (ya'ni, mantiqqa to'g'ri kelmaydigan holat) sifatida baholanmagan. O'z davrida liberalizm tarafdorlari tomonidan diniy asosdagi o'z – o'zining manfaatlarinigina o'ylash holatlari umumiy yig'indi ko'rinishda ravnaq topishi esa – siyosat falsafasida qoniqarli izohlashlarga ega bo'lmaganligi qayd qilinadi. Garchi, Nobel mukofoti sohibi F.A.Xayyek (1899 – 1992 – yillar) tomonidan o'z tadqiqot ishlarida, ayniqsa «Tanazzulga olib keluvchi o'z – o'ziga ishonish» asarida (1988 – yil) liberal kayfiyatdagi siyosat falsafasining «al – kimyogarlik» tavsiflarini izohlashga harakat qilingan bo'lsada, hozirgi kunda xam diniy asosdagi o'z – o'zining manfaatlarinigina o'ylash nuqtai nazaridagi mavjud bo'lgan g'oyalar o'zini oqlamasligi tasdiqlangan.

O'z davrida mavjud liberal siyosat falsafasiga oid g'oyalarni rivojlantirish asosida, Sh.Monteskye (1689 – 1755 – yillar) tomonidan Arastu tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'plab e'tirozlar bildiriladi. «Qonunlar ruhiyati haqida» (1748 – yil) asarida Monteskye tahlil qilish uchun boshqaruvning uchta shaklini tanlab oladi. Boshqaruvning respublika shakli namunasi sifatida Qadimgi davrga xos respublika,

jumlardan Rim respublikasi tanlab olinadi, monarxiya boshqaruvi namunasi sifatida esa – o'z davrida joriy hokimiyat boshqaruvchi hisoblangan Fransiya tanlab olinadi va despotizm (bosim o'tkazishga asoslangan boshqaruv tizimi) shaklidagi boshqaruv shakli sifatida Osiyo mintaqasiga xos (Eron, Xitoy, Xindiston va Yaponiya) boshqaruv usullari tanlab olinadi va tahlil qilinadi.

Dastlabki Yevrotsentrik siyosat falsafasi g'oyasi vakillaridan biri sifatida, u o'zining mashhur «qonunlari»ni (tamoyillarini) ishlab chiqqan:

1. Respublikaning to'g'ri tartibda funktsiya bajarishi yaxshi fazilatlar egalari bog'liq bo'lib, fuqorolarning ma'naviy – axloqiy sifatlariga emas, balki siyosiy (fuqorolikka oid masalalarda) jihatdan ezgu fazilatlarga ega bo'lishga bog'liq hisoblanadi, bu holatda qonunlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish va fuqorolarning jamiyat farovonligi uchun o'zini bag'ishlashi muhim ahamiyatga ega hisoblanishi qayd qilinadi.

2. Monarxiya – bu fuqorolarning, eng avvalo butun oqsuyak zadogonlar ommasining sharaflari burchi va faoliyatini ifodalaydi.

3. Qo'rqish – bu Sharq olamiga xos bo'lgan despotizm shaklidagi boshqaruvning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, bu tushuncha mutloq yakka hokimlik asosida, bitta hukmdor shaxs boshqaruvi sharoitida odamlarning qulga aylanishdan vahimaga tushish hissini ifodalab beradi.

Haqiqatdan xam, XVI – XVIII asrlarda Yevropada qaror topgan nuqtai nazarlarga ko'ra, Sharq olamida mavjud boshqaruvga nisbatan baho berishda boshqaruv hokimiyatining despotiya sifatida ta'riflanishi asosida munosabatda bo'lish yaqqol ifodalanadi va hatto ming yillik Konfutsiy ta'limoti an'analari asosida tarkib topgan boshqaruv qabul qilingan Xitoyda xam faylasuf – hukmdorlar tomonidan boshqaruv amalga oshiriluvchi sharoitda Aflotun tomonidan targ'ib qilingan idel davlat boshqaruvining ro'yobga oshirilishi shubha ostiga olinadi va despotiya ustuvorligiga urg'u beriladi (Volter).

Yakuniy hisobda, Monteske tomonidan «o'rtamiyonalikka asoslangan boshqaruv» afzal deb hisoblaniladi, bunda erkinlik hukmronlik qiladi – ya'ni, shaxsning avtonomiyasiga amal qilinadi, bu avtonomiya holati hukmdorlarning hoxish – irodasi bilan qonuniy himoya qilinadi. Uning fikrlari bo'yicha erkinlikning liberal talqini – bu hokimiyat boshqaruvida ishtirok etuvchi, qadimgi davrlarda ta'riflangan erkinlikni ifodalab bermaydi, balki bunda o'z – o'zini boshqaruvchi zamonaviy odamlarning erkinligi nazarda tutiladi. Asl erkinlik siyosiy hokimiyat ta'siridan mustaqil holatda qarab chiqiladi, bunda ushbu erkinlik holatining turli xildagi «tarmoqlari» bir – birini mutsahkamlovchi tavsifda birlashishi va qonuniy tartibda aks ettirilishi zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Muallif tomonidan yetarlicha darajada kutilmagan tarzda, monarxiya boshqaruvi tizimi bo'yicha o'rtamiyona va namuna sifatida Fransiya emas, balki Angliya boshqaruvi ko'rsatib o'tiladi, bu uning keltirgan sxemalarida o'z aksini topadi.

XVIII asrning oxirlariga kelib, liberal siyosat falsafasi tamoyillari to'liq shakllantirilgan holatga keltirilgan. Odamga xos bo'lgan turli xil tavsifdagi his – tuyg'ular va istak – hohishlarga nisbatan ishonchsizlik holati qonunlar orqali mustahkamlanadi, o'z navbatida bu qonunlar inson huquqlari kafoloti sifatida o'rin tutadi, shuningdek bozor munosabatlarini tartibga tushiruvchi qonunlar sifatida aks etadi, bu holat eng avvalo Amerika Mustaqilligi Deklaratsiyasi (1776 – yil) va Inson huquqlari Deklaratsiyasi (1789 – yil) akt – xujjatlarida o'z ifodasini topadi.

Zamonaviy siyosat falsafasining tarixiy yo'nalishlari liberal tavsifdagi yo'nalishdan farq qilib, qandaydir ko'proq narsani va'da qiluvchi tavsifga ega hisoblanadi, ya'ni bunda yakka tartibdagi hoxish – irodaning erkinligiga qaraganda yuksakroq holatlar nazarda tutiladi, aniqroq aytganda tarixiylik asosida va kishilik jamiyati, tarixi orqali insoniyat o'zining asl mohiyatini kashf qila olishi ta'kidlanadi, u nafaqat tabiat ustidan mutloq g'alabaga erishishi kuzatilishi, balki Yerda qandaydir Yaratganga xos Olamning ekvivalentini yarata olishi

va albatta bu holat Yaratganning hoxish – irodasidan mustaqil holatda amalga oshirilishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Ushbu yo'nalishning boshlang'ich vakillaridan biri – siyosiy falasafa yo'nalishida ilg'or fikrlari bilan ajralib turgan J.J.Russo (1712 – 1778 – yillar) hisoblanadi. J.J.Russo 1755 – yilda nashr qilingan o'zining «Tengsizlikning kelib chiqishi haqida mulohazalar» asarining ikkinchi nashrida (ushbu asarning birinchi nashri 1750 – yilda yozilgan) va shuningdek, «Ijtimoiy shartnoma» (1762 – yil) asarida Gobbs xatoga yo'l qo'yganligini ta'kidlaydi, ya'ni u tabiiy tabiatga ega bo'lgan odamning yovuzlik va baxtsizlikka moyilligini ko'rsatib beradi. Bu holat aynan, ijtimoiy jamiyat ta'sirida yuzaga kelishi ta'kidlanadi.

Madaniylashgan odamlar ijtimoiy jarayonlar amalga oshishi tarixi davomida o'zgarishga uchrashi qayd qilinadi. Tabiiylikka ega bo'lgan odam biologik mavjudotligicha qolib ketishi, biroq baxtli va ezgulikka yo'g'rilgan tarzda hayot kechiruvchi mavjudot sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi, bundan tashqari ushbu holatda insoniy boshlang'ich darajasidagi odam tabiatida ezgulik va yovuzlik tushunchalariga nisbatan befarq munosabatda bo'lish qayd qilinishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. Tarixiy jarayonlar ta'siridagina odam insoniy qiyofaga kirgan, biroq bir vaqtning o'zida ular johillikka moyil va o'z navbatida, baxtsizlikka muhtalo bo'lgan. Bularning barchasiga o'z – o'ziga muhabbat, o'z – o'zini yaxshi ko'rish hissi asosiy aybdor hisoblanishi ko'rsatib o'tiladi, shuningdek bu holatda qarama – qarshi ma'noga ega manfaatlarda chalkashliklar yuz berganligi ta'kidlanadi. Liberal nuqtai nazardan qarama – qarshilik tushunchasining ma'nosi so'zsiz ravida tushunarli hisoblanadi. Ushbu o'rinda odam erkin mavjudot sifatida ma'lum bir oldindan aniqlik kiritishdan mahrum hisoblanadi. Ushbu holatda uning aql – idroki boshlang'ich tavsifga ega bo'lib, umumiy holatda aql – idrok tabiiylik uchun begona va nisbatan ko'proq zamonaviy tavsifda rasmiy – amaliy jihatdan evolyutsiyanalishi qaror topib, sof hoxish – irodaga xizmat qiladi deb ko'rsatiladi. Tabiiylik holatiga qaytishning imkon mavjud emas. Aql –

idroki e'tibordan chetda qoldirilishi mumkin emas, ushbu o'rinda tabiiylik qouniyati yo'qolib boradi va uning o'rnini pozitiv tavsifdagi qonunlar egallab boradi, bu qonunlar bexato tavsifga ega bo'lgan «umumiy hoxish – iroda» asosida qaror toptiriladi, bu holatlar shu darajada qonuniyki, ya'ni u butun umumiylik darajasida, tabiiylik parchalarida o'z ta'siriga ega hisoblanadi.

Bunda odamni shakllantiruvchi sifatida o'rin tutuvchi tarixiy jarayon haqidagi g'oya mavjud hisoblanadi. Shuningdek, «erkin» erkinlikka xizmat qilishdan iborat siyosiy masalaning oqilona tarzda hal qilinishi g'oyasi ilgari suriladi. Biroq, bu ikkala g'oyani o'xshash tizim orqali birlashtirish Russo tomonidan amalga oshirilmagan. Bu holat faqat nemis tarix falsafasi doirasidagina qarama – qarshi tavsiflarga ega bo'lmagan tarzda amalga oshirilgan. Tarix nafaqat odamni va kishilik jamiyatini yaratishi, balki to'liq holatdagi erkinlikkacha qamrab oluvchi barcha holatlarga yo'naltirishni xam amalga oshirishi ko'rsatib o'tiladi.

Gegelning (1770 – 1831 – yillar) siyosat falsafasiga oid qarashlarida ushbu to'liq holatda erkinlik ko'rinishdagi yakuniy xulosa qandaydir Ruhning o'z – o'zini rivojlantirishi va o'zligini ro'yobga oshirishi hamda tarixning tugallanishi holatlari deyarli majoziy ma'noda aks ettirilishi kuzatiladi, bunda Ruh erkinlikning rivojlantirilishi timsolida aks ettiriladi. Haqiqiy mavjud odamlar – bu shunchaki bor – yo'g'i aytib o'tilgan Ruhning vakillari hisoblanadi, ularning aynan aql – idrokka ega emasligi ma'noga ega bo'lib, «Aql – idrokning ayyorligi» ongsizlikka asoslaniluvchi va qiyin anglab yetiluvchi ratsionallikni ifodalab beradi, bu holat Ruhning tasodifiylik va rivojlanishining ketma – ketlikda kelishini belgilab beradi, demak ushbu holat erkinlikni o'zida aks ettiradi.

Tarixiylikda axloqiy – ma'naviylik yo'qolib boradi. Tarixiy nuqtai nazardan, illatlar va ezgu fazilatlar, ayb va aybsizlik, odamlar tomonidan keltiriluvchi ziyon va zarar sezilarsiz ahamiyatga ega hisoblanadi. Ruh uchun barchasi (urushlar, qullik, ta'qib) Dunyoviy Ruh

tomonidan ratsional fahmlash jarayonida o'z aksini topadi, bunda mulohazalar harakatlar bilan uyg'unlashadi. Chegaraviy darajada soddalashtirilgan holatda aytish mumkinki, Tarix va uning Yaratuvchisi bo'lgan Dunyoviy Ruh Yaratganga xos barcha belgilarni o'zida aks ettiradi.

K.Marks (1818 – 1883 – yillar) o'zining murakkab tavsifdagi ijtimoiy – iqtisodiy – siyosiy ta'limotida butun tarixiy harakatlarning iqtisodiy asoslarning (bazis) bosqichli ko'rinishda rivojlanishi bo'yicha determinatsiyalanganligini ko'rsatib o'tadi, bunda davlat va siyosat din, huquq va ma'naviy – axloqiylik bilan birgalikda ushbu ko'rsatib o'tilgan asos (bazis) utiga qurilgan ustqurtma sifatida o'rin tutishi ta'kidlanadi. Hegel tomonidan keltirilgan sxemani qayta ishlash asosida, Marks kishilik jamiyati uchun erkinlik yo'lini ochganligiga ishonch bilan qaraydi, tarixiy boshlang'ichdan asl tarixiy davrgacha bo'lgan jamiyatning rivojlanishini harakatlantiruvchi haqiqiy kuchlarni ko'rsatib beradi. Tarixning har bir bosqichida (ya'ni, ijtimoiy – iqtisodiy formatsiyalar) siyosiy rivojlanish sinfiy kurashning amalga oshishi bilan rivojlanib borishi ko'rsatib o'tiladi, bunda siyosiy – sinfiy kuchlarning taqsimlanishi amalga oshadi, ikkita asosiy sinflarning o'zaro kurashi qayd qilinadi. Bitta formatsiyadan ikkinchisiga o'tish ijtimoiy inqilob asosida kechishi, bunda siyosiy jihatdan natijaviylik yangi iqtisodiy ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va eski ishlab chiqarishga oid tarmoqlar devorlarining ag'darilishi bilan oldindan belgilanishi ko'rsatib o'tiladi. Tarixning navbatdagi bosqichlarida jamiyatning taqdiri tashkillashgan ishchilar sinfining burjuaziyaga qarshi inqilobiy chiqish qilishi bilan hal qilinadi, bu jarayon davomida ijtimoiy – siyosiy yovuzlik – ya'ni, xususiy mulkchilik bartaraf qilinadi, unga asoslaniluvchi, burjuaziya mulkdorlari sinfi, burjuaziya davlat tuzimi tomonidan amalga oshiriluvchi ekspluatatsiya barham topadi, keyin esa (kommunizm tuzumida) izohlashga hojat bo'lmagan ideal davlat tuzilmasi shakllanadi. Shunday qilib, ishchilar sinfi (proletariat) nafaqat burjuaziya go'rkovi sifatida, balki butun zaminda

mujassamlashgan yovuzlikka barham beruvchi tarixiy missiyaning amalga oshiradi deb ta'kidlanadi.

Ushbu nazariyaga muvofiq, ishchilar sinfining g'alabani qo'lga kiritishidan keyin, ijtimoiy jihatdan erkinlikka erishish texnikasi sifatida eski davlat tuzilmalariga barham beriladi, biroq amaliyotda u hokimiyatni ushlash texnikasi va g'oliblarning hukmronligini qo'llab – quvvatlash texnikasiga aylantirilishi qayd qilinadi. Marksizm o'zining g'oyaviy – nazariy tuzilish tartibi, tarkibiy qismlarining (siyosiy – iqtisodiy, falsafiy masalalar va ilmiy kommunizm) o'zaro mantiqiy jihatdan bir – biriga bog'langanligini hisobga olgan holatda, uni zamonaviy siyosat falsafasi rivojlanish tarixining yuksalishi davrlariga oid yo'nalishlardan biri sifatida ko'rsatib o'tish mumkin, bu ta'limot o'zining asosiy mafkuraviy raqibini oshkora ayta olishi – ya'ni, din va uning barcha liberalizm tavsifidagi ko'rinishlari uning asosiy raqibi hisoblanishini yashirmasigi, shuningdek ushbu ta'limotning Angliya xos klassik siyosiy – iqtisodiy, Germaniya xos klassik falsafiy va Fransiya xos ijtimoiy tuzum (sotsializm) g'oyalariga asoslanilishini ro'y – rost ko'rsatib o'tilishi qayd qilinadi.

1.5. FUQOROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Siyosiy faoliyatning yangi shakllarining vujudga kelishi, haqiqiy mavjud voqeilikning struktura jihatdan qayta tashkillanishi, hokimiyatning vertikal va gorizontalar bo'ylab taqsimlanuvchi, ko'p sonli mikro va makro tarkibiy qismlarga parchalanishi o'z navbatida zamonaviy dunyoda fuqorolik jamiyatining o'rni va rolini qayta qarab chiqish masalasini ko'ndalang qo'yadi.

Fuqorolik jamiyati – bu odamning tabiiy va ijtimoiy haq – huquqlarining ro'yobga oshirilishini kafolatlovchi, jamiyatning nisbatan erkin hisoblangan a'zolarining turli xildagi manfaatlari, qiziqishlari,

ehtiyojlari va qadriyatlari o'z aksini topuvchi, davlat ichidagi munosabatlar va institutlar tizimi hisoblanadi.

Fuqorolik jamiyati g'oyasi ijtimoiy ong va fan tarkibida turli xil fikrlar orqali ta'riflangan bo'lib, ularda asosiy quyidagi ko'rinishdagi uchta yo'nalishni alohida darajada ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Ideal ijtimoiy tartiblarning meyoriy konsepsiya sifatida qarab chiqilishi;

2) Zamonaviy olamda haqiqiy mavjud voqeilik izohlanishining tahliliy sxemasi sifatida qarab chiqilishi;

3) G'oyaviy – mafkuraviy konstruksiya sifatida qarab chiqilishi.

Fuqorolik jamiyatining markaziy g'oyasi – ijtimoiy hayotning xususiy va ommaviy sferalarining o'zaro nisbatlari masalasi hisoblanadi. Shaxsiy manfaatlar nuqtai nazaridan, fuqorolik jamiyatining tizimni tashkillashtiruvchi tamoyillari sifatida – shaxsiy erkinlik, fuqorolarning dahlsizligi va havfsizligi, xususiy mulk huquqi, mustaqil tuzilmalar tarkibida erkin holatda mavjud bo'lish va funktsiya bajarish huquqi kabi tamoyillarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Fuqorolarning huquqlari va shaxs erkinligining ro'yobga oshirilishi nafaqat huquqiy tamoyillar yordamida kafolatlanishi amalga oshiriladi, balki bunda shaxs va jamiyat o'rtasida o'zaro barcha munosabatlarni regulatsiya qiluvchi huquqiy meyorlar xam hisobga olinishi qayd qilinadi. Shaxsiy avtonomiya sohasi yetarlicha darajada keng ma'noga ega bo'lib, davlat organlari tomonidan shaxsiy manfaatlar sohasiga tahdid solinishiga yo'l qo'yilmaydi. Aytish mumkinki, shaxsning o'zligi qadriyati tamoyili, uning davlatga nisbatan munosabatlarida avtonomiyasi masalasi aynan, fuqorolik jamiyati asosini tashkil qiladi.

Fuqorolik jamiyatining o'z – o'zidan tashkillanuvchi va o'z – o'zidan boshqariluvchi ijtimoiy aloqalar va munosabatlar umumiyliги sifatida qarab chiqilishi turli xildagi ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning turli xil manfaatlarini ifodalash imkonini beradi va ommaviy sferadagi faollik darajasini belgilab beradi. Fuqorolik jamiyati vositasida ko'pchilikni tashkil qiluvchi ommaning, eng avvalo saralanishdan

(elita) tashqari turli xildagi aholi qatlamlari va guruhlarining siyosiy jarayon tarkibida iqtisodiy va siyosiy manfaatlarining tashkiliy nuqtai nazardan, institutsional tavsifda amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Manfaatlarning institutsionlashtirilishi – turli xil darajalarda manfaatlar yoqlanishi tizimlarining namoyon bo'lishi sifatida «manfaatlar guruhları» deb nomlanuvchi, turli xildagi assotsiatsiyalar va birlashmalar tomonidan amalga oshiriladi. Shunday qilib, fuqorolikka oid va hududiy vakillik bilan bir qatorda, davlat strukturalari tarkibida ularning joylashish o'rnı va davlat strukturalariga nisbatan munosabatlaridan qat'iy nazar, turli xil manfaatlarining umumiylikda birlashtirilishi asosidagi har xil tashkilotlar va faoliyatlarning faollashishi kuzatiladi. Manfaatlarning yoqlanishida ko'p darajali tizim gorizontaı integratsion aloqalarning mavjudligini belgilab beradi, shuningdek shaxsning turli xildagi manfaatları qondirilishini ta'minlovchi, keng ko'lamdagi siyosiy va siyosiy holatlardan tashqari tavsifga ega bo'lgan aktorlarning mavjudlik imkoniyatlarini ta'minlab beradi.

Fuqorolik jamiyatining asosiy ijtimoiy asosi sifatida – yuqori darajada ishlab chiqarish unumdorligi va yuqori darajada kasbiy mahorat bilan tavsiflanuvchi, yetarlicha darajada yuqori daromadlarga ega bo'lgan, tashabbuskor va tezkor qarorlarga kela oluvchi ishchi – xodimlardan tashkil topgan o'rta sinfnı tan olinishi sharoitida, fuqorolik jamiyatining muvofiqlıkda funktsiya bajarishi uchun shaxslarning ma'lum bir tiplari talab qilinishi haqida fikrlarga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Jumladan, G'arb olamida fuqorolik jamiyati individualizm tamoyillariga asoslanadi, bu tamoyil vositasida individ o'z huquqlarini ifodalab beradi va o'zini ko'p sondagi partiyalar, assotsiatsiyalar, harakatlar va boshqa ijtimoiy harakatlar tarkibida shaxs sifatidagi faoliyatini namoyon qiladi.

Shuningdek, fuqorolik jamiyati va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasi tamoyil jihatidan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. G'arb olamiga xos bo'lgan, qaror topgan demokratik an'analar uchun asos sifatida davlat va fuqorolik jamiyati manfaatlarining teng huquqqa

egaligi tan olinadi va ularning o'zaro munosabatlarida manfaatdor guruhlar va hokimiyat – davlat tuzilmalarining o'zaro bir – biriga ta'sir ko'rsatishida yetarlicha darajada samarali hisoblangan vositalar va usullar amaliyotda yo'lga qo'yilganligi ko'rish mumkin.

Fuqorolik jamiyati ichida amalga oshiriluvchi munosabatlar hokimiyat vakolatiga asoslanilmaydi, bunda hokimiyat ma'lum ma'noda uning chegaralari doirasidan tashqarida joylashadi va faqatgina barcha umumiy «o'yin qoidalari»ga amal qilishni kafolatlovchisi sifatida ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning natijasida, shaxsiy va ommaviy huquqlarning o'zaro farqlanishi, shaxsiy, ommaviy va davlat manfaatlarining farqlanishlari yuzaga keladi. Davlat bu holatda fuqorolik jamiyatining barcha a'zolari tomonidan teng huquqiylik asosida umumiy qabul qilingan barcha qoida va meyorlarning bajari-lishiga amal qilinishini nazorat qiluvchi, kafolatlovchi sifatida o'ringa ega hisoblanadi.

Fuqorolik jamiyati va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ijobiy mazmunga ega bo'lishi uchun har ikkala institut tomonidan ma'lum ma'noda o'z – o'zini cheklash amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi, bunda davlat ma'lum darajada xizmat ko'rsatuvchi funksiyalarni ro'yobga oshirishi talab qilinadi.

Biroq, fuqorolik jamiyati va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar dialektikasi Sobiq Ittifoq parchalanishidan keyin vujudga kelgan mustaqil davlatlarda fuqorolik jamiyati institutlarining qaror topishi davrida, shuningdek boshqacha ijtimoiy – madaniy an'analar ta'siri kuchli ifodalanuvchi sotsiumlarda kuchli davlat nuqtai nazaridan siljishga urg'u berish ehtiyoji yuzaga kelishi qayd qilinadi.

Fuqorolik jamiyatining funksiya bajarishi bilan bog'liq bo'lgan, zamonaviy masalalar doirasida oldingi chegaraviy holatlarga «pozitiv fuqorolik huquqlari» masalasi – ya'ni, asosiy ko'rsatkich sifatida faollik, ijodiylik, maxsuldorlik, assotsiativlik va boshqalar talab qiluvchi ommaviy harakatlarda va jamoaviy amalga oshiriluvchi faoliyatlarda ishtirok etish kabi masalalar olib chiqiluvchi siyosiy

ishtirok masalasi bilan qochib bo'lmaydigan darajada to'qnash kelish qayd qilinadi. Bunda gap turli xil sohalarida siyosiy ishtirokning institutsion tavsifga ega bo'lmagan vositalari haqida boradi, ya'ni bunda salomatlik va farovonlik haqida qayg'urish, ta'lim sohasida huquq masalasi, axloqiy – ma'naviy masalalar, gender tavsifdagi masalalar va boshqalar qarab chiqilishi nazarda tutiladi. Bu siyosiy sfera tarkibini tashkil qilmaydigan, an'anaviy talablar qondirilishga yo'naltirilgan, G'arb olamida kuzatiluvchi siyosiy harakatlar fenomeni bilan bog'liq hisoblanadi.

Ushbu jarayonlar keng ko'lamdagi, demokratik jihatdan tashkil- lashtirilgan siyosiy hayot spektri jamiyatiga nisbatan barqarorlash- tiruvchi ta'sir ko'rsatishini, demokratik tavsifdagi kanallaridan biri – saylovlardan tashkil topgan, fuqorolarni siyosiy hayotda va boshqa- ruvda ishtirok etishga jalb qilishni belgilab beruvchi siyosiy plyuralizm masalasi bilan bog'liq hisoblanadi. Siyosiy sferada plyuralizm diffuzion va fragmentlardan tashkil topish tavsifini berish uchun hokimiyat resurlarining tarqoqlashtirilishidan tashkil topadi.

Hokimiyatning bu ko'rinishdagi tashkillanishi sharoitida har bir ijtimoiy guruhlarining asosiy pishanglar va kanallarning monopo- lizatsiyalanishisiz holatda siyosat maydoni shakllanishidagi ta'siri va o'z navbatida, buning natijasida guruhlarining bir – biri bilan o'zaro ta'sirlashishlari va raqobotalashishlari amalga oshishi belgilanadi.

Idel holatda davlatning bu ko'rinishdagi tizim tarkibida funksiya bajarishi «tungi soqchi» [J.Lokk] sifatida funksiyalarining chekla- nishiga olib keladi, bunda davlat turli xil darajalarda namoyon bo'lish davomida jamiyatdagi mavjud manfatlarning o'zaro murosasozlik asosida rivojlanishi va umumiy o'yin qoidalari va tartiblarining qaror toptirilishida neytral tavsifdagi atribut sifatida o'ringa ega hisoblanadi. Plyuralistik tavsifdagi siyosiy tizim turli xildagi ijtimoiy guruhlar uchun qulay yechimlarga erishish imkonini beradi yoki ular uchun noqulay hisoblangan yechimlarning qonuniy yo'l bilan bartaraf qilinishining ta'minlanishini belgilab beradi. Bu ko'rinishdagi

tizimlarda manfaatlarning ustuvorligini namoyish qiluvchi ikkita bosim guruhlarining namoyon bo'lishi qayd qilinadi, ya'ni siyosiy – partiyalar vositasida, qonunchilik, hokimiyatga oid, qog'ozbozlik va boshqa shu kabi kanallar orqali, shuningdek ommaning fikrini yo'naltirish va OAV orqali ustuvorlikka erishishga harakat qilish kuzatiladi.

Turli xil koordinatalar yo'nalishlarida siyosiy jarayonlarni o'zida aks ettiruvchi, siyosatning subyektiv komponenti siyosiy ongda o'z ifodasini topadi. Siyosiy ong – bu odamning siyosiy sohada funktsiya bajarishini belgilab beruvchi va uning siyosiy tuzilmalar bilan o'zaro munosabatlarida vositachi sifatida o'rin tutuvchi, ma'naviy tuzilmalar umumiy birligini ifodalovchi siyosiy fanlarning markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi.

Siyosiy ong odam uchun mo'ljal olish yo'nalishlariga oydinlik kiritishda tanlanuvchi meyorlar, qadriyatlar, ideallar, qaror topishlar, kutilgan maqsadga muvofiqliklar, aqliy yo'nalishlar holatlarining chalkash to'rlari va shuningdek, odamning hokimiyat organlari faoliyatiga nisbatan moslashishi usullarini o'z ichiga oladi. Siyosiy ong ichki jihatdan qarama – qarshiliklarga boy bo'lgan va bir jinsli tavsifga ega bo'lmagan holat bo'lib, odamning bilishga oid va moslashuvchanlik asosidagi faoliyati bo'yicha shakllanadi, odam faoliyatining turli xil yo'nalishdagi siyosiy jarayonlarga bog'liqligini belgilab beradi.

Siyosiy ongning tarkibini aynan, siyosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan, odamning o'ziga xos spetsifik ehtiyojlari tashkil qiladi va odamning ma'lum bir hayot sharoitlari va rivojlanishiga bo'lgan talab – ehtiyojlarini belgilab beradi. Siyosiy ehtiyojlarning qondirilishiga intilish ma'lum bir aniq tipdagi faollik va emotsional va mulohaza yuritishga oid tafakkurlash jarayonlari o'yg'onishiga turtki beradi. Bu ko'rinishdagi faollik natijasida ijimoiy – siyosiy tavsifdagi ma'lum bir qarashlar, g'oyalar mafkuralar, qaror topishlar, ishonch – e'tiqodlar, aqliy yo'nalishlar, mo'ljal olishlar shakllanadi.

Funksional nuqtai nazardan olib qaralganda, siyosiy ongning nazariy va hayotiy – kundalik turmushga oid darajalarga ajratilishi

muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Siyosiy ongning nazariy darajasi siyosiy tavsifdagi turli xil mafkuraviy ko'rsatma – tavsiyalar, g'oyalar, konsepsiyalar, nuqtai nazarlarning mavjudligini belgilab beradi. Ushbu ko'rinishdagi rukn asosida siyosiy ong qat'iy tartibga ega bo'lgan dunyoqarashlar tizimi sifatida mavjud siyosiy haqiqiy voqeilikning ratsional tavsifda anglanishi, ma'lum bir aniq nazariy – g'oyaviy koordinatalar bo'yicha siyosiy ongning muhokama qilinishidan tashkil topadi. Siyosiy ongning hayotiy – kundalik turmushga oid darajasi mazmun – mohiyatining yuvilish tavsifiga ega bo'lishi, tizimlilikka ega emasligi, qarama – qarshiliklarga egaligi, emotsional jihatdan ranginligi, g'ayri ixtiyoriy (impulsiv) tavsifga egaligi bilan ajralib turadi. Bir vaqtning o'zida, siyosiy ongning hayotiy – kundalik turmushga oid darajasi yuqori darajada barqarorligi, tarkibida sterotiplarning mavjudlik davri davomiyligi, ularning hatto g'oyaviy omillar va ma'lum bir aniq tipdagi siyosiy hulq – atvor ta'siri ostida o'zgarishga uchramasligi bilan tavsiflanadi.

Siyosiy ong bilishga oid, g'oyaviy – mafkuraviy, kommunikativ, oldindan bashorat qilishga oid, tarbiyaviy funktsiyalarni bajaradi. Ushbu ko'rsatib o'tilgan har bir funktsiyaning tarkibidagi solishtirma ulushi bir qator ko'rsatkichlarga bog'liq hisoblanadi, bunda eng avvalo mamlakatning siyosiy jihatdan rivojlanganligi darajasi va siyosiy jihatdan barqarorligi, shuningdek joriy va uzoq vaqt davomiyligidagi siyosiy va ijtimoiy ustuvorliklar bilan bog'liqligi qayd qilib o'tiladi.

Siyosiy fanlarda uning manbai nuqtai nazardan ommaviy, guruhlariga oid va yakka tartibdagi (individual) siyosiy ong ajratib ko'rsatiladi. Ommaviy tavsifdagi siyosiy ong nisbatan umumiy hisoblangan siyosiy hulq – atvor algoritmlarini belgilab beradi va o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- 1) Odamlarning istaklari va orzu – umidlari, shuningdek ushbu orzularning ro'yobga oshirilishiga nisbatan ta'sirlarning baholanishi;
- 2) Qadriyatlarga oid mo'ljal olish yo'nalishlari;

3) Joriy siyosiy jarayonga nisbatan bildiriluvchi nuqtai nazarlar va kayfiyatlar.

Guruhlarga oid siyosiy ong ma'lum bir ijtimoiy guruhlar uchun umumiy hisoblangan tasavvurlar, ularning siyosiy faoliyatining o'ziga xos jihatlarini belgilab beruvchi hulq – atvor meyorlari, qadriyatlar, qarashlar, g'oyalarni ifodalaydi.

Yakka tartibdagi (individual) siyosiy ong ijtimoiy voqeilikning siyosiy segmenti tarkibida holatlarni qabul qilish, baholash va ularga nisbatan ta'sir ko'rsatish ko'rinishidagi shaxsning sifat va xususiyatlarini belgilab beradi. Ushbu vaziyatda asosiy urg'u uning siyosiy ishtiroki shakli va darajasini belgilab beruvchi, shaxsning ruhiy (psixologik) tavsiflariga beriladi.

Siyosiy ongning turli xil darajalari tarkibini aniqlash va holatini baholashni amalga oshirish ommaviy fikrlar bo'yicha so'rovlar o'tkazish vositasida amalga oshiriladi, shuningdek bu maqsadlarda anketa savollarini tarqatish, ekspert baholash va dasturlar xujjatlarini o'rganish usullaridan foydalaniladi, bu ma'lumotlar uzoq vaqtga mo'ljallangan vaziyatlarga oid umumiy va shuningdek, guruhlarga oid va yakka tartibdagi shaxsiy nuqtai nazarlar va fikrlarni bilish imkonini beradi. Ushbu ko'rinishdagi kontekstda quyidagi ikki blokda elementlar ajratib ko'rsatiladi: ya'ni, motivatsion (siyosiy ehtiyojlar, qaror topishlar, qadriyatlar, sezgilar, emotsiyalar) va bilishga oid (axborotlarga ega bo'lish, siyosatga bo'lgan qiziqishlar, ishonch – e'tiqod) elementlar qayd qilinadi.

Bunda ommaning fikrini bilish nuqtai nazaridan va shuningdek, elektorat funksiyasiga oid jarayonlarda boshqarish – texnologik strategiyalarni tanlab olish maqsadlarida ommaviy ehtiyojlarni, qaror topishlarni, manfaatlar va qiziqishlarni, shuningdek qadriyatlarga oid mo'ljal olishlarni tadqiq qilish alohida darajada ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda tanlangan texnologiyalarning samaradorligi quyidagi holatlarga bog'liq hisoblanadi:

- Birinchidan, dolzarblashtiriluvchi ommaviy ehtiyojlarning to'g'ri holatda baholanishi va ularni qondirishning haqiqiy mavjud imkoniyatlariga bog'liq hisoblanadi;

- Ikkinchidan, barqaror holatda, ma'lum bir aniq faktlarga, hodisalarga va jarayonlarga nisbatan turli xildagi mulohaza yuritishlar, baholashlar va emotsiyalar orqali diqqat – e'tiborning emotsional bo'yoqlarga egaligida o'zligini namoyon qiluvchi ommaviy ko'rinishdagi siyosiy qiziqish va manfaatlarning mos ravishda tahlil qilinishiga bog'liq hisoblanadi;

- Uchinchidan, turli xil obyektlarni his qilishda va ularga nisbatan munosabtlarning ifodalanishida siyosiy ong subyektlarining joylashish o'rnini belgilab beruvchi, barqaror holatdagi siyosiy qaror topishlar va stereotiplarni hisobga olishga bog'liq hisoblanadi;

- To'rtinchidan, siyosiy mavjud haqiqiy voqeilikka nisbatan ratsional munosabatlarning simbioz ko'rinishda aks etishini belgilab beruvchi va siyosiy ong struktura tarkibida ma'lum bir aniqlikdagi avtonomiyani namoyon qiluvchi, ommaviy qadriyatlarga nisbatan mo'ljal olishlarni o'rganish ehtiyojiga bog'liq hisoblanadi.

Zamonaviy davrda siyosiy ongni uning o'ziga xos bo'lgan mazmun – mohiyatdan foydalangan holda boshqarish masalasi alohida darajada dolzarblashishi qayd qilinadi. Siyosiy olamning zamonaviy rivojlanish bosqichidagi tarkibiy tuzilishi «dasturlashtirilgan» [A.Турпен] tavsifga ega hisoblanadi, ya'ni bunda qandaydir siyosiy loyihalarning ongli ravishda qamrab olinishi bilan uyg'unlikda bog'liqliklar ko'zga tashlanadi.

Siyosat maxsuli sifatida hodisalarning amaliy tekislikda ong tarkibiga joylashishi jarayonida shakllanuvchi ijtimoiy fenomenni ko'rsatib o'tish mumkin. Simvolik kommunikatsiya – bu siyosatning asl mazmun – mohiyatini ochib beruvchi, hokimiyatga oid majburlashlarning alohida tipini o'zida aks ettiradi. «Resurslarning taqsimoti va ulardan foydalanish ko'proq darajada simvolik vositalar orqali amalga oshiriladi» va shu sababli, «siyosatda to'g'ridan – to'g'ri,

bevosita kuchning foydalanilishi unchalik katta qiymatga ega emas». Majburlashning simvolik tavsifi siyosiy makonning ijtimoiy chegaralarini belgilab beradi.

Zamonaviy sharoitlarda meyoriy – simvolik sferaning transformatsiyalanishi ijtimoiy – siyosiy matritsa tarkibida tizim xosil qiluvchi asosiy tuzilma sifatida – qiyofa uslubi (imidj) o‘rin tutishiga olib kelgan, uning tarqalishi va foydalanilishi fuqorolikka oid identifikatsiya sharti va harakatchan siyosiy jamoalarning shakllanishi manbai sifatida qaror topgan. Asl mohiyat odamlarni nimani sotib olishlarida (yoki sotib olishlari mumkinligi) aks etadi, shu sababli axborot texnologiyalarining cheksiz bepoyon olami ko‘pincha holatlarda davlat tuzilmalariga oid yoki oppozitsion g‘oyalar va mafkuralarga tegishli timsollar (simvollar) zanjirining xosil qilinishi maqsadlarida foydalaniladi. Boshqacha aytganda, odamlar fuqorolik statusiga ega bo‘lib boradi va siyosiy jihatdan identiklik imidjlar ko‘rinishida axborotlar iste‘molchisi sifatida (huddi boshqa reklama maxsulotlarida kuzatilgani kabi) namoyon bo‘lishda o‘z aksini topadi. Ushbu o‘rinda g‘oya yaratuvchilari texnologlardan uzib ketadi. Axborotlarga oid mulohaza yuritishlarning faqat ko‘ngilochar shakldagi qiyofada namoyon bo‘lishi natijasida hodisalar siyosiy fakt sifatida o‘rin tutishi qayd qilinadi.

Ushbu o‘rinda tamoyil jihatidan muhim lahzalardan biri – bu OAV va hokimiyat tuzilmalari o‘zlarining strategiyalari doirasida yangidan yaratilmagan, balki mavjud bo‘lgan tayyor yechimlarni bosib chiqirishga kirishadilar, ya‘ni faqat ilgari suriluvchi masalalarga nisbatan moslashishni targ‘ib qilish mazmuni shakllantiriladi.

Bu ko‘rinishdagi jarayonlarda sifat jihatidan transformatsiyalanish amalga oshadi, o‘zining mohiyatiga ko‘ra, bunda fuqorolarning vakillik mexanizmlari institutsionalizatsiyalanishi qayd qilinadi.

Yuzaga keluvchi siyosiy dizayn barqaror va yangilanib turish xususiyatiga ega hisoblanadi, ya‘ni oldingi birorta mavjud bo‘lgan siyosiy institutlar yuzaga keluvchi yangi siyosiy kommunikatsion

makon bo‘ylab o‘zgarishlarni amalga oshirishga qodir hisoblanmagan. Siyosat tadbirkorlik (biznes) faoliyatiga o‘xshash holatga kirib qolgan, tashviqotlar esa – reklama faoliyatiga o‘xshash tavsifda qabul qilinishi qayd qilinadi. Ommaviy reklama «integratsion marketing tavsifidagi kommunikatsiya» sifatida o‘ringa ega hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtda, siyosiy jihatdan «ijtimoiy jamiyat bilan o‘zaro aloqalar» sifatida marketingga aylanib borishi va haqiqiy siyosatning qaror topishi kuzatiladi.

Siyosatning bazis (asos) ustida qurilgan ustqurmasi paradigmasi mustaqil ahamiyatga ega emas. Ushbu ko‘rinishdagi iqtisodiy – sentristik tavsifdagi xato fikr nafaqat marksizm uchun, balki liberalizm uchun xos xususiyat hisoblanadi. Liberal klassika shundan kelib chiqqanki, ya‘ni salobatli hayot tarzi – bu siyosiy tavsifga ega bo‘lmagan hayot tarzi hisoblanadi, ya‘ni o‘zini hurmat qiluvchi fuqoro hokimiyatga alohida darajada umid qilmasdan, balki o‘z muammolarini o‘zi mustaqil tarzda hal qilishni amalga oshiradi.

Ratsionalizatsiya va modernizatsiya nazariyalari postulatlarini siyosatning toraytiruvchi, ekvivalent almashinuv qoidalarining buzilishiga olib keluvchi irratsional omil sifatida qarab chiqilishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Bunda siyosat alashinuv doirasida boshqalar uchun hech narsa taklif qila olmaydiganlar va tabiiy bozor sharoitida saralanish tanlovi talablariga dosh berish nuqtai nazaridan o‘z imkoniyatlariga ishonch bildirsa olmaydiganlar uchun hiyla va boshpana sifatida qabul qilinadi. Bu holat jumladan, siyosiy sahnada «kuchsiz» va «kuchli» sifatida an‘anaviy baholanishlarning Sharq va G‘arb olamida o‘zaro farqlanishlari bilan bog‘liq hisoblanadi.

Sharq olamida siyosat ijtimoiy amaliyot iyerarxiyasi tarkibida yetakchi o‘rinni band qiladi, himoya va hokimiyat tomonidan qo‘llab – quvvatlanishga muhtoj bo‘lgan «kuchsiz»lar esa – «past ruhiyat sharoitida huzur – halovat»ning ehtimollik asosida faraz qilinishi (prezumpsiya) ruhiyatida tan olinishiga ega hisoblanadi. «Kuchli»lar o‘z imkoniyatlariga bog‘liq sabab asosida oliy hokimiyatdan mustaqil

holatda mavjud bo'lishi va u tomonidan qo'llab – quvvatlanilishga shubhalanish bilan qarash holatini namoyon qiladi. Aksincha, G'arb olamida siyosatdan himoya va homiylik qiluvchi hayrihoxlik istab murojaat qiluvchilar tomonidan siyosatga nisbatan fuqorolik tartiblari va mustaqillik tamoyillariga nisbatan adovatli turtki beruvchi manba sifatida butunlay boshqacha baho berilishi kuzatiladi. Bu yerdan «minimum – davlat» liberal tamoyili va siyosatning meyoriy holatdagi fuqorolik munosabatlariga aralashmasligi tamoyili kelib chiqadi.

Sharq va G'arb olamida siyosatning tutgan o'rnidagi yana bir farqlanish – bu texnologik mezon asosida keltirilishi mumkin. G'arb olamida siyosat N.Makiavelli davrida olamga nisbatan texnologik tamoyilning tantana qilishi sifatida yuzaga chiqqan: ya'ni, olamga nisbatan munosabatlar siyosat yordamida o'zgartirilishi mumkinligi ta'kidlangan. Ushbu ma'noda siyosat havf kuzatilishi ehtimolligi mavjud bo'lgan (ya'ni, kafolatlanmagan) faoliyat bo'lishi mumkin, bunda uning vositasida odamlar jamiyatda o'zlarining tutgan o'rinlari va pozitsiyasini yaxshilashlari amalga oshirilishi mumkin. YA'ni, bunda siyosat mavjud qaror topgan va merosiylik asosidagi vaziyatlarga nisbatan qandaydir boshqacha muqobil (alternativ) imkoniyatlar belgisi ostida maydonga chiqadi. O'zini butun Koinotning yuksak mahsuli deb hisoblovchi G'arb olamida hayot kechiruvchi odam xususida fikr bildirganda, unga nisbatan tabiiy meyorlar va cheklashlar uning uchun majburiy holatlar sifatida qarab chiqilmaydi va siyosat ijtimoiy sentrik tavsifda izohlanish asosida muhokama qilinadi, ya'ni siyosat ushbu o'rinda inson erkinligi Hudolaridan o'g'irlangan sfera sifatida tushiniladi. Sharqda siyosiy qarashlar kosmotsentrik tavsifga ega hisoblanadi: bunda siyosat kosmik tartiblarni buzmaydi, balki unga tegishli bo'lgan alohida o'ziga xos shakllarni o'z ichiga qamrab oladi. Shu sababli, Sharqda siyosiy jihatdan qonunlarga itoat etish huquqiy ma'noda emas, balki kosmotsentrik jihatdan tushiniladi – ya'ni, ilohiy, muqaddas oliy tartib mahsuli sifatida qarab chiqiladi. G'arb olamida odamlarning siyosiy qarashlarida aksincha, olamni o'zgartirishga

da'vogarlik nuqtai nazaridan odamlarning texnologik qarashlarida o'zaro farqlanishlar mavjud hisoblanadi.

Siyosat falsafasining alohida darajada muhim hisoblangan masalalaridan biri – bu siyosiy nazariyalarning predmeti va obyekti tushinilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan, siyosiy va siyosiy tavsifga ega bo'lmagan munosabatlar hisoblanadi. Siyosat falsafasi bu yerda ikkita paradigma bilan to'qnash keladi, ya'ni ular ushbu paradigmalarning G'arb olamidagi zamonaviy vakillari hisoblangan shaxslar ismlaridan o'z nomlanishlarini olgan va M.Fuko paradigmasi va G.Bekker paradigmasi deb nomlanadi. Bunda ko'rsatib o'tilgan birinchi paradigma an'anaviy fransuz etatizmi an'alariga asoslanilgan bo'lib, hokimiyat xususiy siyosiy sfera tarkibida joylashmaganligi, balki o'zgarishga uchragan shakllarda bizning atrofimizda barcha joyda – har kunlik kundalik hayotda o'qitiluvchi va o'qituvchi iyerarxiyasi tarkibida, boshqaruvchi va boshqariluvchi, kattalar va kichiklar va hakozi iyerarxiyalar tarkibida namoyon bo'lishi qayd qilib o'tiladi. Shu sababli, agar u illyuziyalar qurboni bo'lishni hohlamasa, u holda hokimiyat haqidagi fan barcha joyda o'z – o'zidan (spontan) tarvsifda ifodalanuvchi hayotni buzuvchi ta'sirga ega bo'lgan, hokimiyatga oid zo'ravonlik manbaini ochib berishi talab qilinadi. Bu olamda siyosat falsafaning asosiy masalasi – hokimiyatning rasmiy va rasmiy bo'lmagan, qonuniy va soya tavsifidagi amaliyotlari nisbatlari haqidagi masala hisoblanadi. Siyosiy fanlar predmeti – ijtimoiy hayotning har qanday hokimiyatga oid o'lchovlarga ega bo'lgan sohalar bo'lib, uning o'zi esa fan sohalararo ierarxiya sifatida o'rin tutadi, o'z tarkibida siyosiy iqtisodiyot, siyosiy ruhiyatshunoslik, axloqshunoslik, demografiya, madaniyatshunoslik va hakozi fan sohalarini birlashtiradi. Butunlay boshqacha aytganda, siyosiy fanlar predmeti sifatida Bekker paradigmasi o'rin tutadi. Bekker Chikago maktabi vakili sifatida «minimum – davlat» liberal tamoyilini keng ma'noda izohlashga moyillikni namoyon qilgan, bunda meyoriy holatdagi fuqorolik jamiyatining rivojlanishi uzluksiz tarzda hokimiyat

huquqlarining bosqichma – bosqich cheklanishi bilan amalga oshishi ko'rsatib o'tiladi. Bu yerda ko'rishimiz mumkinki, liberal tavsifga ega bo'lgan an'analar marksizm ta'limoti qarashlari bilan uyg'unlashib ketadi, uning asl mohiyati davlat va siyosatning «o'limi» nazariyasida o'z aksini topadi.

G'arb olamida siyosiy hayotning sikllari uchun fazalarning o'zaro almashinuvi holati xos xususiyat hisoblanadi: ya'ni, ko'proq darajada Fuko paradigmasiga javob beruvchi, «katta» ijtimoiy davlat modeliga yo'naltirilgan ijtimoiy – demokratik (keynsian) faza bilan Bekker paradigmasiga javob beruvchi, «minimum – davlat» modeliga yo'naltirilgan liberal (monetaristik) fazalarning o'zaro o'rin almashinishi qayd qilinadi. Ehtimol, ko'rsatib o'tilgan paradigmalarning nisbatan aniq ko'rinishdagi nisbatlar bo'yicha to'qnashishi qo'shimchaviylik tamoyili asosida amalga oshadi. Agar, siyosat va iqtisodiyotning o'zaro nisbatlarini ma'lum bir aniq pozitsiya nuqtai nazaridan, su'niy (oldindan o'ylangan holatda) va spontan (o'z – o'zidan tashkillanuvchi) tartiblar nisbatlari tavsifida izohlashga harakat qilsak, u holda siyosat va axloqning o'zaro nisbatlari ratsionallikning maqsadlari bo'yicha va shuningdek, qimmatlari bo'yicha ikkita o'zaro bir – biriga mos kelmaydigan turlari sifatida to'qnash kelishi kuzatiladi (M.Veber). Birinchi holatda samaradorlik tamoyili ustuvorlik qilishi kuzatilsa (maqsadlar vositalarni oqlashi), ikkinchi holatda esa – asl holatga moslik, ya'ni «asllik» tamoyili ustuvorlik qiladi. Garchi, asl holatga moslikni amaliyotda verifikatsiyalash qiyin bo'lsada, samaradorlik tamoyiligi nisbatan olib qaralganda, uzoq muddatli planda axloqiy asl holatga moslik mezoni so'zsiz ravishda «ishlashi» kuzatiladi va nazariy jihatdan va shuningdek, amaliy jihatdan tasdiqlanadi. Siyosiy samaradorlik tamoyili nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, totalitar rejim istiqbollarini baholashni amalga oshiruvchi tahlilchilar uchun doimiy ravishda ushbu rejimning uzoq muddatli amal qilishi va «nozik demokratiya» oldida ustunlikka egaligini tasdiqlash xos xususiyat hisoblanadi. Aksincha, ushbu

rejimlarning istiqbollarini baholovchilar tomonidan axloqiy mulohazalar yuritishga qodirlikka asoslanilgan holat oldindan bashorat qilish nuqtai nazaridan yaxshiroq hisoblanishi qayd qilinadi. Funksional – texnologik yondoshuvga (Makiavelliga xos) nisbatan siyosatning tabiiy farovonlik va inson huquqlaridan begonalashtirilmagan atamalar asosidagi izohlanilishiga asoslaniluvchi axloqiy falsafaga tayanuvchi substansiyaga oid yondoshuv (Arastuga xos) yetarlicha darajada samaradorlikka ega hisoblanadi.

II BOB SIYOSATSHUNOSLIK VA SIYOSAT FALSAFASINING RIVOJLANISHI

II.1. SIYOSAT FALSAFASINING SIYOSATSHUNOSLIKDAN FARQI

Keng ma'noda yoki siyosatga nisbatan ijtimoiy yondoshuvda siyosat siyosatshunoslikdan nima bilan farq qiladi?

Siyosat falsafasi nafaqat shunchaki, ratsional faoliyatning mexanizmlari strukturasi o'rganishni amalga oshirishi (zamonaviy «falsafa»ning «sofiya» haqidagi boshlang'ich tasavvurlarning sezilarli darajada o'z qimmatini yo'qotishi sharoitida o'zining nominal qiziqarlari) yoki siyosiy funktsiya bajarish mexanizmlarini tavsiflashi va siyosiy g'oya – mafkuralar, rejimlar va tizimlarning tarixiy nuqtai nazardan qarab chiqilishini (siyosatshunoslik nima bilan mashg'ulligi) amalga oshirishi, balki siyosatning eng chuqur jihatlariga kirib borishni amalga oshirishi, ushbu hodisaning o'zining kundalik hayotga oid ildizlari yashirin holatda aks etgan, odamning tur sifatidagi tavsiflari bilan bog'liq bo'lgan ichki o'lovchilargacha yetib borishi qayd qilinadi. Mamlakatimiz hududida davlatchilik an'anasining qadimiyligi, qadimiy an'analarning hozirgi ko'rinishi ham siyosiy, Konstitutsiya — istiqbolning buyuk hujjati, qonunchiligimiz asosi, yangi davlat va fuqarolik jamiyatining huquqiy asosi sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishini ham siyosat falsafasi orqali tatbiq etib borish lozim.

Shunda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati ortadi. Misol uchun, demokratiya shartlari: barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, har bir kishi huquqining himoya qilinishi, milliy, diniy, jinsiy mansublikdan qat'i nazar, o'zaro tenglik va totuvlikning ta'minlanishi kabi. Sobiq yakkahokimlikka asoslangan mafkura va eskicha qarashlardan voz kechish lozim. Mustaqil davlatda fikrlar xilma-xilligini jamiyatning

odatiy taomiliga aylantirish va o'tish davrida davlatning barcha sohalardagi islohotchilik roliga qarash kerak.

Bunda, "O'zbek modeli" (Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish), "Harakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi" tushunchalari, mazmun-mohiyati, demokratik jamiyat qurishning tarixiy va zamonaviy modellari: «Turk modeli», «Shved modeli», «Yapon modeli», «Milliy model», «Sharqona model». O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "O'zbek modeli"ning asoschisi sifatida falsafiy qonuniyatlar asosida o'rganish lozim. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning amalga oshirilayotgan islohotlarini, xususan, "Harakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi" va "O'zbekiston – 30 strategiyasi"ning bugungi kundagi ahamiyatini tushunish va tadbir qilish muhim ahamiyatga ega. Bu esa demokratik jamiyat taraqqiyotiga asos bo'ladigishan omillarga xizmat qiladi.

Demokratiya modellarini «eksport» qilishning milliy davlatchilik taraqqiyoti uchun xavfli jihatlar va «O'zbek modeli»ning rivojlanish konsepsiyasi, hamda «O'zbek modeli»ning asosiy tamoyillari: iqtisodiyotning mafkuradan mutloq xoliligi, davlat bosh islohotchi ekanligi, qonunustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish pozitsiyasiga ahamiyat berish lozim.

Siyosiy va falsafiy jihatdan «O'zbek modeli»ni amaliyotga tatbiq etishning asosiy bosqichlarini ko'rish kerak. «O'zbek modeli»ning jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi. «O'zbek modeli»ning rivojlanish istiqbollari. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish lozim.

O'zbekistonda demokratik jamiyat rivojlanishi jarayonida saylov va referendum institutlarining o'rni, qonun chiqaruvchi hokimiyat «Saylov» va «referendum» tushunchalariga falsafiy sharh berish lozim. Saylov va referendum institutlarining huquqiy asoslari deb qaraladi. Dunyodagi saylov, referendum o'tkazish tartibi: muammo va yutuqlariga alohida qaraladi. Demokratik jamiyatda saylovlar ahamiyati ham

shu bilan belginadi. O'zbekistonda saylov tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari bor. Siyosiy partiyaning «vakolatli vakili» va kuzatuvchi maqomi bunga misol sanaladi.

Shuningdek, saylov tizimi subyektlari, referendum, davlat hokimiyati vakillik organlarini saylash tartibi va h.k.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi. Qonun ishlab chiqarish jarayoni. Qonun qabul qilish tartibi. Oliy Majlis vakolatlari. Qonunchilik palatasi, Senat qo'mitalarining huquqiy asoslari.

Sud hokimiyati tushunchasi. Sud hokimiyati tarkibi. Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish tartibi. Sud mustaqilligi g'oyasi. Sudlar ixtisoslashuvi. Konstitutsiyaviy sud. Oliy sud. Oliy xo'jalik sudi. Mahalliy sudlar va ularning huquqiy maqomi. Sud va prokuratura. Sud va Ichki ishlar idoralari. Prezident va sud hokimiyati. Adliya vazirligi vakolatlarining kengayishi. Apellyatsiya instansiyasi. Kassatsiya instansiyasi. Prokuror va advokatning tengligi. «Xabeas korpus» institutining joriy etilishi. Yarashuv institutini takomillashtirish.

Shuningdek, ijroiya hokimiyati tushunchasi. Ijro hokimiyati tarkibi. Vazirlar Mahkamasini tashkil etish tartibi va uning tarkibi. Bosh vazirning huquqiy maqomi. Mahalliy davlat ijroiya organlari va ularning vakolatlari. Hokimlarni tayinlash tartibi. Hokim – mahalliy ijroiya va vakillik organlari boshlig'i. Parlament va ijroiya hokimiyati. Prezident va ijroiya hokimiyati. Bosh vazir lavozimiga nomzod ko'rib chiqish va tayinlash tartibi. Vazirlar Mahkamasi vakolatlari. Bosh vazirga nisbatan Ishonchsizlik votumi va uning huquqiy oqibatlari. Bunday jarayonlarga falsafiy kategoriya va qonunlar yordamida qaralishi zarur.

Aflotun fikrlarida siyosiy ontologiya. Qadimgi Gretsiyaning yirik faylasuflaridan biri hisoblangan Aflotun o'zining asosiy asarini «Davlat» deb nomlagan. Ehtimol, bu kitob aynan siyosat falsafasiga bag'ishlangan dastlabki asarlardan biri hisoblanadi. Bu asarda Aflotun siyosiy jihatdan o'zining mavjudligida butun Koinotga tegishli

uyg'unlikning umumiy qonuniyatlariga asoslaniluvchi ideal jamiyatni tavsiflab beradi.

«Davlat» dialogi triptizxning birinchi qismi bo'lib, undan keyin «Timey» dialogi yaratilgan (bu asarda idel tarzda demiurg tomonidan Kosmosning yaratilishi haqida bayon qilinadi) va uchinchi dialog – «Kritiy» deb nomlanadi (bu asarda amaliy jihatdan ro'yobga oshirilish davomida ideal jamiyatning tamoyillari bayon qilinadi). Bu asarlarda to'la qimmatli ilohiy tavsifdagi olam tavsiflanadi, unda kundalik turmushga oid hayotning o'lchovi («g'oyalar», «olamga oid ruhiyat») tashqi his qilinuvchi haqiqiy voqeilik – tashkilovchi instansiya («demiurg») yordamida o'zini namoyon qiladi. Davlat va keng ma'noda siyosat ushbu ko'rinishdagi nuqtai nazarlarda o'z tarkibida olamning yaratilishining umumiy boshlang'ichlari sifatidagi ijtimoiy hayotni o'zida aks ettiruvchi, faylasufning teran aql – idroki va siyosatchi – hukmdorning aniq va mustahkam irodasining hayotga joriy qilinishi ko'rinishidagi olamning ruhiy qonuniyatlarining umumiy jihatlaridan biri sifatida qarab chiqiladi. Bunda ko'rsatib o'tilgan har ikkala figura – ya'ni, faylasuf va hukmdor Aflotun fikrlariga ko'ra, chegaraviy darajada o'zaro muvofiq keladi va umumiy uyg'unlikka asoslaniluvchi uning «ideal davlat»ida oliy hokimiyat sifatida aynan «donishmandlar»ga ishonch bildiriladi.

«Davlat» tarkibida boshqa tipdagi odamlar ularning ichki olami, ya'ni ruhiyatining sifat ko'rsatkichlariga bog'liq hoatda bo'ysinuvchi holatda aks etiriladi. «Yetakchilik ruhiyati» ustuvorlik qiluvchi fuqorolar, ya'ni o'rtamiyonalik darajasiga erishgan shaxslar hisoblanadi, biroq Aflotun tomonidan hisoblanilishicha, jasurlik, mardlik emas, balki ko'proq donishmandlik sifatleri dehqonlar, hunarmandlar, sotuvchilar (savdogarlar) toifalariga xos bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Iroda, jasurlik ruhiyati ustuvorlik qiluvchi kishilar qo'riqchilar sifatida vazifa bajarishlari haqida fikr yuritiladi. Va faqat o'zining ruhiy jihatdan rivojlanishida donishmandlikning yetuk pag'ona darajasiga

erishgan kishilargina siyosiy va davlat arboblari sifatida boshqaruv huquqiga loyiq ko'riladi.

Bunda takomillashgan davlatda barcha uchala toifalar o'rtasida o'zaro uyg'unlik o'rnatilishi talab qilinadi. Har bir kishi ruhiyatning holati bo'yicha talabgorlik qilish huquqini ro'yobga oshirishga intilishi zarur hisoblanadi.

Aynan, Aflotun o'zining «Davlat» asarida navbatdagi davrlarda falsafada o'q sifatida o'rin tutuvchi ayrim g'oyalar haqidagi ta'limotlarini ko'rsatib o'tgan.

Uning falsafiy fikrlarining eng markaziy cho'qqisi aynan, asarda «siyosat falsafasi»ga bag'ishlanganligi tasodifiy hol hisoblanmaydi. «Davlat» asarida va undan keyin yaratilgan ikkita dialog tavsifidagi asarlarida Aflotun donishmandlikning kundalik turmush hayoti bilan tegish sohalari chegaralarini ko'rsatib o'tadi, bu yerda Siyosiy (aniq tavsifda) sfera ruhiy va umumiy holatdagi sfera bilan tegish sohasiga ega bo'lib, bu yerda odamning o'zining kelib chiqishi sabablari va sirlarining asl teran mazmun – mohiyatini anglab yetishi amalga oshiriladi, ushbu anglash asosida uning kelgusida umumiy va shuningdek xususiy holatlarda mavjudligi loyihasi shakllantiriladi. Bu yerda biz tugallangan va birinchi marta yaqqol tarzda shakllantirilgan ko'rinishda ifodalangan «siyosat ontologiyasi» ustida ish olib boramiz, bu yerda shunday qilib siyosat uning kundalik turmush hayotiga nisbatan munosabatlar orqali qarab chiqiladi.

Jamiyatning siyosiy hayotiga ma'naviy qadriyatlar, g'oyalar, urf-odatlar, urf-odatlar va inson xulq-atvorining kombinatsiyasi sifatida tushuniladigan ma'naviy madaniyat ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'naviy madaniyat siyosiy institutlarning turli shakllarini, masalan, davlat boshqaruvini tanlashga sezilarli ta'sir qiladi, ularning ishlash xususiyatlarini belgilaydi. Ma'naviy madaniyatning siyosiy hayotga ta'sirining quyidagi yo'llari ajratib ko'rsatiladi:

- shaxslarni ijtimoiylashtirish va shakllantirish;
- Qiymat tizimlarini yaratish va amalga oshirish;

- Harakatlar, xatti-harakatlar va harakatlar standartlari;
- institutlar va ijtimoiy tizimlarning modellarini yaratish.

Boshqacha qilib aytganda, jamiyatning ma'naviy madaniyati siyosiy hayotning barcha tomonlarini, shu jumladan odamlarning siyosiy xatti-harakatlarini va oxir oqibat ommaning siyosiy madaniyatini belgilaydi.

Siyosat va axloqning o'zaro bog'liqligi juda dolzarbdir. Masalan, zo'ravonlikning tarixdagi roli va uning axloqiy jihatdan chegaralanganligi masalasi butun tarix davomida falsafaning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar E.Fromm va K.Lorenz odamlarni hayvonlardan ajratib turadigan o'ziga nisbatan tajovuzga moyillik biologik ildizga yega degan xulosaga kelishdi. Boshqa faylasuflar va sotsiologlar ushbu hodisaning ijtimoiy ildizlariga ishora qilmoqdalar. Bularga M.Veber o'zining "Siyosat" Vokusiya va kasb "deb nomlangan asarida ishonch ye'tiqodini javobgarlik yetikasi bilan ziddiyat qilgan. Ishontirish odobini ye'tirof yetgan siyosatchi, uning fikriga ko'ra, har qanday olijanob odamga sodiqdir va uni amalga oshirish usullari haqida doim ham o'ylayvermaydi.

Aksincha, javobgarlik etikasiga rioya qilgan siyosatchi, o'z g'oyalarini amalga oshirish uchun tanlangan siyosiy vositalarning yetarliligi haqida o'ylaydi, o'z harakatlarining bevosita va bilvosita oqibatlari uchun chuqur javobgarlikni his qiladi. Muammoning yakuniy yechimini talab qilmasdan, M.Veber: "u ye'tiqod yetikasi yoki javobgarlik yetikasi kabi harakat qilishi kerakmi, va qachon va qanday qilib boshqa yo'l bilan buni hech kimga berish mumkin yemas", degan xulosaga keladi, chunki nafaqat sabab, ammo hissiyotlar siyosiy faoliyatda ham muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, nemis mutafakkirining shaxsiy xayrixohligi javobgarlik yetikasi tarafida yekanligi seziladi. Uning fikricha, agar siyosatdagi zo'ravonlik muqarrar bo'lsa, biz uning qonuniyligini, ya'ni qonunga asoslanganligini ta'minlashga harakat qilishimiz kerak.

Siyosat falsafasi kursida jamiyat siyosiy hayotining muhim jihati bu uning siyosiy institutlarining faoliyati alohida o'rganiladi. Ularning umumiyligi jamiyatning siyosiy tizimini shakllantiradi. Faoliyati siyosiy xarakterga yega bo'lgan davlat siyosiy partiyalari va boshqa jamoat tashkilotlari uning yelementlari hisoblanadi.

II.2. SIYOSAT FALSAFASINING ASOSIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Siyosat falsafasiga kirish uning qisqacha tarixini bayon qilish bilan boshlanishi qabul qilingan g'arb olamida siyosat falsafasining asoschilari sifatida Suqrot va uning shogirdi Aflotun qayd qilinadi, o'z navbatida Aflotun Arastuning ustози hisoblanadi. An'analar asosida siyosat bu texnika emas, balki sa'nat hisoblanib, u inson tabiatining ro'yobga oshirilishiga yo'naltiriladi. Siyosat falsafasi siyosat sa'nati asosida o'sib chiqqan bo'lib, bajariluvchi ishlarni siyosiy va siyosiy bo'lmagan holatlarga ajratishni amalga oshiradi. Siyosiy aql-idrok sohasida hokimiyat tushunchasi muhim o'rin tutadi va bunda hokimiyat bitimlarda o'z ifodasini topadi va bitimlar o'z navbatida, shartnoma asosida ezgulik va tabiiy ezgulik shakllariga ajratiladi. Ushbu ko'rinishda, tabiiylik va shartnoma o'rtasidagi o'zaro boshlang'ich farqlanish jihatlari yakuniy holatda nima yomon va nima yaxshi ekanligini anglash imkonini beradi va ushbu holat Gretsiyada mumtoz siyosat falsafasida qabul qilingan asos sifatida ezgulikka tomon harakat sifatida maqsadning belgilanishini ifodalab beradi. Biroq, falsafa va siyosat o'rtasida dastlab ayrim kelishmovchilik holatlari yuzaga kelgan bo'lib, Suqrot hayotligida va uning olamdan o'tishidan keyin ushbu holat yaqqol namoyon bo'lgan. Suqrotning hayotiy tajribalari mohiyatini yaxshi o'zlashtirgan Aflotun siyosat falsafasi (siyosiy hodisalarning tabiati haqidagi masalalarga javob topish) va falsafiy siyosat (faylasufning siyosat haqidagi mulohazalarida tanlangan

pozitsiya masalasi) o'rtasidagi sezilari darajadagi mos kelmaslik holatlarini farqlay olmasligi mumkin emas edi. Shunday qilib, hozirgi vaqtgacha faylasuflar tomonidan o'z – o'ziga va butun dunyoga qaratilgan, Odam qanday turmush tarzi asosida hayot kechirsa to'g'ri (ezgulikka asoslanilgan) hisoblanadi? Davlat tuzilmalarining qanday bo'lishi to'g'ri va qanday bo'lishi ahmoqona hisoblanadi? Mavjud shakllardan qaysi biri to'g'ri hisoblanadi? va shuningdek Faylasuflar, siyosat tarafdorlari sifatida maydonga chiqishlari va o'z traktatlarida ushbu masalani chegaraviy darajada yoritib berishlari masalasiga qanday munosabat bildiriladi? kabi turli xil savollar ustida bosh qotirishadi.

Qadimgi Gretsiya fuqorolari hisoblangan faylasuflar bizning davrimizda siyosatshunoslik sohasida faoliyat olib borayotgan professorlardan farq qilib, tashqi kuzatuvchilardan erkin holatda, xolis tavsifda ilmiy pozitsiyani egallash nuqtai nazaridan ish olib borishmagan, bunda uslublar haqidagi boshlang'ich mulohazalar bevosita siyosiy hayotga jalb qilinishi zaruriyatiga ega hisoblangan. Yaxshi va yomon holatlardan mavhumlik shakllantirilishi g'oyasi be'manilik tavsifini yuzaga keltirgan. Siyosiy hayotning ziddiyatlarga boyligi qadimgi dunyo faylasuflarining hayot tarzida o'z ifodasini topgan. Qadimgi dunyo faylasuflarining hayot faoliyati tarkibini aytish mumkinki, katta harflar bilan ifodalanuvchi Qonunchilik, Davlat asosi kabi tushunchalar band qilgan va bu holatlar uning uchun kishilik jamiyatining oliy shakli sifatida qaror topgan. Qadimgi dunyo faylasuflari uchun davlat emas, balki odam axloqiy munosabatlarda hali takomillashmagan mavjudot (hayvon) yoki oliy sifatga ega (deyarli Yaratganga tenglashtiriluvchi) inson sifatida gavdalantirilgan. Davlat tarkibida odam qochib bo'lmaydigan tarzda o'zi egallagan o'rin va darajasi bo'yicha iyerarxik struktura tarkibiga kiritilgan. Demak, u bo'lajak «siyosiy tavsifdagi mavjudot» sifatida eng avvalo, «aql – idrokka ega mavjudot» hisoblanishi ta'kidlangan. Suqrot dan keyingi Qadimgi dunyo faylasuflarining siyosiy qarashlarida (siyosiy fikrlovchi

faylasuflar) oliy ezgulik sifatida bilimlar birinchi o'ringa olib chiqilgan. Ezgulik turli xilda namoyon bo'lib, faqat aql – idrok barcha mavjud xiraliklar va tushunmovchiliklarga barham berishi, ezgulikni tushinarli shaklga keltirishi qayd qilinadi. Yovuz kimsalar o'z istak va nafslariga bo'ysinishlari orqali o'zlarining ko'zlarini ko'r qilib qo'yishlari, o'z hatti – harakatlarini ayyorona mulohazalar asosida oqlashga harakat qilishlari ta'kidlanadi. O'z navbatida, to'g'ri hayot kechirish qiyin masala hisoblanib, ezgulikka tomon yo'l sermashaqqatli hisoblanishi, majburiyat va ma'suliyatsiz (burch) u ma'noga ega emasligi qayd qilib o'tiladi, ayniqsa bunda ushbu nuqtai nazardan odamlar tabiatiga xos bo'lgan axloqiy holatlar (iyerarxiya) va ularning odatdagi xatolarga yo'l qo'yishlari hisobga olinsa, u holda mavjud vaziyat anarxiya (hokimiyatsizlik) va o'z navbatida fuqorolik urushlariga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi. Fuqorolardan tashkil topgan olamga nisbatan yuzaga keluvchi havf tahdidini bartaraf qilish uchun olomonni boshqarish kerakligi, bunda siyosiy notenglik – bu tabiiy notenglik mahsuli sifatida o'rin tutishini anglash muhim o'rin tutishi keltiriladi. Siyosat farovonlik va ezgulikka yo'naltirilgan tartiblar va urf-odatlar nomidan tartib o'rnatish va siyosiy hokimiyatni tashkil qilish va uning funksiyasini ro'yobga oshirishni nazarda tutadi. YA'ni, bunda boshqarish shakli asosiy o'ringa olib chiqiladi.

Qadimgi davrda siyosat masalalari bilan shug'ulanishgan faylasuflar tomonidan boshqarish shakllarining tasniflanishi eng avvalo, «yaxshi» boshqaruv rejimini «ahmoqona» boshqaruv rejimidan farqlay olishga asoslanilgan. Mavjud jamiyatdagi holatlarni to'liq anglab yetish asosida, boshqaruvning oddiy halq ommasi manfaatlariga yo'naltirilishi (demokratiya) yoki boy amaldorlar manfaatlarini ko'zlashi (oligarxiya), yoki shunchaki kolondimog' amaldor – to'ralar manfaatlariga qaratilishi (aristokratiya) mumkinligi ko'rsatib o'tilgan, Qadimgi davrga oid boshqaruvning tugallangan ko'rinishda tasniflanishi shakli Arastu tomonidan bildirilgan fikrlarda yaqqol o'z ifodasini topadi, u boshqaruvning oltita to'g'ri va noto'g'ri shakllari

iyerarxiyasi mavjudligini ko'rsatib o'tadi. Bu yerda aniqlik kiritish mezonlari sifatida nafaqat hokimiyatni amalga oshiruvchilar son miqdori (bittadan ayrim holatlarda bir nechtagacha), balki siyosiy hokimiyatni tashkil qilishning usullari (strukturaga oid) va hokimiyatni amalga oshirish usullari (funksional – amaliy) xam hisobga olinadi.

Qadimgi davrda hokimiyat boshqaruvi eng yaxshi xislatlarga kishilarga topshirilishi zarur deb hisoblangan. Bu yerda boshqaruv shakli sifatida demokratiyaning (ayniqsa, Aflotun fikrlarida) qabul qilinmasligi holati kelib chiqadi. Ushbu siyosiy rejim tipi o'z struktura tuzilishiga ko'ra buzilgan hisoblanadi va bunda hokimiyat boshqaruvi ommaning manfaatlari ko'zlangan holatda, faqat saylangan shaxslarga tegishli hisoblanishi ta'kidlanadi. Navbatdagi davrlarda ushbu masalaning muhokama qilinishi birmuncha darajada soddalashishi qayd qilinadi, jumladan o'z injiqliklari va istak – hoxishlari bo'yicha chegara bilmas erkin halq ommasi (demos) su'niy shakldagi (tabiiy emas) tenglik g'oyasidan foydalanib, yangicha to'polonlarga asoslaniluvchi erkinlik asosida harakat qilishi bevosita qochib bo'lmadigan tarzda tartibsizliklarga (xaos) olib kelishi, o'z navbatida bu holat tiraniya tavsifidagi zulmga asoslangan boshqaruv hokimiyati hukronligiga sabab bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Ushbu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, hokimiyat boshqaruvi huquqi bevosita saylash asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi masalasi Qadimgi davrdayoq ustuvor masala sifatida o'rta tashlanganligiga qaramasdan, bu masala yechimlari hozirgi vaqtgacha butun kishilik jamiyatini tashvishlantiruvchi masalalardan biri hisoblanadi. Saylov asosidagi hokimiyat shakli bo'yicha yetarlicha darajada mashhur bo'lgan shakllarni qarab chiqamiz:

- Iudaizm ta'limotiga asosan, Yaratganning hoxish – irodasiga ko'ra, butun olamni boshqarish yahudiylarga xos xususiyat hisoblanishi keltiriladi;

- «Yangi pand – nasihatlar» (Noviy Zavet) ta'limoti pozitsiyasida esa – bu nuqtai nazardan hokimiyat butun xristian diniga mansub aholi orasidan saylanishi maqsadga muvofiq deb ko'rsatiladi;

- Xristian dinining protestant oqimi vakillari tomonidan xam hokimiyat boshqaruvi Yaratgan hoxish – irodasi asosida amalga oshirilganligi maqsadga muvofiqligi qo'llab – quvvatlanadi, biroq bunda oydinlik kiritish mezoni sifatida barcha Yaratganga hush keluvchi hayot faoliyati sohalari, jumladan sudho'rlik faoliyatida fidokorona mehnat qilish va ish faoliyati va hayotda shaxsiy muvafaqqiyatlarni qo'lga kiritish asosidagi, sof holatdagi zaminda hayot kechishish bilan bog'liq holatlar hisobga olinishi keltirib o'tiladi;

- Marksizm ta'limotida boshqaruv hokimiyati masalasi Tarixiy vaziyat nuqtai nazaridan hal qilinadi, ya'ni taraqqiyotning ma'lum bir bosqichlarida o'zlarining taraqqiyotga qaratilgan harakatlarini qurol sifatida ko'targan ishchilar sinfi boshqaruvga loyiqligi qayd qilinadi;

- Zamonaviy liberalizmida ikki xil mazmunga yo'l qo'ymaydian tarzda, olamni boshqarish huquqi bevosita «ilg'or» mamlakatlarda, eng avvalo kishilik jamiyatining «shimoliy – g'arbiy» sohasida faoliyat olib boruvchi kishilar ommasi orasidan saylanishi maqsadga muvofiqligi ko'rsatib o'tiladi.

Vaqt o'tishi bilan, Arastu uchun Qadimgi siyosiy fikrlar tarkibida kim boshqarish huquqiga ko'proq ega hisoblanadi? masalasi markaziy o'ringa olib chiqiladi. Agar, harbiy boshqaruvchining egallab turgan lavozimi uning jusur va mardligi asosida belgilansa, sudyaning (qozi) lavozimi – uning haqiqatgo'yiligiga asosan belgilanadi, bu holatda siyosat nuqtai nazaridan fikr bildirganda, boshqaruv huquqi eng donishmand va maqsadi yaxshilikni ko'zlovchi, ezgu xislatlarga ega shaxsga topshirilishi maqsadga muvofiq deb topiladi.

Qadimgi dunyo faylasuflari Aflotunning bu ko'rinishdagi fikrlarini qo'llab – quvvatlashgan va boshqaruv hokimiyati faylasuf – podshohlarga xos hisoblanishi fikriga qo'shilishgan, bunda albatta boshqaruvni

amalga oshiruvchi tomonidan xam faylasufona fikr yuritishning muhim ahamiyatga egaligiga o'zida ishonch xosil bo'lishi talab qilinadi.

Ushbu nuqtai nazardan, qayd qilib o'tish kerakki, faylasuflar o'z dunyoqarashlaridan kelib chiqib, donishmandlikning «Hushbaxt, saotdatlilar oroli»da hayot kechirishni afzal deb bilishadi va hokimiyat boshqaruvi uchun boshqalarga nisbatan kamroq darajada kurash olib borishadi. Ushbu o'rinda hokimiyatga boshqalarga nisbatan kamroq intiluvchi donishmand kishilarga aynan, hokimiyat boshqaruvidagilar ko'proq ishonch bildirishlari talab qilinadi. Bundan tashqari, hokimiyat tepasiga kelgan faylasuf – hukmdorlar taxtda ehiyotkorlik va mulohazakorlik bilan ish tutishlari, mu'tadillik va tarbiya ko'rganlilik asosida, boshqaruv uchun qulay shart – sharoitlarni yaratishlari zarur hisoblanadi. Boshqacha aytganda, haqiqiy mavjud siyosat qonun chiqaruvchi faoliyatining o'ziga xos sa'nati sifatida har doim donishmandlik va muvofiqlik, murosaga kelish, ezgulik va erkinlik, muvafaqqiyat va tahluka o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash yo'llarini qidirishni talab qiladi.

Yana qaytadan, siyosat falsafasi va falsafaga oid siyosat o'rtasidagi nisbatlar masalasiga qaytishga to'g'ri keladi, bunda Qadimgi Gretsiyada ushbu holatlar o'rtasida yuzaga keluvchi ziddiyatlarning hayot tarzining falsafiy mohiyati va falsafiy aql – idrok nuqtai nazardan ish olib borishning ayrim buzuvchi ta'sirining o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqishi qayd qilib o'tilgan. Faylasuf boylikka intilish, shon – shuhrat va hokimiyatga intilish kabi manfaatparastliklardan yiroq bo'lishi talab qilinadi, uning ma'naviy – ruhiy hayot yo'li albatta qiyinchilik va mashaqqatlarga to'la bo'lsada, mavjud qaror topgan shart – sharoitlar va nuqtai nazarlarga portlash tarzidagi yaqqol narozilik namoyishini ifodalab bermasligi kerak, biroq bunda ularning aql – idrok va mulohazakorlik asosida bildiruvchi fikrlari ushbu ko'rinishdagi harakatlardan xam kuchli ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli, odatda davlatda faylasuflarni har doim xam hush ko'raverishmaydi. Suqrotning taqdiri shundan dalolat beradiki, ayrim holatlarda

faylasuflarning nuqtai nazarlari davlat uchun havfli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin, biroq qayd qilib o'tish kerakki, ayrim vaziyatlarda aynan, davlat tomonidan faylasuflar faoliyatiga nisbatan qarshi ayblovlar qo'yilishi kuzatilishi xam mumkin. Bu ko'rinishdagi yuzaga keluvchi ziddiyatlar har doim yechimi yo'qdek bo'lib tuyuladi va har safar bunday holatlar yuzaga kelishi davomida aql – idrok sohiblari va davlat tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlarda zo'riqishli holatlar shakllanadi. Biroq, faylasuf ushbu ziddiyatli vaziyatni yumshata olishga qodir hisoblanadi, ya'ni bunday vaziyatlarda ular aql – idrok bilan mulohaza yuritishi asosida ish ko'rishi, boshqalar tomonidan bildirilayotgan ayrim salbiy fikrlarni yashirishi, ehtiyotkorlikka amal qilishi, davlat uchun o'z faoliyatining haqiqatdan xam zararli kuch sifatidagi agent emasligiga hokimiyatning ishonch xosil qilishiga qaratilgan tashabbuskorlikni o'z qo'liga olishi, davlat oldidagi javobgarlik va burchni his qila olishini isbotlashi, ayrim vaziyatlarda Yaratganga kuchli e'tiqod rivojlangan davlat tuzilmalari sharoitida o'zining fikrlari bilan qandaydir ma'noda ateist sifatida namoyon bo'lmasligi talab etiladi. Ushbu ma'noda falsafaga oid siyosat Suqrot davridan keyin vaqt o'tishi bilan ikki hil mazmun – mohiyatga ega bo'lib borganligi kuzatiladi. O'z davrida Suqrot joriy davlat tuzumi yuritayotgan siyosatga oddiy fuqoro sifatida munosabat bildiradi, o'z navbatida axloqning siyosatdan ustuvorligini namoyish qilish nuqtai nazaridan, u o'z naroziligini ko'rsatishda yagona yo'l – o'z joniga qasd qilish yo'lini tanlaydi. Albatta, tiriklik davrida Suqrot xam Aflotun xam hech qanday mukofotlarga sazovor topilmagan, biroq ulardan birinchisi tafakkurlash tarzining buyukligi va ikkinchisi esa – mulohaza yuritish nuqtai nazaridan takrorlanmasligi bilan ming yillar davomida barhayot hisoblanadi.

Faylasuf – podshohlar uchun hokimiyat tushunchasi – bu davlat faoliyatiga oid badiiy roman, eng ijobiy, maqsadga muvofiq tuzumga ega bo'lgan siyosiy hayolot dunyosi (utopiya) hisoblanadi, biroq bu boshqaruv shakliga holatga haqiqiy hayotda erishish mantiqqa to'g'ri

kelmaydi. Yakuniy holatda quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin, ya'ni hayoliy farovonlikka ega davlat (utopiya) boshqaruvini ro'yobga oshirishga qaratilgan siyosat o'z maqsadlariga hech qachon to'liq holatda erisha olmaydi, faylasuf uchun baxt – soadat tushunchasi esa – faqat falsafiy hayot tarzi asosida kun kechirish holatidagina erishiladi, biroq bunday baxtdan sarhushlik holatga kam sondagi faylasuflargina musharraf bo'lishgan. Xristian diniga oid tafakkurlash tarkibida ushbu ko'rinishdagi xulosalarga asoslaniluvchi fikrlar ustuvorlik qiladi, modern va posmodern davriga tegishli nuqtai nazarlarda ushbu xulosalar to'liq holatda qaytadan qarab chiqiladi.

XIII asrda o'rta asrlarga tegishli xristian dini ilohiyot ta'limotlari o'zining yuksak rivojlanish darajasiga erishgan va bu holat ushbu davrda Foma Akvinskiy ijodi va faoliyati bilan bog'liq hisoblanadi, u tomonidan aql – idrokning ishonch – e'tiqod uchun xizmat qilishi kerakligi fikri ilgari suriladi. Biroq, aslida bu fikrlar Arastu tafakkurlash tavsiflariga xos bo'lib, uning fikrlarida ushbu nuqtai nazar ko'rsatib o'tilgan va to'liq holatda aks ettirilganligi ko'rish mumkin. Avliyo Foma tomonidan yaratilgan tomizm ta'limoti ko'pchilik tomonidan katolik dinining yangilanishiga qaratilgan harakatlardan biri sifatida qayd qilib o'tishgan va bu diniy (xristian olamida) dunyoqarashlar o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Siyosat falsafasining rivojlanishi muhim bosqichlarini o'tkazib yubormaslik maqsadida XVI asrga qaytamiz. Zamonaviy qiyofa kasb etish uchun, siyosat falsafasi ma'naviy inqilob yo'lini bosib o'tishi talab qilinadi. N.Makiavelli (1469 – 1527 – yillar) tomonidan o'zining an'anaviy uslubda yozilgan «Hukmdor» deb nomlangan siyosiy traktatida (1513 – yil) tasdiqlashicha, fuqorolar ommasi siyosat qamchisi zahridan totishlari yoki ularga shirin teshikulcha tortiq qilinishi mumkin, bunda qattiqo'llik oqlanishi mumkin, ya'ni, qo'rqish hissi mehr – muhabbatdan kuchliroq ta'sirga ega bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Monarx hukronligida tiranizm tavsifidagi vositalardan foydalanishning muvofiqligi ko'rsatib o'tiladi, bunda ushbu tuzumda

alohida darajada o'ziga xos tavsifdagi ma'naviy – axloqiy holatlar (yoki aks ko'rinishdagi ma'naviy – axloqiylik tartiblari) Makiavelli tomonidan Aflotun va Arastu, shuningdek Avliyo Foma qarashlarida ifodalangan ma'naviy – axloqiy tartiblarga qarshi qo'yiladi, ya'ni u tomonidan siyosatda qattiqo'llik mavjudligi zaruriy holat deb baholanadi va bu holat oqlanadi. Albatta, ushbu holatda «Hukmdor» asarining muallifi hisoblangan Makiavelli o'zining «Tita Liviyaning birinchi o'n kunligini muhokama qilish» asarida (1519 – yil) tiranizmga asoslanilgan monarx hokimiyatni tavsiflash nuqtai nazaridan fikrlashni butunlay tark etadi, bunda u respublikachi sifatida o'z fikrlarini bayon qiladi.

Bunda shunday tasavvur o'yg'onadiki, ya'ni Makiavelli huddi to'g'ridan – to'g'ri mumtoz va xristian olamiga oid siyosat falsafasi chaqiriqlarini e'tibordan chetda qoldiradi, oddiy odamlar manfaatlari qimmatini pasaytiradi, bunda T.Mor tomonidan bayon qilingan «Utopiya» (1516 – yil) jamiyatida huddi hayot kechirgan kishi kabi, u turli xil yolg'on va aldovlar qurboniga aylanmaslik uchun siyosiy utopiya g'oyalarini qoralaydi, ongli ravishda siyosiy harakatlar vositalarida tushunib bo'lmaydigan holatlar uchun plankani past darajada belgilaydi va faqat, vositalarni tanlab olinishi samaradorlik mezonlari asosida amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlaydi. Makiavellining siyosiy qarashlari tabiiy huquq yoki xristian diniga oid ezgulik tushunchalariga bog'liq hisoblanmaydi. Uning dunyosida odatda an'anaviy tarzda mavjud adabiyotlarda bayon qilingan oliyhimmat hukmdorlarga o'rin topilmaydi.

U o'zining «Muhokamalari»da boshqa til bilan fikrlarni bayon qilishga harakat qiladi, boshqaruvning oltita shaklini ijobiy baholaydi, ijtimoiy farovonlikni tashqi bosim va hukmdorlarning majburiy farmoyishlari mavjud bo'lmagan holat sifatida muhokama qilishni amalga oshiradi.

Ehtimol agar, Gobbs (1588 – 1679 – yillar) fikrlarini o'qib chiqsak, biz Makiavelli tomonidan bildirilgan nuqtai nazarlar ma'nosini to'laroq

tushuna olishimiz mumkin. Gobbs asarlarida birorta joyda Makiavelli qarashlariga murojaat qilish amalga oshirilmaydi, shuningdek uning asarlarida xam hukmdor faoliyati haqida emas, balki ko'proq darajada halq huquqlari haqida fikrlar bildiriladi. Makiavelli bilan Gobbs fikrlari shu bilan bir – biriga o'xshash hisoblandiki, ya'ni Gobbs mumtoz (klassik) falsafani amaliy voqeilikka dahldor bo'lmagan (norealistik) falsafa sifatida e'tibordan chetda qoldiradi, uning fikrlariga ko'ra, diniy ta'limotlarga asoslaniluvchi siyosiy hokimiyat va hatto dinning siyosatga ta'siri xam inqirozga olib keluvchi holat sifatida baholanadi. Qadimgi dunyo faylasuflari va cherkov odamning qadr – qimmatini baholashda ortiqcha ehtirolarga berilganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, uning fikrlariga ko'ra, siyosatning mazmun – mohiyatini qaytadan qarab chiqish talab qilinadi, ushbu o'rinda siyosatning maqsadlarini qayta qarab chiqish zarurligi ta'kidlanadi (bu fikr Makiavellida xam kuzatiladi), bunda tabiiy va oliy darajadagi tabiiy maqsadlar – bu shunchaki o'ydirmalardan tashkil topganligi, odam hech qanday boshlang'ich gunohkorlik tamg'asi bilan tug'ilmasligi va qandaydir tug'ma majburiyat va burchlarga ega emasligini ko'rsatib o'tadi. Siyosat falsafasi odamlarning haqiqiy mavjud holatda bilimlari qanday bo'lsa (aslida esa – ular ma'lum ma'noda hudbin va johillik tabiatiga ega hisoblanadi), shundayligidan kelib chiqqan holatda ishlab chiqilishi talab qilinadi. Navbatdagi bildirilgan fikrlar bo'yicha Gobbs bizni uning Makiavelli bilan solishtirilishiga butunlay imkon bermaydi, ya'ni u zamonaviy siyosat falsafasining (ehtimol, siyosiy fanlar xam bo'lishi mumkin) liberal talqinda aks ettirilishini ko'rsatib beradi.

Gobbs – bu ommaviy (ijtimoiy) shartnoma nazariyasining asoschisi hisoblanadi. U tomonidan (Arastu tomonidan bildirilgan fikrlarga hilof ravishda), tabiiy holatda odamlar nochorlikda va doimiy havf tahdidi ehtimoligida hayot kechirishlari, har bir kishi boshqasidan qo'rqishi, hamma «odam odamga bo'ri» tamoyili asosida yashashi kuzatiladi deb hisoblaniladi. Ushbu ko'rinishda, tabiat odamlarni o'zaro ajratadi. O'z – o'zidan keltirilgan holatda ular baxtsiz hisoblanadi, ularni o'zlarining

shaxsiy his – tuyg'ulari (shuhratparatlik, manmanlik, o'ziga bino qo'yish) harakatlantiradi yoki diniy va siyosiy mazmundagi his – tuyg'ular boshqaradi, o'z navbatida bu holatlar ularni ziddiyatlar tomon yetaklaydi. Odamlar ushbu sharoitda havfsizlik, tartib va tinchlikning kafolatlanishiga almashish uchun davlat foydasiga o'zlarining erkinliklarini qurbon qilishlari maqsadida umumiy kelishuvga (shartnoma, bitim) kelishlari talab qilinadi. Shunday qilib, diniy yoki siyosiy shaklda ifodalanuvchi umumiy farovonlik g'oyasi odamlarni o'zaro ajratadi, ushbu o'rinda odamlar o'limdan qo'rqishlari va yoqimli hayot kechirishga intilishlari nuqtai nazaridan bir xillikka ega hisoblanadi. Havfsizlik va huzurlanishlarga intilish asosida odamlar ularni tanazzulga olib keluvchi his – tuyg'u va ehtirosalar, yovuzliklardan voz kechishlari talab qilinadi va ular buni amalga oshirishlari talab etiladi, ya'ni davlat yordamida odamlarni inqiroz holatiga olib keluvchi salbiy his – tuyg'ular va istaklarni neytrallash boshqa turdagi hohish – istaklarning (tinchlikka intilish, tartib va qulayliklarga intilish) qo'llab – quvvatlanishi uchun sharoit yaratadi.

II.3. SIYOSAT FALSAFASINING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLARI

Siyosat falsafasida inson manfaatlari sirkulyatsiyasi maydoni sifatida siyosatning ikkita o'zaro qarama – qarshi ko'rinishda ta'riflanishi mavjud hisoblanadi:

- Birinchisi, siyosatning turli xil subyektlarning konsensusi sifatida tushinilishidan kelib chiqadi;
- Ikkinchisi esa – siyosat tushunchasi orqali manfaatlarning permanent tavsifda o'zaro to'qnashishlarini o'zida ifodalab beradi.

Ushbu izohlashlarda o'zaro qarama – qarshilik holatlari mavjudligiga qaramasdan, ushbu ikkala paradigma markazida turli – tuman manfaatlarning siyosiylikning yuzaga kelishi va funktsiya bajarishi katalizatori sifatida o'rin tutuvchi tarzda mavjudligi qayd qilinadi.

Agar, siyosiy sferaning yuzaga kelib chiqishiga e'tibor qaratilsa, u holda qayd qilib o'tish kerakki, kishilik jamiyati mavjud bo'lishining dastlabki bosqichlarida turli xildagi manfaatlarning mavjudligi va ularning o'zaro raqobatlashishi urf – odatlar, an'analar va hakoza ko'rinishdagi ijtimoiy jihatdan o'z – o'zini tashkil qilish mexanizmlari orqali regulatsiya qilingan (boshqarilgan). Biroq, davrlar o'tishi davomida, borgan sari o'z maqsadlariga erishish yo'lida katta miqdordagi resurslarning yig'ilib borishi, shuningdek ijtimoiy tizimlarning murakkablashishi va differentsiatsiylanishi asosida ushbu ko'rsatib o'tilgan mexanizmlar ijtimoiy hayotni boshqarishga nisbatan joriy ta'sirga egaligi darajasini yo'qotib borgan. Bir vaqtning o'zida turli xildagi ijtimoiy guruhlarining vujudga kelishi qayd qilingan, ya'ni bu ijtimoiy guruhlar turli hil qutblarga ega bo'lgan manfaatlar manbai sifatida o'rin tutgan, o'z navbatida ular ijtimoiy organizmni qayta tashkillanishga olib kelishga qodir hisoblangan. Sinfy, tabaqalararo, toifalar va guruhlararo, shaxslararo ko'rinishdagi o'zaro munosabatlarni boshqarish ehtiyoji nafaqat yangi talqindagi boshqaruv pishanglari tavsifidagi kuchli ijtimoiy ehtiyojlarni yuzaga keltirgan, balki shu bilan birgalikda barcha ijtimoiy shakllardagi guruhlar o'rtachida umumiy bajarilishi majburiyat sifatida qabul qilinuvchi, zo'ravonlikka barham berishga qaratilgan, ijtimoiy maqsadga muvofiq hulq – atvor va birgalikda hayot kechirish zaruriyatini anglashga olib keluvchi vositachi sifatidagi, sifat jihatidan yangicha ijtimoiy institutlarning yaratilishi talabini yuzaga keltirgan.

Ijtimoiy munosabatlar boshqarilishining yangi, siyosiy shakllarining vujudga kelishi siyosiy tizimning ikkita asosiy funksiyalari bilan bog'liq hisoblanadi – ya'ni, yashovchanlikni ta'minlash va jamiyatning rivojlanishi.

Siyosiy boshqaruvning asosiy shakli – davlat sifatida ko'rsatib o'tilib, uning qaror topishi davomida ijtimoiy munosabatlarning yangi tipi shakllangan, bunda uning har bir ishtirokchisi davlatning majburlovchi va ustuvorlik sifatidagi rolini his qiladi. Aynan, davlat

nafaqat ijtimoiy jihatdan bir butunlik va barqarorlikni ta'minlovchi boshqaruvchi sifatida yuzaga chiqadi, balki bunda u turli xil ijtimoiy guruhlarining har xil manfaatlarining ro'yobga oshirilishi imkoniyatlarini ta'minlovchi sifatida xam ahamiyatga ega hisoblanadi. Qudratli siyosiy tuzilma sifatida davlat va davlat hokimiyati asosiy siyosiy institut va shuningdek, turli xil ijtimoiy guruhlarining faoliyati uchun asosiy maqsad sifatida namoyon bo'lishi qayd qilinadi.

Siyosat – odamlarning faoliyat sohasi sifatida bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar uning odam hayot tarzining boshqa sohalaridan farqlanishlarini belgilab beradi. Bunda eng avvalo, siyosat – bu turli xil ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ro'yobga oshirish maqsadlarida hokimiyatni qo'lga kiritish, ushlab turish va undan foydalanish bo'yicha munosabatlar umumiyligidan tashkil topadi. Ushbu ko'rsatib o'tilgan ta'rif siyosiy haqiqiy mavjudlikning ikkita kalit sifatidagi momentlarini ko'rsatib berishga aniqlik kiritadi:

- 1) Siyosiy hokimiyatning mazmun – mohiyati;
- 2) Siyosatning subyektlari.

1. Siyosiy munosabatlar va siyosiy faoliyat markazida har doim hokimiyat turadi. Hokimiyat – bu belgilangan maqsadlarga erishish uchun foydalaniluvchi o'ziga xos qurol hisoblanadi. Siyosiy hokimiyat o'zining kelib chiqishi va mazmun – mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy hodisadan tashkil topadi, uning yadrosini hukronlik va bo'ysinish tashkil qiladi. Hokimiyatning asosiy holatlari sifatida quyidagi belgilar ajratib ko'rsatiladi. Hokimiyat universallikka qodirlik xususiyatiga ega hisoblanadi, ya'ni ma'lum bir aniq subyektning harakatlarini o'z ichiga olmaydigan, umumiy ko'rinishdagi majburiyatlar ko'rinishida mavjud hisoblanadi. Hokimiyatning bu ko'rinishdagi majburiylikni belgilab beruvchi tarzda tavsiflanishi barcha joyda kuzatiladi va bunda qandaydir shaxsiy hukmronlikning amal qilishi tushunilmaydi. Bu shakldagi majburiylik eng avvalo ko'proq, mamlakatda amal qiluvchi joriy qonunlar, qoidalar va an'analarning ustuvorligi, hukmronligini o'zida ifodalaydi. Bu yerda simvol tavsifidagi majburiyatlar, an'analar,

stereotiplar, urf – odatlar va hakoazolardan tashkil topgan uslublar juda keng tarqalganligi kuzatiladi.

Bir vaqtning o'zida hokimiyat ustuvorlik subyektlari talab qilinuvchi, odamlar va ijtimoiy guruhlarini ma'lum bir aniq harakatlarni amalga oshirishga chorlashi, ularni o'yg'otishi mumkin. Bu holat hatto, agar ushbu harakatlar individlarning alohida olingan manfaatlarini qondirishga va maqsadlarini ro'yobga oshirishga qaratilmagan bo'lsada, ushbu holatda xam amalga oshirishga majbur qilinishi mumkin va hukmronlik qiluvchi subyektlarning qo'lida siyosiy hokimiyat mavjud bo'lmagan holatda esa ular buni amalga oshira olmasliklari mumkin.

Shuningdek, hokimiyat odamlar va ijtimoiy guruhlarining maqsadga muvofiq bo'lmagan hatti – harakatlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilishga qodir hisoblanadi. Bu holat bevosita kuch ishlatishga oid usullarda va shuningdek, bilvosita usullar yordamida ro'yobga oshiriladi. Masalan, simvolli tavsifdagi majburiyatlar, senzura, OAVdan (ommaviy axborot vositalari) foydalanish asosida nazorat qilish va hakoza shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

2. Hokimiyat subyektlari sifatida bevosita va shuningdek, ma'lum bir vakillik shakllari ko'rinishlarida individlar va turli xil ijtimoiy guruhlar maydonga chiqishlari mumkin. Hokimiyat subyektlariga bo'ysinish uning qabul qilgan qarorlarini bajarish zaruriyati bilan belgilanadi, bu holat ma'lum bir aniq munosabatlar shaklini yuzaga keltiradi. Bunda hokimiyat obyektlari farmoyishlar berish va ularning shubhasiz tarzda bajarilishini talab qilishlari huquqiga egaligi tegishli vakolatlar asosida mustahkamlab qo'yilishi zarur. Bu vakolat qonuniy tavsifdagi huquqlar (legitimatziya yoki vakolatlarining qonuniy asosda tasdiqlanishi) deb nomlanadi.

Har qanday hokimiyat o'zi amal qiluvchi rejimini qonuniylashtirishga intiladi. Bu holat turli xil usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin, biroq qonuniy tavsifdagi huquqlar uning funkziya bajarishida zaruriy holat sifatida qabul qilinadi. Mashhur zamonaviy faylasuflardan biri hisoblangan – S.Lipset tomonidan bildirilgan fikrlarga muvofiq,

qonuniy tavsifdagi huquqlar – bu tizimni tashkil qilishga qodirlik va uni mavjud siyosiy institutlarning tegishli joriy jamiyat uchun nisbatan ko‘proq darajada mosligiga ishonch bildirish va uni ushlab turishni anglatadi. Shuningdek, M.Veber tomonidan tavsiflab berilgan qonuniy tavsifdagi huquqning asosiy uchta varianti nisbatun umumiy hisoblanadi: ya’ni, an’anaviy (an’analar ustuvorligiga asoslaniluvchi), xarizmatik (kuchli shaxs ustuvorligiga asoslaniluvchi) va ratsional – qonuniy tavsifdagi huquqlar (ko‘pchilik aholi tomonidan ishonch bildirilishi va qo‘llab – quvvatlanish asosidagi). Bunda odatda, xarizmatik ustuvorlikning an’anaviy tavsifdagi qonuniy tavsifdagi huquqlarga asta – sekin aylantirilishi, keyin esa – ratsional – qonuniy tavsifdagi huquqlarga aylantirilishi amalga oshiriladi. Biroq, hozirgi kunda qonuniy tavsifdagi huquqning amalga oshirilish usullariga aniqlik kiritish murakkab masala hisoblanib, ko‘pincha holatlarda u bitta tipdagi ustuvorlikka nisbatan ko‘p tipdagi ustuvorliklarga asoslanilishi qayd qilinadi. Buning natijasida jamiyatlarda demokratik tavsifdagi mo‘ljallashlarda gap ko‘proq darajada qonuniy va qonuniy bo‘lmagan tavsifdagi huquqlarning o‘zaro qarama – qarshi qo‘yilishi, eng avvalo u yoki bu institutlarning qonuniy tavsifdagi huquqlari haqida borishi kuzatiladi.

Siyosat – bu subyektivlikning xususiyati hisoblanadi, u turli xil guruhlar va individlar o‘rtasidagi doimiy amalga oshiriluvchi munosabatlar va bog‘liqlikdagi aloqadorlik maydoni sifatida namoyon bo‘ladi, ushbu maydon markazidan siyosiy hokimiyatga erishish yoki unga ta’sir ko‘rsatish o‘rin egallaydi. Uzoq vaqt davomida siyosatning yagona subyekt sifatida davlat o‘rin egallagan, bunda siyosiy faoliyat davlatning o‘z funktsiyalarini qanday amalga oshirishi bilan belgilanishi sifatida qarab chiqilgan. Biroq, ijtimoiy o‘zgarishlar boshqacha tipdagi, davlatga oid bo‘lmagan subyektlarning shakllanishiga olib kelgan: jumladan, siyosiy tashkilotlar, eng avvalo siyosiy partiyalar, davlatlararo va davlatlararo tavsifga ega bo‘lmagan tashkilotlar, davlatdan mustaqil holatda ish olib boruvchi, turli xil fuqorolar

faoliyatiga oid tashkilotlar, va nihoyat bevosita individlar faoliyatlari maydonga kelishi kuzatiladi. Zamonaviy siyosat – bu o‘z manfaatlarining ro‘yobga oshirilishiga qaratilgan, eng avvalo hokimiyat resurslarini egallash va ularni idora etishga yo‘naltiriluvchi, turli xil guruhlarning turli – taman shaklda namoyon bo‘luvchi faoliyatlarini o‘zida ifodalaydi.

Davlat – bu siyosatning asosiy subyekt sifatida o‘rin tutadi va shuningdek, siyosiy institutlar vositasida jamiyatni tashkil qiluvchi, uning integratsiyasini shakllantiruvchi asos sifatida ahamiyatga ega hisoblanadi. Davlat siyosiy olamni tashkillashtiradi va shakllantiradi, siyosiy hokimiyatning institutsional shaklining manbai hisoblanadi va aynan, ushbu sifat asosida hokimiyatga oid munosabatlar yuzaga keladi. Jamiyatni boshqarish va nazorat qilish uchun davlat siyosiy hokimiyatga o‘z diqqat – e’tiborini jamlaydi, turli xildagi individual va guruhlarga oid faoliyatlarni cheklashni amalga oshiradi, o‘z navbatida shaxslar tomonidan amalga oshirilishi ehtimolligi mavjud bo‘lgan, kuchning su’istemol qilinishi asosida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan tartibsizliklar ya’ni, xaosga olib kelishi ehtimolligi mavjud bo‘lgan erkinlikni tartibga solish va nazorat qilishning amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Davlat – bu ma’lum bir aniq hudud doirasida individlarning birgalikda hayot kechirishini tashkil qiluvchi va bu joyda ijtimoiy tartiblar qaror topishini ta’minlovchi siyosiy institut hisoblanadi [K.S.Gadjiyev. Siyosat falsafasi (Политическая философия). – M.: «Iqtisodiyot» («Экономика») nashriyoti, 1999 – yil].

Jamiyatshunoslikda davlatning kelib chiqishi haqida turli hildagi fikrlar va qarashlar mavjud hisoblanadi. Ulardan asosiylari – davlatning tabiiy kelib chiqishi nazariyasi, ilohiy asosda kelib chiqishi nazariyasi, shartnoma – bitim asosida kelib chiqishi, zo‘ravonlik asosida kelib chiqishi nazariyasi va shuningdek marksistik ta’limot asosida kelib chiqishining tavsiflanishi kabi nazariyalar hisoblanadi.

Davlatning tabiiy asosda kelib chiqishi nazariyasiga muvofiq, davlat o'zaro aloqalar va munosabatlarga intilish, umumiy farovonlikka erishishga yo'naltirilgan maqsadlarga tabiiy tarzda intilish asosida vujudga keladi. Davlat – bu «...mavjud hayot – turmush tarzining farovonligiga erishish maqsadlariga qaratilgan tarzda, hayot ehtiyojlarini to'laroq qondirishga intilish asosida vujudga kelgan va to'liq holatda mustaqil qaror topishga erishgan bir nechta aholi istiqomat qilish hududlarining birlashishidan tashkil topgan jamiyat hisoblanadi».

Davlatning ilohiy asosda kelib chiqishi nazariyasi Yangi Davrgacha keng miqyosda tarqalgan nazariyalardan biri hisoblanadi. Bu ko'rinishda bildirilgan nuqtai nazarlarga ko'ra, davlat Yaratgan tomonidan Zaminning yaratilishi jarayoni natijasida oldindan rejalashtirilgan tarkibiy qismlarning biri sifatida vujudga kelgan. Davlatning ushbu ko'rinishda tushinilishi mutloq hokmiyat va har qanday hukmdorning o'z vakolatlarini ilohiy darajada amalga oshirishi (ya'ni, uning shaxsiy sifatleri yoki olib boruvchi siyosatidan qat'iy nazar) holatlarni belgilab bergan, ya'ni hukmdor va qirollar faqat Yaratganning hoxish – irodasi asosidagina tanlanishi tasdiqlangan.

Ijtimoiy shartnoma nazariyasida odamlarning tabiiy holatda huquqlarining tengligi, har bir individning ijtimoiy farovonlik nuqtai nazaridan huquq va imkoniyatlari tengligi masalasi ilgari suriladi va bu holat permanent tavsifdagi ziddiyatlarning vujudga kelishini belgilab beradi. Ushbu holatlarga barham berish uchun va ijtimoiy hayot tartiblarini joriy qilish uchun, asosiy manbai halqdan tashkil topgan davlat mustaqilligi yuzaga kelishi ehtiyoji vujudga keladi, bunda bir – biri bilan va boshqalar oldida bajarilishi shart bo'lgan majburiyatlar haqida hokimiyat bilan shartnoma tuziladi.

Davlatning kelib chiqishi bo'yicha zo'ravonlik asosidagi nazariyada davlat ijtimoiy zulm o'tkazish mazmunida qarab chiqiladi va bunda davlat kuchsizlar ustidan kuchlilarning zo'ravonlik o'tkazishi va ularning ihtiyorini tutib turish maqsadida vujudga kelganligi ta'kidlanadi. «Davlat... aynan va demak zo'ravonlikni ifodalab beradi,

bunda u o'z hukmronligi zo'ravonligini qandaydir niqoblangan tarzda, va chegarviy vaziyatlarda esa – hatto, oshkora, ochiqdan – ochiq ko'rinishlarda namoyish qiladi».

Marksizm ta'limoti qarashlariga muvofiq, davlat yangi ijtimoiy institut sifatida jamiyatning ichki rivojlanishi asosida kelib chiqqan. Jamiyatning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi va turli xil sinflarning vujudga kelishiga olib kelgan. Sinfiy kurashlar ekspluatatsiya avj olishiga olib kelgan va o'z navbatida, ularning o'zaro kurashi mavjud tartiblarning barbod bo'lishi va umumiy holatda jamiyatning barham topishiga, yakuniy tarzda davlatning vujudga kelishiga olib kelgan. «Davlat – bu sinfiy o'zaro ziddiyatlarning mahsuli sifatida namoyon bo'luvchi holat hisoblanadi. Sinfiy o'zaro kurashlarda murosasozlikka erishish mumkin bo'lmagan joyda obyektiv tavsifda davlat vujudga keladi. Va aksincha, davlatning mavjudligi tarixi shundan dalolat beradiki, sinfiy kurashlar hech qachon barham topmaydi».

Davlatning kelib chiqishi bo'yicha turli xildagi qarashlar va fikrlar mavjudligiga qaramasdan, umumiy holatda davlatning shakllanishi va birgalikda hayot kechirish tartiblari va qoidalarining shakllantirilishi va ushlab turilishi mazmun – moyaihti bir xilda ifodalanadi.

Eng avvalo, davlat qat'iy tartibda belgilangan hududga ega hisoblanadi, bu hudud qo'riqlanuvchi huquqiy va siyosiy makonni o'zida ifodalab beradi. Ushbu hududda uning o'lchamlaridan qat'iy nazar, davlat tomonidan chiqariluvchi va belgilanuvchi qonunlar va qarorlar amal qiladi. Davlat ushbu meyorlar va qonunlarga davlat hududi doirasida doimiy yoki vaqtinchalik hayot kechiruvchi barchaning amal qilishi, bo'ysinishini ta'minlash, ularni bunga majburlash huquqiga ega hisoblanadi. Shunday qilib, davlat o'zi egallagan hudud doirasida oliy hokimiyat (suverinitet) hisoblanadi.

Davlat ommaviy siyosiy institut hisoblanadi. Ommaviy hokimiyat o'z tarkibiga ijtimoiy munosabatlarni kasbiy mahorat (professional) darajasida nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi, davlatning hududi va

chegaralari yahlitligi va dahlsizligini himoya qilish majburiyatini olgan harbiy qo'shinga ega bo'lgan, shuningdek jamiyatdagi ijtimoiy tartiblar va fuqorolarning havfsizligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat olib boruvchi politsiya va huquq organlariga ega hisoblangan davlat apparatini o'z ichiga oladi.

Turli xildagi ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, jamiyat hayotini moddiy jihatdan ta'minlashni amalga oshirishda ommaviy hokimiyatning tarkibi vam funksiyasi doimiyligi ta'minlanishi maqsadlarida davlat soliq va tegishli tartibda belgilanuvchi mablag' yig'imlarini yig'ib olish bo'yicha mutloq huquqqa ega hisoblanadi.

Siyosat olamida davlatning kalit sifatidagi roli uning butun jamiyat manfaatlari uchun qaratilgan faoliyatida o'z ifodasini topadi, shu sababli davlatning faoliyati boshqaruv va tashkiliy funksiyani bajaruvchi institutlarning bir butunligini ta'minlashga yo'naltiriladi. Shu sababli, davlat tuzilmasi atrofida davlat hokimiyatiga talabgorlik qiluvchi turli xil guruhlar o'rtasida o'zaro asosiy raqobat boradi. Garchi ularning solishtirma qiymati tashqi va ichki holatlarga bog'liq holatda variatsiyalansada, ko'rsatib o'tilgan belgilar barcha tipdagi davlatlar uchun fundamental belgilar hisoblanadi.

Biroq, zamonaviy olamda globallashish jarayonlari milliy davlatlarning alohida mavjud bo'lishi doirasini toraytirishi, ichki va tashqi holatlar o'rtasida o'zaro farqlanishlarning e'tiborga olinmasligi asosida, suverinitet tushunchasining ayrim holatlarda halqaro miqyosdagi faoliyat sifatida namoyon bo'lishga olib kelishi kuzatilmoqda. Agar, ushbu vaziyatga boshqa burchakdan turib nigoh tashlansa, u holda mavjud chegaralarni tan olmaydigan shaklda globalizatsiya jarayoni (maqsadga yo'naltirilgan tavsifda yoki shunchaki, o'z yulida davom etishida) siyosiy jarayonlarni asosiy regulatsiya qiluvchi sifatida o'rin tutuvchi milliy davlatchiliklar rolining tubdan o'zgarishlariga olib kelishi mumkin.

Ko'proq darajada an'anaviy areallarni o'z ichiga oluvchi, ma'lum bir aniq soha va hududlarda davlatning ta'sir samaradorligi qayd

qilinishiga qaramasdan, hozirgi kunda kuzatiluvchi haqiqiy voqeilik asosini tashkil qiluvchi vaziyatlar boshqacha holatlarga urg'u berishga majbur qilmoqda. Davlatning hududiy aktorlar tomonidan ko'rsatiluvchi bosim kuchayib borishini belgilab beruvchi sharoitda bozorning globallashuvi, avtonomiya amal qilishgacha bo'lgan holatlarni o'z ichiga qamrab oluvchi holatlarni qayta taqsimlanilishiga erishish, davlat budjetining umumiy holatda inqirozi, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarning qondirilishida ehtimolligi mavjud imkoniyatlarning borgan sari kamayib borishi kabi uchta asosiy ustuvorlikka ega bo'lgan va boshqa turdagi sabablar bloki ta'siri ostida yagona, bir butunlikni tashkil qiluvchi (unitar) aktor sifatida qaror topishiga barham berilishi kuzatiladi. Natijada, o'z navbatida ichki mahalliy aktorlar bir – birlari bilan raqobatlashadi va ularning manfaatlari endi kam holatlardagina to'planishi kuzatiladi, bu holatni «milliy manfaatlar» deb nomlash qabul qilingan.

Zamonaviy davlat tarixiy nuqtai nazardan unga xos bo'lgan ayrim funksiyalardan mahrum bo'ladi, an'anaviy davlat institutlarining dunyo miqyosida va shuningdek, o'z chegaralari ichida istisodiy va siyosiy jarayonlarni nazorat qilishi barham topadi. Buning natijasida, davlat funksiyalarining bir qismi milliy manfaatlardan ustun darajadagi holatlarga beriladi. An'anaviy – davlatchilik vakolatining boshqa bir qismi esa – hududlar va mintaqalar darajasidagi, shuningdek ma'lum bir hokimiyat resurslariga ega bo'lgan va global olam koordinatalarida mahalliy ijtimoiy jamiyatlarning funktsiya bajarishni ta'minlashga qodir bo'lgan, siyosiy – boshqaruv faoliyati subyektlariga beriladi.

Davlatning paydo bo'lishi tarixi bilan tanishish ko'p jihatdan uning vazifalari to'g'risidagi masalani aniqlashtirishga yordam beradi. Bu muammoga marksistik yondashuv sof sinf: davlatning asosiy vazifasi hukmron sinflarning manfaatlarini himoya qilishdir. Tashqi va ichki barcha boshqa funksiyalar ushbu asosiy funksiyaga bo'ysunadi.

Bu, birinchidan, davlat faqat mustasno ko'rinishidagi yuqori darajali tuzilma bo'lishi mumkin, agar kurashuvchi sinflar kuchlar muvozanatiga yerishsa, davlat hokimiyati ularga nisbatan ma'lum bir mustaqillikka yega bo'ladi.

Ikkinchidan, siyosiy hokimiyatning ishchilar sinfi va kambag'al dehqonlar qo'liga o'tishi oxir oqibatda davlatning yo'q bo'lib ketishiga olib keladi deb taxmin qilinadi.

Zamonaviy davlat bir qator funksiyalarni bajaradi:

- mavjud davlat tizimini himoya qilish;
- jamiyatda barqarorlik va tartibni saqlash;
- ijtimoiy xavfli to'qnashuvlarning oldini olish va bartaraf yetish;
- iqtisodiyotni tartibga solish;
- Ichki siyosatni barcha jabhalarda - ijtimoiy, madaniy, ilmiy, ta'lim, milliy, yekologik va boshqa sohalarida olib borish.
- xalqaro maydonda davlat manfaatlarini himoya qilish;
- mamlakat mudofaasi va boshqalar.

Iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda davlatning roli masalasi bugungi kunda alohida qiziqish uyg'otmoqda. Xususiyl mulk bo'lmagan taqdirda (ishlab chiqarishning Osiyo uslubi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi) bu rol juda sodda va sodda - to'g'ridan-to'g'ri direktiv ko'rsatma va ishlab chiqilgan shakllarda - batafsil rejalar asosida. Rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida boshqa, yanada murakkab manzara rivojlanadi.

Bir tomondan, davlatning aralashuvi qanchalik kuchli bo'lsa ham, masalan, bilvosita iqtisodiy qonunlar va soliqlar orqali, tadbirkorlik

qiziqishi darajasi shunchalik past bo'lsa, kapitalni xavf ostiga qo'yish istagi shunchalik kamayadi. Boshqa tomondan, umuman jamiyat darajasidagi iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvi, albatta, ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, to'g'ri tarkibiy siyosat, iqtisodiyotni moliyaviy sog'lomlashtirish va boshqa muammolarni hal qilish uchun zarurdir. Davlat tomonidan yuqorida sanab o'tilgan boshqa funksiyalarni bajarishi katta ahamiyatga ega.

Jamiyatning siyosiy hayotidagi davlat tuzilishi, boshqaruv shakli va siyosiy rejim kabi muammolarni hal qilish katta ahamiyatga ega. Davlat tizimi masalasi, birinchi navbatda, qonun chiqaruvchi hokimiyatni markaz va periferiya o'rtasida taqsimlash bilan bog'liq. Agar qonunchilik funksiyalari to'liq markazga tegishli bo'lsa, shtat birlashgan deb hisoblanadi, ammo hududiy birliklar o'z qonunlarini qabul qilish huquqiga yega bo'lsa, shtat federal hisoblanadi. Federatsiya markazning hukmronlik qilish istagi bilan hududiy bo'linmalar - separatizm o'rtasidagi ziddiyatni yengib o'tishga imkon beradi.

Boshqaruv shakli monarxiya yoki respublika bo'lishidan qat'i nazar, davlat hokimiyatini amalga oshirish tabiati bilan bog'liq. Agar monarxiya barcha hokimiyatlarni boshqaruvchi sulolani ifodalovchi bitta shaxsning qo'liga to'plashni o'z ichiga oladigan bo'lsa va hokimiyat odatda meros qilib olinadigan bo'lsa, unda respublika hukumati hokimiyatga, xalqqa, ular tomonidan saylangan vakillik organlariga bo'lgan huquqni tan olishni anglatadi.

Hukumatning qaysi shakli yaxshiroq, respublika yoki monarxiya degan savolga asosan ritorik savol javob beradi. Zamonaviy Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'plab rivojlangan va siyosiy barqaror davlatlar monarxiyalardir. Amerikalik tadqiqotchi S. Lipset media-torga, ya'ni zamonaviy jamiyatning barcha qatlamlariga nisbatan monarxiyaning kelishuv roliga ye'tibor qaratmoqda.

"Xuddi shu mamlakatlarda u, inqilob natijasida monarxiya ag'darilgan va tartibga solingan merosxo'rlik buzilgan, monarxiya o'rmini yegallagan respublika rejimlari inqilobdan keyingi beshinchi avlod-

gacha bo'lgan barcha muhim qatlamlarning nazarida qonuniylikni topa olmaganliklarini ta'kidlamogda. "Siyosiy rejim deganda odatda davlat hokimiyatini amalga oshirish vositalari va usullarining kombinatsiyasi tushuniladi. Totalitarizm, avtoritarizm, liberalizm va demokratiya kabi siyosiy rejimlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bugungi kunda totalitarizm va demokratiya alohida qiziqish uyg'otmoqda.

Totalitarizm (lat. totalis dan) - bu siyosiy tizim bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati jamiyatning barcha tomonlarini - siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan boshqarishdir. Hatto fuqarolarning fikrlari ham befarq qolmaydi, bu "o'zgacha fikr" iborasi paydo bo'lishi bilan tasdiqlanadi. Totalitarizm, xuddi XX asrning despotizmidir. Oldin qattiq rejimlar mavjud yedi, ammo totalitarizm nisbatan yangi hodisa. Bu fuqarolar ustidan to'liq nazorat faqat ommaviy axborot vositalarining (matbuot, radio va televideniye) paydo bo'lishi bilan mumkin bo'lganligi bilan izohlanadi.

Totalitarizmning teskarisi demokratiya (yunon. Demos - odamlar va cratos - hokimiyat). Uning kelib chiqishida bu mutlaqo Yevropa hodisasi. Bu qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan va juda ko'p sonli yerkin yegalar tizimining manfaatlarini ifoda yetgan. Ijtimoiy va falsafiy tafakkur tarixida unga bo'lgan munosabat boshidanoq bir xil yemas yedi.

Aflotun uning yuziga tikilib qaradi - Aristotel. Yangi asrda bozor munosabatlarining rivojlanishi davlat tuzilishi masalasini kun tartibiga qo'ydi, unga binoan yegalar - burjua huquqlari hokimiyatning o'zboshimchaliklaridan himoya qilinadi. Jamoat shartnomasi nazariyasi asosida inson huquqlari konsepsiyasini ishlab chiqqan J.Lokk va S. Monteskyu qonunlarga rioya qilish siyosiy yerkinlikning yeng muhim kafolati degan xulosaga kelishdi.

J.Lokkning so'zlariga ko'ra, shtatda "qonuniy hokimiyat, agar kerak bo'lsa, yeng yuqori darajada bo'lishi kerak va jamiyatning biron bir a'zosi yoki qismining shaxsidagi barcha boshqa hokimiyatlar undan chiqadi va unga bo'ysunadi." Lokk g'oyalarini ishlab chiqishda,

S.Monteskyu, qonun ustuvorligi faqat hokimiyatni qonunchilik, ijro etuvchi va sudga bo'linish orqali ta'minlanishi mumkin, shunda ular "o'zaro bir-birini to'sib qo'yishi" mumkin edi. Aksincha, ularning bir xil qo'llardagi kombinatsiyasi o'zboshimchaliklarni keltirib chiqaradi.

III.2. SIYOSIYLIKNING TARKIBIY KOMPONENTLARI

Tavsiflanayotgan Siyosiylikning 7 ta asosiy lahzalarini ajratib ko'rsatamiz:

- Hokimiyat;
- Ijtimoiy funksiyalarning taqsimlanishi, notenglik bilan operatsiya bajaruvchi iyerarxiya;
- Huquqiy tizim;
- Jamoaviy identifikatsiya;
- Zo'ravonlik, zo'ravonlikning qonuniylashtirilishi, zo'ravonlikdan himoya qilish (jamoaviy havfsizlik);
- Qadriyatlar tizimi.

Navbatda siyosatning yanada aniqlashtirilgan masalalarini o'rganish davomida, biz ushbu modelni turli xil g'oyalarni, siyosiy va partiyalarga tegishli platformalarni va hakoazolarni tavsiflash uchun tadbqiq etamiz.

Amalga oshirilgan ishlarning natijalariga ko'ra quyidagilarni ta'kidlash kerak.

Siyosat falsafasi siyosat va hokimiyatning nedensel aloqalari, ularning ijtimoiy ma'nosi, siyosatning moddiy va ideal shakllarda mujassamlanishi, davlat, fuqarolik jamiyati, siyosiy ong muammolari, uning axloq, din, san'at va boshqalar bilan aloqalari bilan qiziqadi. "Hokimiyat", "siyosat" toifalarining "ozodlik", "adolat", "tenglik" kabi fundamental falsafiy kategoriyalari, shu jumladan milliy, sinfiy va umumbashariy aloqalarini aniqlashtirish alohida ahamiyatga yega.

Siyosatda davlat muhim ahamiyatga yega. Davlat jamiyatning markaziy hokimiyat instituti va siyosat ushbu hokimiyat tomonidan konsratsiyalashgan holda amalga oshiriladi ».

Davlat boshqa ijtimoiy institutlardan farq qiladi:

- ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar va hokazolarda hukmron kuchlarning ijtimoiy-sinfy asoslarining majburiy bo'lishi;

- markaziy va periferik organlar vakili bo'lgan maxsus quvvat apparati mavjudligi;

- iqtisodiy bo'lmagan majburlash bo'yicha monopoliya;

- Davlat hududining mavjudligi;

- Fuqarolarning ichki va tashqi siyosatini olib borishi majburiy bo'lgan qonunlar chiqarishning suveren huquqi;

- soliqlarni yig'ish, banknotalarni chiqarish, budjet siyosatini yuritish va boshqalar bo'yicha mutlaq huquq. Siyosiy ong - bu siyosiy munosabatlar va siyosiy institutlar faoliyati, jamiyatning butun siyosiy hayoti odamlar ongida aks yettirish.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan Konsepsiyaning mazmun-mohiyati va ahamiyati. 2010 yil 12 noyabrda e'lon qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"ga muvofiq, «Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish»ning mazmun-mohiyati va unda ilgari surilgan g'oyalar. «Sud-huquq tizimini isloh etish»ning mazmuni va unda ilgari surilgan g'oyalar. Sud-huquq tizimida yechimini kutayotgan muammolarga an'anaviy, mantiqiy, falsafiy nuqtai-nazar asosida yondashuv. "Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash»ga bag'ishlangan bo'limning mazmun-mohiyati, bu borada ilgari surilgan taklif-mulohazalar. «O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini

ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish»ga bag'ishlangan bo'limning mazmun-mohiyati va unda ilgari surilgan g'oyalar.

Davlat hokimiyatini nomarkazlashtirish sharoitida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining tutgan o'rni. «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari» tushunchasi va huquqiy maqomi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirish tartibi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi huquqiy-meyoriy hujjatlar. Mustaqillik davrida mahalla institutining rivojlantirilishi. Mahalla – fuqarolik jamiyatining noyob instituti. Taraqqiyotning yangi bosqichida mahallaning o'rni va roli.

«Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish» bo'limining mazmun-mohiyati. Islom Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"dagi «Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish» bo'limining mazmun-mohiyati.

Jamiyatni demokratlashtirish, ijtimoiy adolat – barqarorlik tayanchi

Demokratiyaning mazmun-mohiyati, demokratiyaga zid boshqaruv idora shakllari va uslublarining barham topishi. Demokratiyaning shartlari va mezonlari. Demokratiyaning milliy xususiyatlarni o'zida ifoda etishi. Demokratik qadriyat va demokratik tamoyillar. Demokratik xalqaro munosabatlar va dunyo taraqqiyoti. Demokratiya xususiyatlari: umumbashariylik, mintaqaviylik va milliylik. Demokratiya va fuqarolik jamiyatining shakllanish madaniyati, alohida xususiyatlari va o'zaro uyg'unligi.

Fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish muammosini ham isdan chiqarmaslik lozim. Hokimiyat va fuqaro: o'zaro munosabatlarning huquqiy va ma'naviy asoslari. Islohot subyektlarining faollashuvi bilan bog'liq muammolar.

Ijtimoiy adolat tamoyili. Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish va umumdavlat barqarorligining yaxlit jarayon ekanligi.

“Ijtimoiy sheriklik” tushunchasining mohiyati va ahamiyati.
“Jamoatchilik nazorati” tushunchasining mohiyati va ahamiyati.

“Fuqarolik jamiyati”ning ta’rifi, mohiyati. Fuqarolik jamiyatiga oid qarashlar. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Mustaqillik davrida jamiyat tizimidagi institutsional o‘zgarishlar. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgi va mezonlari, funktsiya hamda tamoyillari. Fuqarolik jamiyati institutlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda davlatning bosh islohotchilik roli. Siyosiy partiyalar faoliyatini erkinlashtirish sohasidagi islohotlar. Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish jarayonlari.

Davlat hokimiyati va boshqaruvini tashkil etish masalasi ham bor. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish masalalarining yoritilishi.

«Konstitutsiya» tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Konstitutsiyaning funksiyalari. Konstitutsiya shakllari va turlari. «Suverenitet» tushunchasi. Davlat, millat va xalq suvereniteti. O‘zbekiston Respublikasining davlat ramzlari: bayroq, gerb va madhiya.

«Xalq hokimiyatchiligi» tushunchasi va uning asosiy mazmun-mohiyati. Xalq hokimiyatchiligi – davlat hokimiyati qurilishining asosiy prinsipi. Xalq hokimiyati vujudga kelishining asosiy shakllari: bilvosita va bevosita demokratiya.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustuvorligi. Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi. Qonuniylik va huquq-tartibot. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari tasnifi. Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning asosiy xususiyatlari. Inson va fuqarolarning konstitutsion burchlari va burchlar tengligi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolati. Davlat fuqarolar huquqi va erkinligi kafolati sifatida. Fuqarolar huquq va erkinligining sud tomonidan himoyalaniishi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi tizimida siyosiy partiyalarning tutgan o‘rni. Ikki palatali parlamentning ijobiy jihatlari. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida siyosiy partiyalar fraksiyalari. Davlat boshqaruvi mexanizmida nodavlat notijorat tashkilotlarining roli. Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi va turlari. Nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish tartibi. Davlat hokimiyatini nomarkazlashtirish sharoitida nodavlat notijorat tashkilotlarining tutgan o‘rni.

Bunda, saylovlar va ularning ijtimoiy funksiyasi. Demokratik saylovlarning o‘ziga xos xususiyati va tamoyillari. O‘zbekiston Respublikasining saylov tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Saylovlarni o‘tkazishda adolat va haqiqat mezoni. Referendum va saylovlarning o‘zaro farqli jihatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining davlat boshqaruvi mexanizmida tutgan o‘rni va roli. «Bir-birini tiyib turish va muvozanatda saqlash» prinsipining mohiyati va hokimiyatlar taqsimlanish amaliyotidagi ifodasi. Prezidentlikka saylovlar va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Davlat boshqaruvini modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qonunchilik, ijro va sud hokimiyatlarini muvofiqlashtirishga doir vakolatlari. Prezident tomonidan imzolanadigan meyoriy-huquqiy hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasi ijro hokimiyati organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asoslari. Bosh vazir instituti va uni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatini shakllantirish tartib-qoidalari. Mahalliy davlat hokimiyatining davlat boshqaruvi mexanizmida tutgan o‘rni. Hokimlik institutining vujudga kelish sabablari. Hokim – mahalliy vakillik organi rahbari. Mahalliy vakillik organlarini shakllantirish tartibi va o‘ziga xos xususiyatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining davlat boshqaruv organlari tizimida tutgan o‘rni va ijtimoiy ahamiyati. Oliy Majlis palatalarini shakllantirish tartibi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senati va Qonunchilik palatasining vakolatlari. Senatorlar va Oliy Majlis deputatlarini saylash tartibi.

“Elektron hukumat” tizimining afzalligi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo‘naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish;

siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish.

Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta’minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish;

mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishda o‘zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta’minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari

hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

“Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko‘rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:

xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;

fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va faoliyati samaradorligini oshirish;

ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish.

O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilish, sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirish, fuqarolarning sud orqali himoyalaniş kafolatlari, Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqqligi. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”da sud-huquq tizimini isloh etish maqsadida bildirilgan takliflar bo‘yicha amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlar. Sud tizimi va unda Konstitutsiyaviy sudning o‘rni. Sud hokimiyatining davlat hokimiyati tizimida tutgan o‘rni va roli.

Sudda prokuror va advokatning tengligini, jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha sud faoliyatining barcha bosqichlarida o‘zaro tortishuv bo‘lishini ta’minlashga, odil sudlovning sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar. Jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatni yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga

muvofiglashtirish. O'zbekistonda o'lim jazosining bekor qilinishi va uning mazmuni.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessida tomonlarining tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;

"Xabeas korpus" institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash;

sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralari ko'rish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash; sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:

jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish;

odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish;

elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiglashtirishning samaradorligini oshirish;

ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish;

korruptsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korruptsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

III.3. SIYOSAT FALSAFASIDA IJTIMOIIY SIYOSAT VA AHOLI IJTIMOIIY FAOLLIQI MASALASI

ijtimoiy siyosat va jamiyat taraqqiyotining muhim omillarini tahlil qilish asoslari –

Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlari orasida huquqbuzarliklarni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:

davlat organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish;

advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokatlarning rolini oshirish;

notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilish.

Kuchli ijtimoiy siyosat va aholi ijtimoiy faolligining ortishi...

Kuchli ijtimoiy siyosat – barqarorlik asosi. Bozor va ijtimoiy himoya: tajribalar, muammolar va yechimlar. Ijtimoiy himoya va uni amalga oshirishda davlatning asosiy funksiyalari. Ijtimoiy adolat tushunchasi. Ijtimoiy adolatni qaror toptirish yo'l-yo'riqlari. Ijtimoiy siyosat: ziddiyat va yechimlar. Kuchli ijtimoiy siyosat – O'zbekiston

Respublikasi umumdavlat siyosatining bosh yo'nalishi. Islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va ijtimoiy siyosatda ro'y bergan o'zgarishlar. «Aholini ijtimoiy himoya qilish» tushunchasining mazmun-mohiyati. Ommaviy ma'naviy va iqtisodiy qashshoqlashuv milliy xavfsizlik barqarorligi va taraqqiyotga tahdid ekanligi. Inson kapitali va inson omili. Ijtimoiy hayotda turli tabaqa va qatlamlar orasidagi uyg'unlik va mutanosiblikni qaror toptirish masalalari. Xalqning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish va rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'rin egallash ijtimoiy siyosatning bosh maqsadi sifatida.

Inson qobiliyati va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish muammolari va ijtimoiy tajriba. Ijtimoiy siyosat hamda fuqarolar dunyoqarashi va ruhiyatida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha harakatlar strategiyasidaijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

budjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish;

yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:

aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish;

oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish;

xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni kuchaytirish, xotin-qizlar, kasbhunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish;

aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;

aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash;

odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy obyektlar bilan ta'minlash;

aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni

yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

Demokratiya, ijtimoiy adolat va fuqarolik jamiyati

"Demokratiya" va "ijtimoiy adolat" tushunchalarining o'zaro uyg'unligi. "O'zbekiston — demokratik va ijtimoiy adolatli jamiyat" tezisining mohiyati. O'zbekistonda barpo etilayotgan adolatli jamiyat asoslari: ijtimoiy himoya, davlatning kuchli islohotchilik siyosati.

Markaziy davlat organlari vazifalarining mahalliy hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi.

“Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” tezisining izchil amalga oshirilishi. Har bir fuqaro erkinligi va erkin yashash huquqining davlat tomonidan kafolatlanishi; inson va jamiyat farovonligi, davlat bosh islohotchi va jamiyatning uyushtiruvchi, tashkil etuvchi organi ekanligi. «Xalq ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq imkoniyatga ega» g'oyasining siyosiy mazmuni.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosiga oid parlament nazorati. Parlament nazoratining asosiy shakllari: parlament so'rovi, parlament eshituvi, deputat so'rovi.

Demokratiya va hokimiyat taqsimoti. «Siyosiy partiya» tushunchasi. Siyosiy partiyalarning tashkil topishi. Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari. Siyosiy partiyalar faoliyatining moliyaviy ta'minlash masalalari. Siyosiy partiyalar matbuoti. Saylov tizimida siyosiy partiyalarning o'rni. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining joriy etilishi. Xalq hokimiyatchiligi qaror topishida siyosiy partiyalarning ahamiyati.

Davlat boshqaruvini yangilash va demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish. Siyosiy partiyalar va jamiyat tizimlari. Siyosiy partiyalar mafkurasi.

Siyosiy partiyalarning fraksiyalari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p yoki teng miqdordagi deputatlik o'rnini qo'lga kiritgan siyosiy partiya. “Ekoharakat”. Jamoatchilik nazorati. Siyosiy muxolifat. Elektorat.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning fuqarolik jamiyatini boshqarishdagi ishtiroki “Nodavlat”, «notijorat», «jamoat birlashmalari» tushunchalari. «Uchinchi sektor». Jamoat birlashmalari aholining turli qatlamlari manfaatlarini ifoda etuvchi, davlat va xalq o'rtasidagi asosiy bo'g'in sifatida.

Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatni demokratlashtirishdagi roli. «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» konsepsiyasining izchil amalga oshirilayotgani. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy asoslari.

Jamoat birlashmalarining funksiyalari va xususiyatlari...

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari yaratilishi. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari faoliyati. «Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida»gi qonun.

O'zbekistondagi jamoat birlashmalari: kasaba uyushmalari, xotinqizlar, faxriylar va ijodiy uyushmalar, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamda ularning faoliyati. Milliy-madaniy markazlar, diniy konfessiyalar.

Islom Karimovning O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va ahamiyati haqidagi fikrlari. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyida ijtimoiy sheriklikning ahamiyati. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni.

Jamiyat shakllanishida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni...

Mamlakatimizda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning shakllari, ularning demokratik jamiyat qurishdagi roli. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Mahalla – demokratiya maktabi» ekanligi to'g'risidagi fikrlari.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik tamoyillar asosidagi o'zini o'zi boshqarish tizimining tiklanishi. Fuqarolarni demokratik qarorlar qabul qilishda ishtirokini ta'minlash va aholini ijtimoiy himoya qilishda mahallaning o'rni.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining tashkil etilishi, boshqarish usuli, mahallani rivojlantirish va mavqeini oshirishdagi

ahamiyati. Fuqarolar yig'ini. Qishloq, ovul, mahalla oqsoqollari kengashlarining tuzilishi, vazifalari va amaliy faoliyati.

Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi. Mahalla – jamiyat totuvligi va inson tarbiyasining tayanchi. Oilani mustahkamlash – jamiyat barqarorligini saqlashning asosi. Mahallaning oilaviy biznesni rivojlantirishdagi o'rni. Ichki ishlar organlari tizimining isloh etilishi va ularning jamoatchilik bilan aloqalarining mustahkamlanishi. Mahallada yarashtirish komissiyasining roli.

O'zbekiston siyosiy tizimida ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati...

«Ommaviy axborot vositalari», «senzura», «to'rtinchi hokimiyat», «so'z erkinligi» va «so'z mas'uliyati» tushunchalari. Senzuraning bekor qilinishi.

Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlashda mustaqil jamoatchilik fondlarini tuzish. Davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalarining tizimini shakllantirishda ushbu fondlarning o'rni. Raqamli teleradioeshittirish. Ommaviy axborot vositalarining «to'rtinchi hokimiyat» deb atalishining ijtimoiy-siyosiy hayotga kirib kelishi. Internet tarmog'i. Internet ijtimoiy tarmoqlarining aholi ongiga ta'siri. Ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi. Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta'minlash. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari.

Axborotlar olish va uzatish erkinligi. Jurnalistlarning OAVdan ma'lumot olish huquqlari. Ijtimoiy fikrlar OAV rivojlanishining omili haqida.

III.4. HOKIMIYATNING TABIATI VA UNGA INTILISHNING SIYOSAT FALSAFASIDA TAHLIL ETILISHI

Siyosat falsafasi siyosatshunoslik yoki amaliy siyosiy tadqiqotlardan farq qilib, o'z oldiga quyidagi masalalarni hal qilish vazifasini ko'ndalang qo'yadi: *«Hokimiyatning tabiati qanday? Hokimiyat o'z nima? Hokimiyat ontologiyasi qanday? Hokimiyat kundalik hayot, donishmandlik, narsalarning ichki o'zgarishlari bilan qanday bog'liqlikka ega?»*.

Hokimiyat hodisasining ushbu ko'rinishdagi tushunilishi amaliy yoki texnik tavsifda qaror topishni ifodalab bermaydi. Agar, hokimiyatni egallash masalasi yoki hokimiyat uchun kurash turli xil siyosiy ta'limotlarda muhokama qilinsa, u holda hokimiyatning tabiati haqida fikr yuritiladi va bu holat faqat siyosat falsafasi doirasida anglab yetiladi.

Nitsshe o'zining «Hokimiyatga intilish» dasturiy kitobida hokimiyat haqida faylasuf sifatida tafakkur yuritadi, insoniyatning mavjudligini belgilab bervchi eng muhim o'lchovlardan biri sifatida uning ontologik mazmunda tushinilishi yuzasidan mushohada yuritadi. U tomonidan hokimiyat va unga intilish insoniyatga xos hayotning mavjudligi mohiyatini anglatadi. Nitsshe tomonidan keltirilgan fikrlar bo'yicha, hokimiyatga intilish butun insoniyat faoliyatining bazaga oid motivatsiyasi va mazmunini tashkil qiladi. Nitsshe tomonidan hokimiyat qandaydir ommaviy umumiylik, tug'ma tabiiylik, aniqlik kiritish mazmuniga ega holat sifatida tushiniladi.

Nitsshe fikrlariga binoan, hokimiyatga intilish istagiga ega bo'lmagan birorta kishi mavjud emas, odam borki hokimiyatga yomon darajada, kamroq yoki yetarli bo'lmagan darajada samarasiz intilishni namoyon qilishi mumkin. Mos ravishda, Nitsshe hokimiyatni siyosatning kvint essensiatsiyalanishi sifatida esga oladi.

Nitsshe o'z qarashlarida keyinchalik xristain diniy ta'limotlari ta'sirida, shuningdek G'arb olamiga oid ratsionalistik sxolastika va

zamonaviy umumiy Yevropa oid madaniyatni belgilab beruvchi, «Zaminga oid axloqshunoslik» meyorlari asosida ajratilgan, turmush hayoti va ong, tabiiy va su'niy, tabiiy va madaniy, insoniy va ilohiy ko'rinishlarda xali ajratilmagan Qadimiy Gretsiyaga xos qadriyatlarga qaytish tarafdori sifatida o'rin tutadi. Nitsshe uchun «hokimiyat» kategoriyasi «grekcha» («Dionischa») ustuvorlikni ifodalab beradi. Unda turli xildagi cheklanishlar va to'xtalishlar kanallari tizimlarining murakkab jarayonidan xali o'tib ulgurmagan, sof holatdagi turmush hayotiga oid ortiqchaliklar konsentratsiyalanishi qayd qilinadi. Odam uchun hokimiyat huzurlanish, quvonch yoki og'riqni his qilish kabi tabiiylik hisoblanadi. U turmush hayotidan axloqiylikning yuqori bo'lgani kabi, u axloqiylikdan yuqori hisoblanadi. Hokimiyat o'z tarkibiga «qarama – qarshi tomonlarning sintezlanishi»ni qamrab oladi, u «farovonlik, ezgulik» yoki «yovuzlik» emas, u ulug'vor va kichik, kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Nitsshe o'zining nazariyalari ruhiyatida «hokimiyat» tushunchasini sof holatdagi turmushga oid hayot bilan namoyon qilishni ko'rsatib beradi.

Turli xildagi tarixiy sharoitlarda, olamga nisbatan «grekcha» munosabat bildirishning tabiiy holatdaligi, «tajovuzkor qumsash» emaslik (Nitsshedagi holat singari) asosida fikr yurituvchi Aflotundan farq qilib, Nitsshe idel Davlatda «universal uyg'unlik»ning butun turmush hayotini qamrab olishi haqida qayg'urmaydi, balki ushbu turmush hayotining mavjudlik faktining o'ziga e'tibor qaratadi, bu holat Nitsshe yashab ijod qilgan XIX asr Yevropasining Qadimgi Gretsiyadan ajratib turuvchi ming yildan ortiq davrning ta'siri sifatida baholanadi. Shu sababli, Nitsshe tomonidan ideal Davlat keng ko'lamdagi traktatda emas, balki qisqa ko'rinishdagi aforizmida o'z ifodasini topadi. «*Davlat yoki uyg'unlikdagi axloqiylik: bu nazoratni ta'minlovchi politsiya tizimlari, tabaqalar, tijorat, oila kabilar zaruriyati mohiyati asosida emas, balki hokimiyatga intilish, urushlarga, bosib olishlar, chang ko'tarishga intilishlar zaruriyati asosida ifodalanadi.*»

Nitsshe tomonidan va shuningdek, undan keyingi davrlarda faoliyat olib borgan ko'pgina faylasuflar tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, ushbu ko'rinishdagi yondoshuvlarda, biz hokimiyatga oid tamoyilning chegaraviy darajadagi ekzaltatsion shakliga ega bo'lamiz. Bu holat o'z mohiyatiga ko'ra «*ko'p marta oshirib ko'rsatiluvchi siyosiy maksimalizm*» hisoblanib, ya'ni hokimiyatning huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishi va cheklovchi qonuniylashtirilgan tizimlar bilan bog'lanishlari emas, balki hokimiyat unsurlarining eng yuksak boshlang'ichini tan oluvchi siyosat falsafasini o'zida aks ettiradi.

Hokimiyatga, uning ontologik tavsiflariga nisbatan bu ko'rinish munosabat bildirish Siyosiy fundamental sferani tan oluvchi siyosiy ta'limotlar uchun xos xususiyat hisoblanadi. Siyosat qandaydir umumiy ommaviylik sifatida qarab chiqiluvchi joyda hokimiyat masalasi markaziy tarkibiy tavsifga ega hisoblanadi. «Ko'p marta oshirib ko'rsatiluvchi siyosiy maksimalizm» Siyosiylik masalasiga ontologik yondoshuvning ajralmas qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishish ostonasida milliy va ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va uning tarixiy ahamiyati. Mustaqillik davrida milliy- ma'naviy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'alarimizga bo'lgan munosabatlarning tubdan o'zgarishi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston: milliy istiqlof, iqtisod, siyosat mafkura» hamda «Yangicha fikrlash va ishlash—davrlar talabi» asarlaridagi ijtimoiy va ma'naviy sohalarga doir vazifalar va ularni amalga oshirish yo'nalishlari. Mustaqillik mafkurasining moddiy va ma'naviy asoslari, tarixiy negizlari, xalqimiz, millatimizning tarixiy ong va xotirasi milliy va ma'naviy mafkuramizni shakllantirish omili ekanligi. Mustaqillik mafkurasining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari. Mustaqillik mafkurasining milliy va umumbashariy tamoyillari.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlarida ma'naviyat va ma'rifat masalalariga e'tibor. Shuningdek, «O'zbekiston XXI

asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarlarida va «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida», «Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir» kitoblarida ilgari surilgan metodologik konsepsiyaning mohiyati.

Istiqlolning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlari. Yoshlar ongi va qalbiga milliy g'urur, milliy oriyat, milliy iftixor tuyg'ularini singdirish. Milliy ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash. Ozod Vatan, o'z yurtiga sohiblik hissini tarbiyalash omillari. Har bir shaxsning o'z mamlakati manfaatlarini himoya qilish burchi. «Mening davlatim», «Mening xalqim», «Mening Vatanim» tushunchalarining yurakdan mustahkam joy olishi.

